


N. U. BIKBAYEVA, E. YANGABAYEVA

MATEMATIKA

UMUMIY TA'LIM MAKTABLARINING
3- SINFI UCHUN DARSLIK

Qayta ishlangan 7- nashri

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
tasdiqlagan*



"O'QITUVCHI" NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT – 2008

Taqrizchilar: N. Ahmedova — RTM boshlang'ich ta'llim bo'limi boshlig'i,
L. O'rinxoyeva — Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedago-gika universitetining matematika o'qituvchisi,
M. Bositxonova — Toshkent shahar 324-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

SHARTLI BELGILAR

1, 2, 3... — og'zaki bajarish uchun mashqlar

1, 2, 3... — yozma bajarish uchun mashqlar

  — yozuv to'g'ri bo'lishi uchun qo'yilishi kerak bo'lgan belgilari

 — doiraviy misollar

 — nazariy material

 — mantiqiy topshiriqlar

 — uyda bajariladigan mashqlar

 — bir dars materialini keyingi dars materiali dan ajratuvchi belgi

10 34542
391

Ushbu darslikdagi pul muomalasiga doir mashqlarda narxlar shartli qabul qilingan.


**„Darsliklarning aylanma mablag'lari hisobidan chop etildi“
(388 481 nusxa).**


4306020500 — 26
B 353(04) — 2008 Buyurt. var. — 2008

© „O'qituvchi“ nashriyoti, T., 2001.

ISBN 978-9943-02-095-5

© „O'qituvchi“ NMIU, 7- nashri, 2008.






2- SINFDA O'TILGANLARNI TAKRORLASH VA UMUMLASHTIRISH

1. Rasmga qarab masala tuzing va uni yeching:

Bor edi	Ishlatildi	Qoldi
10 kg	2 kg va 4 kg	?

2. Har bir ko'pburchakning nomini ayting. To'rtburchaklar nechta?



3. Bog'ga 60 tup ko'chat o'tqazildi. Bulardan 20 tupi olma, 30 tupi xurmo, qolganlari esa jiyda. Bog'ga necha tup jiyda o'tqazilgan?

Yechish rejasi

- 1) Necha tup olma va xurmo o'tqazilgan?
- 2) Necha tup jiyda o'tqazilgan?

4. $20 + 10 + 30$ $60 - (10 + 40)$ $80 - 60 + 10$
 $70 - 20 - 20$ $60 - 10 - 40$ $80 - (60 + 10)$
5. Donxo'rakda 14 ta chumchuq va 10 ta kaptar bor edi. Birozdan keyin 20 ta qush uchib ketdi. Donxo'rakda nechta qush qoldi?



30 va 20 sonlarining yig'indisi 50 ga teng. Yig'indi birinchi qo'shiluvchidan nechta ortiq? Ikkinci qo'shiluvchidan-chi?



6. Uchinchi qopda necha kilogramm kartoshka bor?



40 kg

30 kg

?

90 kg

- 7.



$80 - 20$

$90 + 10$

$60 - 50$

$10 + 30$

$50 + 30$

$100 - 50$

$40 + 50$



8. Chizma bo'yicha masala tuzing. Masalani yeching:

Yon daftarlari 12 ta

Qalamlar ?

Daftarlari 3 ta ?

9. O'quvchi ruchka va daftarlardan hammasi bo'lib 12 ta sotib oldi. Daftarlar 9 ta. Ruchkalar daftarlardan nechta kam?
10. $11 - 2 + 3$ $12 - 19 + 8$ $11 - 6 + 25$
 $11 - 4 + 5$ $12 - 5 + 4$ $12 - 6 + 14$
11. Uchta molxonada 100 ta sigir bor. Birinchi molxonada 30 ta, ikkinchisida 50 ta sigir bor. Ushbu ifodalarni hisoblab, nimani bilish mumkin: $50 - 30$; $30 + 50$; $100 - (30 + 50)$; $100 - 50$; $100 - 30$.



Rasmda to'rtburchaklar nechta? To'g'ri to'rtburchaklar-chi? Kvadratlar-chi?



12.

20 ta kamaytiring				
90	70	30	50	80

30 ta orttiring				
40	50	10	30	70

13. Jadvalni to'ldiring:



11	3	5	7	9
8				

12	6	3		5
				4

Namuna: $11 = 3 + 8$.

14. Oldin ikki xonali sonlarni, keyin bir xonali sonlarni o'qing:

8	23	80	4	20	89	6	99	75
---	----	----	---	----	----	---	----	----

15.



Har birida 2 litrdan

5 litr

Yechish rejasi

- 1) 4 ta ballondagi sut necha litr?
- 2) Hamma sut necha litr?

16. Bir sinfda 30 ta, ikkinchi sinfda ham shuncha o'quvchi bor. Ikkala sinfdagi qiz bolalar 35 ta. Ikkala sinfda nechta o'g'il bola bor?

17. $5 + 3 + 6$ $12 - (19 - 10)$ $14 - (10 - 4)$
 $13 - 4 - 9$ $9 + (13 - 8)$ $14 - 10 - 4$

18.

Do'konda gazlama sotilishiga doir quyidagicha yechiladigan masala tuzing:

1) $5 + 4 = 9$ (m) 2) $13 - 9 = \square$ (m)

19. Jadvalni to'ldiring:

13	10	8	6	4
	3			

14	9		7	
		8		10



Namuna: $13 = 10 + 3$.

20. Hammasi bo'lib necha kilogramm sabzi bor?



6 kg



9 kg



?

ikkalasida qancha
bo'lsa shuncha

ikkalasida qancha
bo'lsa, shuncha

?

21. 20 m chit bor edi. 7 m chitdan ko'yylaklar tikildi va yana shuncha chit yostiq jildi tikish uchun olindi. Necha metr chit qoldi?

Yechish rejasi

- 1) Ko'yylaklar tikilganidan keyin necha metr chit qoldi?
- 2) Yostiq jildlari tikilganidan keyin necha metr chit qoldi?

Masalani boshqa usul bilan yeching:

$$1) 7 + \square = \square \text{ (m)} \quad 2) 20 - \square = \square \text{ (m)}$$

Masalaning yechilishini tushuntiring.

22.	6 – 6	19 + 0	18 – 0	0 + 100
	17 – 17	0 + 24	37 – 37	100 – 0

23. Agar $a = 20$ bo'lsa, $a + 30$ yig'indini va $90 - a$ ayirmani hisoblang.



Zokirda uzunligi 8 dm bo'lgan sim bor edi. Zokir uning oxiriga uzunligi 2 sm bo'lgan sim uladi. Hosil bo'lgan simning uzunligi qancha?

24.

Bir to'pda 14 m chit, boshqa to'pda 17 m shoyi bor edi. 9 m shoyi va 7 m chit sotildi. Har bir to'pda necha metr gazlama qoldi?

25. Jadvalni to'ldiring:

15	6	7	8	9
9				


16	8		6	
		9		7



Namuna: $15 = 6 + 9$.

26. Rasmni va yozuvni ko'rib chiqing va yechimini tushuntiring:

$$48 - 25 = \square$$



$$\begin{aligned}
 40 - 20 &= 20 \\
 8 - 5 &= 3 \\
 20 + 3 &= 23 \\
 48 - 25 &= 23
 \end{aligned}$$

$$27. \begin{array}{l} 56 + 23 \\ 56 - 43 \end{array} \quad \begin{array}{l} 99 - 50 \\ 99 - 5 \end{array} \quad \begin{array}{l} 17 - (11 - 2) \\ 100 - (11 - 7) \end{array}$$

28. Kitob 98 betli. Saida 32 bet o'qidi. Saida o'qib bo'lganiga qaraganda yana o'qish uchun nechta ortiq bet qoldi?



Yechish

$$1) 98 - 32 = \square \quad 2) 66 - 32 = \square$$

Yechishni tugating va uni tushuntiring.



Qovoq tarvuzdan og'irroq, tarvuz esa qovundan og'irroq. Qaysi biri yengilroq: qovoqmi yoki qovunmi?

29.

Bor edi	Sotildi	Qoldi
96 ta o'yinchoq	55 ta o'yinchoq	?

Qolganiga qaraganda nechta ortiq o'yinchoq sotilgan?

30.

$$\begin{array}{llll} 4 + 45 & 78 - 8 & 32 + 32 & 66 + 0 \\ 40 - 15 & 90 + 10 & 8 + 50 & 54 + 14 \\ 85 - 14 & 96 - 44 & 69 - 18 & 67 - 22 \end{array}$$

31.

Bolalar daladan 45 kg kartoshka, shuncha piyoz, kartoshka bilan piyoz qancha bo'lsa, shundan 20 kg kam sabzi terib olishdi. Bolalar necha kilogramm sabzi terib olishgan?



32. Yechilishini tushuntiring:

$$54 + 6 = \square$$

$$4 + 6 = 10$$

$$50 + 10 = 60$$

$$48 + 5 = \square$$

$$8 + 5 = 13$$

$$40 + 13 = 53$$

$$69 + 27 = \square$$

$$60 + 20 = 80$$

$$9 + 7 = 16$$

$$80 + 16 = 96$$

33. Shunday sonlar tanlab olingki, yozuvlar to'g'ri bo'lisin:

$$1) 8 \text{ sm } 4 \text{ mm} = \square$$

$$2 \text{ dm } 6 \text{ sm} = \square \text{ sm}$$

$$5 \text{ m } 8 \text{ dm} = \square \text{ dm}$$

$$81 \text{ dm} = \square \text{ m } \square \text{ dm}$$

$$19 \text{ mm} = \square \text{ sm } \square \text{ mm}$$

$$29 \text{ sm} = \square \text{ dm } \square \text{ sm}$$

$$2) 3 \text{ m } 8 \text{ dm} < \square \text{ dm}$$

$$6 \text{ dm } 3 \text{ sm} > \square \text{ sm}$$



$$4 \text{ sm } 2 \text{ mm} < \square \text{ mm}$$

$$1 \text{ dm } 3 \text{ sm} < \square \text{ sm}$$

$$5 \text{ sm } 4 \text{ mm} > \square \text{ mm}$$

$$9 \text{ m } 8 \text{ dm} > \square \text{ dm}$$

34. Shakllarning perimetrlarini toping:



Birinchi son 16, ikkinchi son 45, uchinchi son shu ikki sonning yig'indisidan 31 ta kam. Uchinchi sonni toping.

35.

Rasmga qarab masala tuzing va yechilishini daf-taringizga yozing:



11 kg



? , 7 kg yengil

?

36. Javobi 50 dan katta bo'lgan misollarni yeching:



$$34 + 65$$

$$45 + 12$$

$$89 - 9$$

$$6 + 73$$

$$27 + 41$$

$$0 + 34$$

$$90 - 45$$

$$30 + 19$$

37. Yechilishini tushuntiring:

$$30 - 7 = \square$$

$$10 - 7 = 3$$

$$20 + 3 = 23$$

$$61 - 9 = \square$$

$$\begin{array}{r} 1 \\ 8 \end{array}$$

$$61 - 1 = 60$$

$$60 - 8 = 52$$

$$72 - 35 = \square$$

$$72 - 30 = 42$$

$$42 - 5 = 37$$

38. Masalalar tuzing va ularni yeching:

Bor edi — 35 m

Qirqib olishdi — 8 m
va 5 m

Qoldi — ?

Bor edi — 16 ta va
20 ta

Sotib olishdi — 14 ta

Bo'ldi — ?

- 39.** 16 o'ram jun ipdan 4 ta bir xil bolalar sviteri chiqadi. 1) Shunday 7 ta sviter uchun necha o'ram jun ip kerak bo'ladi? 2) Shunday 36 o'ram jun ipdan nechta shunday sviter to'qish mumkin?
- 40.** Otam o'z ta'tilining 8 kunini dala hovlida, qolgan ikki haftasini uyda o'tkazdilar. Otam ta'tilda necha kun bo'lganlar.



Vohidga onasi 25 so'mlik va 5 so'mlik ikkita tanga berganidan so'ng uning puli 60 so'm bo'ldi. Dastlab Vohidning o'zida necha so'm bo'lgan?



- 41.** Sinf kutubxonasiga doir masala tuzing va uni yeching:

Bor edi	Berildi	Qoldi
95 ta kitob	26 ta va 47 ta kitob	?

- 42.** Ayirmani toping:

$$\begin{array}{r}
 62 \\
 - 17 \\
 \hline
 \end{array}
 \quad
 \begin{array}{r}
 90 \\
 - 23 \\
 \hline
 \end{array}
 \quad
 \begin{array}{r}
 77 \\
 - 35 \\
 \hline
 \end{array}
 \quad
 \begin{array}{r}
 95 \\
 - 48 \\
 \hline
 \end{array}
 \quad
 \begin{array}{r}
 63 \\
 - 28 \\
 \hline
 \end{array}$$

- 43.** 2, 3, 4 va 5 sonlarini ko'paytirish jadvalini o'qing:

•	2	3	4	5	6	7	8	9
2	4	6	8	10	12	14	16	18
3	6	9	12	15	18	21	24	27
4	8	12	16	20	24	28	32	36
5	10	15	20	25	30	35	40	45

44. Ko'paytirish jadvalidan foydalanib, ifodalarning qiy-matini hisoblang:

$$2 \cdot 3 + 9$$

$$4 \cdot 8 + 37$$

$$2 \cdot 5 + 4 \cdot 7$$

$$3 \cdot 3 + 47$$

$$4 \cdot 9 - 28$$

$$5 \cdot 9 - 3 \cdot 8$$

$$50 - 5 \cdot 2$$

$$5 \cdot 3 - 7$$

$$4 \cdot 8 - 3 \cdot 9$$

Ikki va undan ortiq amalli misollarning yechili-shini bosqichma-bosqich yozish mumkin.

Masalan: $61 - 3 \cdot 6 = 61 - 18 = 43$.

45. a va b ning yig'indisini yozing va uni hisoblang:

a) $a = 46$, $b = 36$; b) $a = 29$, $b = 58$.

46. Katta xonada har birida 5 tadan lampochka bo'lgan 3 ta qandil yoqildi. Agar 3 ta lampochka kuygan bo'lsa, nechta yonib turibdi?

Yechish: 1) $5 \cdot 3 = 15$ (lampochka)
2) $15 - 3 = 12$ (lampochka)

Javob: 12 ta lampochka.

Har qaysi amalni bajarib, nimani bildingiz?



Mahmud 15 yoshda, Alisher esa 9 yoshda.
Mahmud 10 yoshda bo'lganida Alisher necha yoshda bo'lgan.



47. Javobi 24, 16 yoki 32 ga teng bo'lgan misollarni toping (bunday misollar 7 ta):

$$5 \cdot 9 - 21 \quad 60 - 4 \cdot 7 \quad 100 - 5 \cdot 8 \quad 4 \cdot 4$$

$$61 - 49 \quad 3 \cdot 9 + 5 \quad 3 \cdot 6 + 6 \quad 4 \cdot 8$$

$$52 - 36 \quad 2 \cdot 8 - 9 \quad 4 \cdot 5 + 49 \quad 3 \cdot 7$$



48. 4 ta vazaga 5 tadan olma va taqsimchaga 8 ta olma solindi. Idishlarga hammasi bo'lib nechta olma solingan?

49. 2 ga, 3 ga, 4 ga va 5 ga bo'lish jadvalini o'qing va javobini ayting:

4	6	8	10	12	14	16	18	: 2
6	9	12	15	18	21	24	27	: 3
8	12	16	20	24	28	32	36	: 4
10	15	20	25	30	35	40	45	: 5
2	3	4	5	6	7	8	9	


50. Bo'lish jadvalidan foydalanib, ifodalarning qiymatini hisoblang:

$$38 - 16 : 4 \quad 57 - 14 : 2 \quad 64 + 20 : 4$$

$$96 - 18 : 9 \quad 60 - 20 : 5 \quad 75 - 12 : 4$$

51. Savatda 38 ta apelsin bor edi. 20 ta apelsindan sharbat tayyorlandi, qolgan apelsinlar 3 ta bolaga bo'lib berildi. Har bir bola nechtadan apelsin olgan? (Alovida amallar bilan yeching.)

52. 1) Rasmdagi geometrik shakllarning nomlarini ayting:



2) 7 ta uchi bo'lgan ko'pburchak qanday ataladi?
6 ta tomoni bo'lgan ko'pburchak-chi?

53. 100 kg kungabajar urug'idan 46 kg kungabajar yog'i, 100 kg paxta chigitidan 28 kg paxta yog'i olindi. Paxta yog'i qancha kam olingan?

54. $24 : 3 + 9$ $45 - 45 : 5$ $(18 + 18) : 6$

 $60 - 30 : 5$ $27 - 27 : 3$ $65 + 28 : 4$

55. Tushirib qoldirilgan sonlarni qo'ying:

$$\square \cdot 3 = 27 \quad \square : 4 = 7 \quad \square : 5 = 5 \quad \square : 2 = 9$$

56. 6, 7, 8, 9 sonlarini ko'paytirish jadvalini o'qing:


•	2	3	4	5	6	7	8	9
6	12	18	24	30	36	42	48	54
7	14	21	28	35	42	49	56	63
8	16	24	32	40	48	56	64	72
9	18	27	36	45	54	63	72	81

57. Jadvaldan foydalanib, ifodalarning qiymatini hisoblang:

$$8 \cdot 3 + 46 \quad 7 \cdot 9 - 54 \quad 7 \cdot (34 - 25)$$

$$(43 - 38) \cdot 6 \quad (81 - 78) \cdot 6 \quad 6 \cdot (100 - 93)$$

58. Rasmga qarab masala tuzing va uni yeching:



59. Radiusi 3 sm ga teng bo'lgan aylana chizing. Aylanadan tashqarida uzunligi 4 sm bo'lgan kesma chizing.

- 1) Ketma-ket keladigan ikkita ixtiyoriy sonni ayting.
- 2) 82 sonidan keyin keladigan ikki sonning kattasini ayting. Bu sonlarning kichigini ayting.



60.

9 ta bola 4 piyoladan shotut terishdi. 28 piyola shotutni murabboga olib qo'yishdi, qolganini yeishiidi. Bolalar necha piyola shotut yeishiishgan?

61.

$$54 - 28 : 4$$

$$24 + 25 : 5$$

$$53 + 6 \cdot 3$$

62.

$$59 - 9 \cdot 4$$

$$38 - 16 : 2$$

$$73 - 8 \cdot 7$$

62. 6 ga, 7 ga, 8 ga, 9 ga bo'lish jadvalini o'qing va javobini ayting:

12	18	24	30	36	42	48	54	: 6
14	21	28	35	42	49	56	63	: 7
16	24	32	40	48	56	64	72	: 8
18	27	36	45	54	63	72	81	: 9
2	3	4	5	6	7	8	9	

63. Jadval bo'yicha ifodalar tuzing va ularning qiyomatini toping:

Kamayuvchi	$7 \cdot 8$	$72 : 9$	100	99
Ayrluvchi	$49 : 7$	$48 : 8$	$93 - 74$	$56 : 8$

Namuna: $7 \cdot 8 - 49 : 7 = 56 - 7 = 49$.

64.

Chelakchada 54 ta, taqsimchada 9 ta yong'oq bor edi. Yettita bola yong'oqlarni baravardan bo'lib olishdi. Har bir bola nechtadan yong'oq olgan?



Yechish

1) $54 + 9 = 63$ (yong'.)

2) $63 : 7 = 9$ (yong'.)

Har bir amalni bajarib, nimani bilganingizni tushuntiring.

65. $81 : 9 + 0$ $4 \cdot 8 - 27$ $9 \cdot 8 - 6 \cdot 9$
 $60 - 24 : 6$ $9 \cdot 6 - 39$ $72 : 8 + 9 \cdot 3$

-  1) O'quvchi ketma-ket keladigan ikki sonni qo'shdi. Ularning kattasi 46. Bu sonlarning yig'indisini toping.
2) O'quvchi ketma-ket keladigan ikki sonni qo'shdi. Ularning kichigi 29. Bu sonlarning yig'indisini toping.

66. $54 : 6 - 48 : 6$ $63 - 21 : 7$ $100 - 56 : 8$
 $12 : 6 + 18 : 6$ $(90 - 34) : 7$ $32 : 8 : 2$

-  **67.** Avtobusdan 40 yo'lovchi tushdi, unda tushganiga qaraganda 8 marta kam yo'lovchi qoldi. Dastlab avtobusda nechta yo'lovchi bo'lgan?

-  **68.** Qovoqning massasi 10 kg, qovunning massasi undan 8 kg kam. Qovoqning massasi qovunning massasidan necha marta ortiq?

- 69.** 28 kg qandlavlagidan 7 kg shakar olindi. 9 kg shakar olish uchun qancha lavlagi kerak?

70. 7 ta bola 35 ta yong'oqni baravardan bo'lib olishdi. 2 ta bola nechta yong'oq olgan?

71. Tenglik va tengsizliklarni tekshiring:

$$7 \cdot 4 = 4 \cdot 7$$

$$6 \cdot 8 > 6 \cdot 7$$

$$2 \cdot 9 = 9 \cdot 2$$

$$63 : 9 < 63 : 7$$

72.

Ona 30 yoshda, qizi 6 yoshda. Ona qizidan necha marta katta? Qizi onasidan necha yosh kichik?

73. Kompyuterda 4 soatda 16 bet matn terildi. 36 bet matn necha soatda teriladi?



Qo'shimcha mashqlar

1. Hisoblashlarni bajaring:

$$1) 51 - 6 \cdot 4 \quad 28 + 6 \cdot 2 \quad (17 + 19) : 6$$

$$63 - 5 \cdot 7 \quad 36 + 3 \cdot 6 \quad (100 - 44) : 7$$

$$2) 24 : 6 \cdot 9 \quad 81 : 9 \cdot 8 \quad 10 : 10 \cdot 8$$

$$45 : 5 \cdot 3 \quad 64 : 8 \cdot 7 \quad 10 \cdot 2 : 5$$

$$3) 29 + 42 : 7 \cdot 3 \quad 90 - 8 \cdot 8 + 49$$

$$73 + 54 : 9 \cdot 3 \quad 86 - 9 \cdot 9 + 73$$

$$34 + 81 : 9 \cdot 7 \quad 100 - 27 + 72 : 8$$

$$90 - 49 : 7 \cdot 4 \quad 96 - 36 + 8 \cdot 4$$

2. Tenglamalarni yeching:

$$x \cdot 4 = 36$$

$$7 \cdot x = 56$$

$$a \cdot 9 = 9$$

$$a : 8 = 8$$

$$8 : b = 1$$

$$x : 5 = 1$$

3. Shunday sonlar tanlab olingki, tengliklar va tengsizliklar to'g'ri bo'lsin:

$$7 \cdot 9 - 7 = 7 \cdot \square$$

$$6 \cdot 8 + 6 < 6 \cdot \square$$

$$45 - 17 > 45 - \square$$

$$46 + 19 < \square + 19$$

$$64 : 8 > 64 : \square$$

$$24 : 3 < 24 : \square$$

$$36 : 6 < \square : 6$$

$$63 : 7 > \square : 7$$

4. Uy qurilishida 30 erkak va ulardan 3 marta kam ayol ishladi. Uy qurilishida hammasi bo'lib necha kishi ishlagan?

5. Bo'sh savat 2 kg. Unga 16 kg bodring solindi. Bodring solingan savat bo'sh savatdan necha marta og'ir?

6. Metri 10 so'mdan 3 m jun mato, metri 8 so'mdan 4 m chit olindi. Shu narsalarga necha so'm to'langan?

7. 5 ta bir xil yashikka 30 kg pecheniy joylandi. 54 kg pecheniyni joylash uchun shunday yashikdan nechta kerak?

8. 28 kg asal 7 bankaga teng qilib quyildi. Shu bankalardan 5 tasida necha kilogramm asal bor?
9. Bolalar choyshabiga 2 m surp, ko'rpa jildiga undan 2 marta ortiq surp ketadi. 8 ta shunday ko'rpa jildiga qancha surp ketadi?
10. Chelakka 8 l sut, xurma-chaga esa undan 4 marta kam sut ketadi. 10 l sutni quyish uchun nechta xurma-chacha kerak?
11. Katakli qog'ozga tomoni 3 sm bo'lgan kvadrat chizing. Bu kvadratning perimetrini toping.
12. Ochiq siniq chiziq chizing, u to'rtta kesmadan tuzilgan bo'lsin. Uning uzunligini toping.
13. „Ko'paytirish“ va „bo'lish“ amallari ishoralarini hamda tushirib qoldirilgan sonni shunday qo'yingki, yozuv to'g'ri bo'lsin:
- $$36 : 4 \dots \square = 18$$
- $$2 \cdot 4 \dots \square = 64$$
14. 1) Bo'linuvchi bo'luvchidan 2 marta katta bo'lgan ikkita misol tuzing va yeching.
 2) Ushbu ifodalardan bitta tenglik va bitta tengsizlik tuzing va yozing:
- $$32 : 8$$
- $$16 : 8$$
- $$56 : 7$$



Jadvaldan tashqari ko'paytirish va bo'lish



1) $20 \cdot 3$

2 o'nlik $\cdot 3 = 6$ o'nlik

$20 \cdot 3 = 60$

100 : 2

10 o'nlik : $2 = 5$ o'nlik

$100 : 2 = 50$

2) Yozuvlarni qarang va yechimni tushuntiring:

$$4 \cdot 20 = 20 \cdot 4 = 80$$

20 · 3

3 · 20

60 : 3

100 : 2

$3 \cdot 20 = \square$

$20 \cdot 3 = 60$

$3 \cdot 20 = 60$

60 : 3

6 o'nlik : $3 = 2$ o'nlik

$60 : 3 = 20$

- 74.** $3 \cdot 2$ $9 : 3$ $10 : 2$ $5 \cdot 2$ $4 \cdot 20$
 $30 \cdot 2$ $90 : 3$ $100 : 2$ $50 \cdot 2$ $7 \cdot 10$
- 75.** Vagondan 5 ta yo'lovchi tushdi va unda tushganlardan 10 marta ortiq yo'lovchi qoldi. Vagonda nechta yo'lovchi bo'lgan?
- 76.** 40 ta bir xil o'yinchoq har biriga 4 tadan qilib qutilarga joylandi. Hamma o'yinchoqlar nechta qutiga joylangan?
- 77.** 1) Oshxonaga 8 ta bir xil xaltada 24 kg un olindi. Bir kunda 15 kg un ishlatildi. Necha xalta un ishlatilgan?

2) Oshxonaga 8 ta bir xil xaltada 24 kg un olindi. Bir kunda 5 xalta un ishlatildi. Necha kilogramm un ishlatilgan?

78.

$$36 + 7 \cdot 8 - 80$$

$$72 : 8 \cdot 7$$


$$2 \cdot 9 + 7$$

$$40 - 3 \cdot 9 + 37$$

$$20 : 4 \cdot 6$$

$$6 \cdot 7 + 9$$

- 79. Uchta kesma chizing: birining uzunligi 12 sm, ikkinchisi birinchisidan 2 marta qisqa, uchinchisi ikkinchisidan 5 sm uzun bo'lsin.



90 : 30

$$90 : 30 = \square$$

$$60 : 10 = \square$$

$$30 \cdot 3 = 90$$

$$10 \cdot 6 = 60$$

$$90 : 30 = 3$$

$$60 : 10 = 6$$

80. Misollarni qanday yechishni tushuntiring:

$$80 : 20$$

$$70 : 10$$

$$100 : 50$$

$$60 : 30$$

$$20 : 10$$

$$80 : 40$$

$$40 : 20$$

$$90 : 30$$

$$80 : 80$$

$$60 : 20$$

81. Yaxmalakni tekislash uchun ikki bochkadan suv sepishdi. Har bir bochkada 100 chelakdan suv bor edi. Birinchi bochkadan 64 chelak, ikkinchi bochkadan 91 chelak suv olindi. Birinchi bochkada ikkinchi bochkadagiga qaraganda necha marta ko'p suv qoldi?

Har bir amalni alohida yozib, masalani yeching.

82. Agar a harfi 10, 20, 30, 1 qiymatlarni qabil qilsa, $60 : a$ va $10 : a$ ifodaning qiymatini toping.



83. $36 : 4 + 7 \cdot 9$ $4 \cdot (74 - 54)$ $49 : 7 \cdot 6$ $0 \cdot 4 : 5$
 $81 : 9 + 8 \cdot 5$ $5 \cdot (7 + 13)$ $27 : 9 \cdot 8$ $1 \cdot 7 : 7$

84. Tenglamalarni yeching:


$$x \cdot 40 = 80 \quad 90 - x = 50 \quad 70 : x = 10$$

Yig'indini songa ko'paytirish

85. Hamma bayroqchalarni turli usullar bilan sanang:



Yig'indi songa qanday ko'paytiriladi?



$$(4 + 3) \cdot 2$$

Birinchi usul:

$$(4 + 3) \cdot 2 = 7 \cdot 2 = 14$$

Ikkinci usul:

$$(4 + 3) \cdot 2 = 4 \cdot 2 + 3 \cdot 2 = 8 + 6 = 14$$

Avval yig'indini hisoblash, keyin uni songa ko'paytirish kerak.

Har qaysi qo'shiluvchini songa ko'paytirish va topilgan natijalarni qo'shish kerak.



86. Stolda har birida 3 tadan olma va 2 tadan nok bo'lgan 4 ta taqsimcha turibdi. Stolda hammasi bo'lib qancha meva turibdi? Masalani yechishning ikki usulini tushuntiring:



I usul:

$$(3 + 2) \cdot 4 = \\ = 5 \cdot 4 = 20 \text{ (dona)}$$

II usul:


$$3 \cdot 4 + 2 \cdot 4 = \\ = 12 + 8 = 20 \text{ (dona)}$$

87. Masalalarni turli usullar bilan yeching:

1) Bir bola 36 ta olma, ikkinchi bola 28 ta olma terdi. Bu olmalardan 3 tasini tashlab yuborishdi. Bolalarda nechta olma qoldi?

2) Bir to'pda 32 m gazlama bor. Undan bir xaridorga 6 m, ikkinchisiga 8 m gazlama sotildi. To'pda necha metr gazlama qoldi?

88. $ABCD$, $KMPN$ — ochiq siniq chiziqlari. $OBCE$ — yopiq siniq chiziq.



Bitta oshiq siniq chiziq va ikkita yopiq siniq chiziq chizing.

89.

Tomonlarining uzunliklari 8 sm, 11 sm, 10 sm, 13 sm bo'lgan to'rtburchakning perimetrini toping.

90.

$$\begin{array}{llll} 80 : 40 & 4 \cdot 20 - 68 & 6 \cdot (53 - 48) & 0 \cdot 3 : 17 \\ 60 : 30 & 91 - 100 : 2 & (27 + 22) : 7 & 0 : 6 \cdot 50 \end{array}$$



Rebuslarni yeching:

$$*5 : * = 9$$

$$4* : * = 7$$



$$6* : * = 8$$

$$8* : * = 9$$

91.

Masalani har xil usul bilan yeching:

Har biri 20 so'mdan 2 ta ruchka va har biri 10 so'mdan 2 ta qalam sotib olindi. Bu narsalar uchun qancha pul to'langan?

20 so'm




10 so'm

20 so'm



10 so'm

20 so'm



10 so'm

10 so'm

92.

Og'zaki tushuntirishlar bilan yeching:

$$(2 + 8) \cdot 8 \quad (20 + 8) \cdot 2 \quad (9 + 1) \cdot 9$$

93.

5 ta piyola 50 so'm turadi, 3 ta likopcha esa 6 ta piyola qancha tursa, shuncha turadi. Bitta likopcha qancha turadi?

94. 27 kg asalni 9 ta shisha bankaga baravar qilib va 40 kg asalni 8 ta bidonga baravar qilib quyildi. Bidonning sig'imi bankaning sig'imidan necha kilogramm ortiq?

95.

Tenglamalarni yeching:

$$x : 1 = 6, \quad x + 37 = 37, \quad 1 \cdot x = 8$$

96.

$$24 : 4 * 24 : 6 \quad 5 \text{ dm} * 52 \text{ sm} \quad 2 + 6 * 2 \cdot 6$$



$$14 : 7 * 21 : 7 \quad 8 \text{ mm} * 1 \text{ sm} \quad 9 + 0 * 9 - 0$$



23 • 4

1) Qulay usul bilan hisoblang:


$$(8 + 2) \cdot 3 | (10 + 3) \cdot 6 | (30 + 1) \cdot 2 | (20 + 7) \cdot 4$$

2) 27, 38, 16, 49 sonlarini $27 = 20 + 7$ namuna bo'yicha yig'indi shaklida tasvirlang.

3) Yechishni tushuntiring:

$$23 \cdot 4 = ?$$

$$\begin{array}{r} 20 \\ + 3 \\ \hline \end{array}$$



$$23 \cdot 4 = (20 + 3) \cdot 4 = 20 \cdot 4 + 3 \cdot 4 = 80 + 12 = 92$$

97. Tushuntirish bilan yeching:

$$17 \cdot 4$$

$$15 \cdot 6$$

$$19 \cdot 3$$

$$16 \cdot 5$$

$$25 \cdot 4$$

$$26 \cdot 3$$

$$43 \cdot 2$$

$$32 \cdot 2$$

$$24 \cdot 4$$

$$27 \cdot 3$$

- 98.** Quyonlar uchun har biri 9 kg dan bo'lgan bir necha to'rxalta sabzi va har biri 10 kg dan bo'l-gan shuncha to'rxalta karam jamg'arib qo'yildi. Hamma sabzilarning massasi 63 kg. Hamma karamlarning massasini toping.
- 99.** Tikuvchilik korxonasida 38 g'altak qora va 35 g'altak oq ip bor edi. Bir kunda 18 g'altak ip ishlatildi. Necha g'altak ip qoldi?
- 100.** $6 \text{ m} = \square \text{ dm}$ $47 \text{ dm} = \square \text{ dm } \square \text{ sm}$
 $9 \text{ dm} = \square \text{ dm}$ $53 \text{ mm} = \square \text{ sm } \square \text{ mm}$
- 101.** Yashikda 20 ta sut quyilgan shisha banka bor. 5 ta xaridor 2 bankadan sut sotib oldi. Shundan keyin yashikda necha banka sut qoldi?
- 102.** $6 \cdot 9 - 56 : 7$ $40 \cdot 2 - 20 \cdot 3$ $32 \cdot 0$
 $8 \cdot 8 - 3 \cdot 9$ $(80 - 50) \cdot 2$ $32 \cdot 1$

Sonni yig'indiga ko'paytirish

- 1) Yozuvni ko'rib chiqing va tushuntirishni o'qing:
 $4 \cdot 23 = 4 \cdot (20 + 3) = 4 \cdot 20 + 4 \cdot 3 = 80 + 12 = 92$

Agar ikkinchi ko'paytuvchi ikki xonali son bo'lsa, u holda uni o'nliklar va birliklarga ajratish, keyin esa birinchi ko'paytuvchini alohida o'nliklarga va birliklarga ko'paytirish va natijalarni qo'shish mumkin.

- 2) Ikkinchи ko'paytuvchini o'nliklar va birliklarga ajratib, ko'paytmani toping:
- | | | |
|--------|--------|--------|
| 2 · 45 | 3 · 32 | 4 · 19 |
|--------|--------|--------|
- 3) Bir xonali sonni ikki xonali songa ko'paytirganda ko'paytuvchilarning o'rinalarini almashtirish mumkin:
- | | |
|----------------------|----------------------|
| 5 · 16 = 16 · 5 = 80 | 4 · 23 = 23 · 4 = 92 |
|----------------------|----------------------|

103. $2 \cdot 17$ $5 \cdot 14$ $18 \cdot 3 + 26$ $60 : 30 \cdot 15$
 $3 \cdot 26$ $2 \cdot 46$ $12 \cdot 7 - 14$ $80 : 20 \cdot 24$
 $4 \cdot 21$ $6 \cdot 13$ $47 \cdot 2 + 6$ $100 : 20 \cdot 18$

104. Tengliklar nima uchun to'g'ri ekanini tushuntiring:
 $3 \cdot 7 + 5 \cdot 7 = (3 + 5) \cdot 7$
 $8 \cdot 4 + 2 \cdot 4 = (8 + 2) \cdot 4$
 $13 \cdot 3 + 7 \cdot 3 = (13 + 7) \cdot 3$

105. 1) Kitob 27 betli. O'quvchi kitobning uchdan bir qismini o'qidi. O'quvchi kitobning necha betini o'qigan?
 2) O'quvchi kitobning beshdan bir qismini o'qidi. Bu kitobning 12 betiga teng. Kitob hammasi bo'lib necha betli?

106. $a \cdot b$ ifodaning qiymatini toping:
 1) $a = 4$, $b = 13$; 2) $a = 34$, $b = 2$.

107. Konstruktorda 30 ta detal bor. Malik 6 ta detal-dan mashina, qolganlaridan esa velosipedlar yasadi. Agar bitta velosipedga 4 ta detal ishlatalgan bo'lsa, nechta velosiped hosil bo'lган?

108. Jadvalga qarab masala tuzing va uni yeching:

Bitta bankanining sig'imi	Bankalar soni	Hamma bankalarning sig'imi
?	20 ta	80 /
Bir xil ?	?	40 /

109. Tenglamalarni yeching:



$$x - 9 = 7$$

$$x : 9 = 7$$

$$64 - x = 64$$

$$64 \cdot x = 64$$

$$75 + x = 75$$

$$75 \cdot x = 0$$

110. $1 \cdot 23$ $84 : 84$ $0 \cdot 75$ $5 \cdot 0$ $0 : 27$
 $45 \cdot 1$ $32 : 1$ $1 \cdot 42$ $18 \cdot 0$ $0 : 1$

111. 3 ta bir xil ballonga 6 kg pomidor tuzlandi. 18 kg pomidorni tuzlash uchun shunday ballondan nechta kerak bo'ladi? Berilganlarga teskari masala tuzing va yeching.

112. Buvisi 20 ta lola piyozi, nabirasi undan 4 marta kam lola piyozi ekdi. Shundan keyin ularda 10 ta piyoz qoldi. Dastlab hammasi bo'lib ularda nechta lola piyozi bo'lgan?

113. Oilada 100 kg sabzavot tuzlandi. Karam 70 kg, qolgani bodring bo'lgan. Agar har bir chelakka 10 kg dan bodring solingan bo'lsa, bodringga nechta chelak ishlatilgan?

114.

a	0	3	8	9	10
$9 \cdot a$					

b	0	36	40	32
$b : 4$				

115. $8 \cdot 9$ $54 : 6 \cdot 9$ $18 \cdot 3 + 5 \cdot 4$ $29 - 81 : 9$
 $7 \cdot 6$ $72 : 9 \cdot 7$ $12 \cdot 5 + 3 \cdot 8$ $60 - 27 : 3$
 $6 \cdot 3$ $56 : 8 \cdot 4$ $7 \cdot 3 + 7 \cdot 2$ $23 - 40 : 8$

116. 1) $a + b$, $c - d$ ifodalarni o'qing. Agar $a = 47$, $b = 34$, $c = 59$, $d = 36$ bo'lsa, bu ifodalarning qiymati qanday topilganini tushuntiring:

$$\begin{array}{r} a + b \\ \hline 47 + 34 = 81 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} c - d \\ \hline 59 - 36 = 23 \end{array}$$

- 2) a) $a = 3$ va $k = 14$; b) $a = 39$ va $k = 2$;
d) $d = 64$ va $c = 8$; e) $d = 48$ va $c = 8$ bo'lsa,
 $a \cdot k$, $d : c$ ifodalarning qiymatini toping.

117. 4 ·

11	13	15	17	19	21	23	25
12	14	16	18	20	22	24	26

3 ·

11	13	15	17	19	21	23	25
12	14	16	18	20	22	24	26

118. Jadvalga qarab masala tuzing va uni yeching:

Bitta tokchadagi o'yinchoqlar	Tokchalar soni	Hamma o'yinchoqlar
5 ta 6 ta	11 ta 9 ta	? <input type="text"/> ?

- 119.** Piyodalar yo'lkasining eni 3 m, yo'lning qatnov qismining eni esa 4 marta katta. Quyidagi ifodalar nimani anglatishini tushuntiring:

$$3 \cdot 4,$$

$$3 \cdot 2,$$

$$3 \cdot 4 + 3 \cdot 2$$

120.

$$3 \cdot 14$$

$$16 \cdot 6$$

$$18 \cdot 2 : 4$$

$$13 \cdot 6 - 38$$

$$2 \cdot 19$$


$$17 \cdot 3$$

$$21 \cdot 3 : 7$$

$$37 \cdot 2 - 52$$

- 121.** Birining uzunligi 8 sm, ikkinchisining uzunligi birinchisining uzunligidan 2 marta qisqa, uchinchisining uzunligi ikkinchisining uzunligidan 4 sm uzun bo'lgan uchta kesma chizing.

- 122.** Shakl qismlari yuzlarini hisoblang:



- 123.**
- 1) Qizcha 15 m li kanopning beshdan bir qismini qirqib oldi. Kanopning qirqib olingan bo'lagining uzunligi qancha?
 - 2) Kitob 80 betli. Bola bu kitobning to'rtadan bir qismini o'qib chiqdi. Bola yana necha bet o'qishi kerak?

3) Po'lat she'rning yarmini yodladi. U 12 satr she'r yodladi. Bu she'r necha satrli bo'lgan?

4) Somsa 20 so'm turadi. Omon bitta somsa olib, o'zidagi pulning beshdan bir qismini sarf qildi. Omonda necha so'm pul bo'lgan?

124. *AB* kesma qanday ikkita kesmadan tuzilgan? *AO* va *OB* kesmalarni uzunliklari bo'yicha taqqoslang:



125. Birinchi operator kompyuterda 6 soatda 24 bet, ikkinchi operator shuncha vaqtida 30 bet matn teradi. Qaysi operator bir kunda ko'p bet matn teradi va necha bet ortiq teradi?

126. Tikuvchilik korxonasida har birida 21 m dan 3 to'p va uzunligi 15 m bo'lgan 1 to'p gazlama bor edi. Agar bir pardaga 11 m gazlama ketsa, bu gazlamalar 7 ta parda tikish uchun yetadimi?


127. $a = 32$ bo'lganda ifodalarning qiymatini toping:

$$3 \cdot a \quad (47 - a) : 3 \quad 80 - a : 8$$

128. $2 \cdot 4 \cdot 12 \quad (80 - 20) : 30 \quad 8 \cdot 7 - 45$
 $3 \cdot 21 : 7 \quad 100 - 40 : 2 \quad 14 \cdot 4 - 26$



Yig'indini songa bo'lish



$$(8 + 6) : 2$$

I u s u l

$$(8 + 6) : 2 = 14 : 2 = 7$$

- Yig'indini hisoblash va songa bo'lish.

II u s u l

$$(8 + 6) : 2 = 8 : 2 + 6 : 2 = 4 + 3 = 7$$

- Har qaysi qo'shiluvchini songa bo'lish va hosil bo'lgan natijalarni qo'shish.

129. Og'zaki tushuntirishlar bilan yeching:

$$(50 + 25) : 5 \quad (80 + 12) : 4 \quad (41 + 31) : 8$$

130. Sotuvchida 24 ta chinnigul va 20 ta moychechak bor edi. Sotuvchi ulardan har birida 4 tadan gul bo'lgan guldastalar yasadi. Unda nechta guldasta hosil bo'ladi? Masalani berilgan reja bo'yicha ikki usul bilan yeching.

I u s u l

- Sotuvchida hammasi bo'lib nechta gul bor?
- Unda nechta guldasta hosil bo'ldi?

II u s u l

- Chinnigulli nechta guldasta hosil bo'ldi?
- Moychechakli nechta guldasta hosil bo'ldi?
- Hammasi bo'lib nechta guldasta hosil bo'ldi?

131. Rasmga qarab masala tuzing va uni ikki usul bilan yeching:



Hamma asalni bo'shatish uchun nechta shisha banka kerak bo'ladi?

132. 49 va 84 sonlarini har biri 7 ga bo'linadigan ikkita qo'shiluvchining yig'indisi ko'rinishida ifodalang.

133. $99 - (14 + 5) \cdot 4$ $100 - 60 : 3$ $26 \cdot 3$ $19 \cdot 1$
 $28 + (15 + 8) \cdot 3$ $81 - 40 : 2$ $4 \cdot 18$ $19 \cdot 0$



134. Agar kvadratning perimetri 36 sm ga teng bo'lsa, uning tomonining uzunligini toping.

135. 1) Amallarni berilgan tartibi bo'yicha bajaring:

$$(64 + 16)^{\frac{1}{2}} : 8 \quad (32 + 22)^{\frac{1}{2}} : 9 \quad (30 + 26)^{\frac{1}{2}} : 7$$

2) Qaysi misolni boshqa usul bilan yechish mumkin?

136. Agar har bir ko'ylakka 3 m gazlama ketgan bo'lsa, ikkala to'pdan nechta ko'ylak tikish mumkin?



Masalani ikki usul bilan yeching. Masaladagi sonlarni shunday o'zgartiriringki, uni faqat bir usul bilan yechish mumkin bo'lsin.

137. Bir xo'jalikdan 16 kg, ikkinchi xo'jalikdan 24 kg asal olib kelindi. Hamma asal har qaysisiga 8 kg dan qilib bidonlarga quyildi. Nechta shunday bidon kerak bo'lgan?

138. Fiqat bir usul bilan yechiladigan misollarni ko'chirib oling. Ularni yeching:

$$(32 + 16) : 8 \quad (15 + 20) : 5 \quad (18 + 12) : 6$$
$$(7 + 9) : 2 \quad (14 + 16) : 3 \quad (12 + 13) : 5$$

139. Kema birinchi kuni 26 km, ikkinchi kuni undan 2 marta ko'p suzdi. Agar kema hammasi bo'lib 91 km suzishi kerak bo'lsa, u yana necha kilometr suzishi kerak?

140. 3 soni 30 sonidan (60 sonidan) necha marta kam?

141. $(32 + 6) \cdot 2 - 59$ $14 \cdot 8 - 45$ $54 : 9 + 63 : 7$
 $(8 + 9) \cdot 5 - 26$ $92 - 7 \cdot 13$ $42 : 6 + 32 : 8$

39 : 3

1) Qulay usul bilan hisoblang:

$$(20 + 6) : 2 \quad (60 + 9) : 3 \quad (80 + 8) : 4$$

2) Yozuvni ko'zdan kechiring va yechimini tutshuntiring:

$$39 : 3 = (30 + 9) : 3 = 30 : 3 + 9 : 3 = 10 + 3 = 13$$



$$84 : 4 = (80 + 4) : 4 = 80 : 4 + 4 : 4 = 20 + 1 = 21$$

- 3) Misollarning yechilishini davom ettiring:
 $96 : 3 = (90 + 6) : 3 = 90 : \square + 6 : \square = \dots$
- $64 : 2 = (60 + \square) : 2 = \dots$

142. $48 : 4$ $63 : 3$ $46 : 2$ $28 : 2$ $99 : 9$
 $5 : 5$ $84 : 2$ $88 : 4$ $93 : 3$ $99 : 3$

143. 5 minutda avtomat-dastgoh 30 ta shisha banka tayyorlaydi. Dastgoh 7 minutda shunday shisha bankalardan nechta tayyorlaydi?

- 144.** 72 sonini shunday ikkita sonning yig'indisiga almashtiringki, uni 3 ga, 4 ga, 6 ga bo'lish oson bo'lsin.
- 145.** Bir uchi A yoki B nuqtada bo'lgan shakllarni ayting va yozing:



- 146.** Tumanda 3 ta kutubxona, shaharda esa 7 marta ko'p kutubxona bor. Shaharda tumandagidan nechta ko'p kutubxona bor?

147. Amallarni qulay usul bilan bajaring:

$(4 + 28) : 4$	$(6 + 18) : 6$	$(14 + 28) : 7$
$14 \cdot 5 + 70$	$(16 + 80) : 4$	$23 \cdot 3 - 0$
148. $93 : 3$	$21 \cdot 4$	$36 \cdot 2 : 9$
$48 : 2$	$2 \cdot 19$	$64 : 2 + 23$
		$84 : 4 \cdot 3$
		$55 : 5 \cdot 6$



- 1) Jadvallarning bo'sh kataklariga berilgan sonlarga eng yaqin va ulardan kichik, 3 ga; 2 ga qoldiqsiz bo'linadigan ikki xonali yaxlit sonlarni yozing:

42	48	54	45	: 3
		30		

32	48	66	76	: 2
	40			

- 2) Qulay usul bilan yeching:

$$(20 + 12) : 2 \quad (40 + 16) : 4 \quad (50 + 25) : 5$$

- 3) Rasmga qarang. Yechishni tushuntiring:



$$42 : 3 = (30 + 12) : 3 = 30 : 3 + 12 : 3 = 14$$

- 149.** Tushuntirish bilan yeching:

$$\begin{array}{llll} 34 : 2 & 56 : 4 & 45 : 3 & 96 : 6 \\ 51 : 3 & 78 : 6 & 84 : 7 & 75 : 5 \\ & & & 91 : 7 \end{array}$$

- 150.** Misollarning yechilishini davom ettiring va tushuntiring:

$$72 : 4 = (40 + 32) : 4 = \dots \quad 72 : 6 = (60 + 12) : 6 = \dots$$

- 151.** $98 - 23 \cdot 4 + 35$

$$64 - 37 + 32 : 8$$

152. < (3 + 5) · 4 * 3 · 4 + 5
 > 19 · 3 * 10 · 3 + 9 · 3


153. To'g'ri chiziq chizing va unda A nuqtani belgilang.
 To'g'ri chiziqda A nuqtadan qarama-qarshi yo'naliishda $AC = 48$ mm va $AB = 52$ mm bo'lgan kesmalarni chizing. CB kesmaning uzunligini o'lchang va hisoblang.

154. $48 : 2$ $64 : 2$ $56 : 2$ $96 : 3$ $76 : 4$
 $48 : 4$ $54 : 9$ $56 : 4$ $96 : 6$ $76 : 2$

Bo'lishni tekshirish

- Bo'lishni ko'paytirish bilan tekshirish mumkin:
- 1) bo'linma bo'linuvchiga ko'paytiriladi;
- 2) topilgan natija bo'linuvchi bilan taqqoslanadi.
- Agar bu sonlar teng bo'lsa, u holda bo'lish to'g'ri bajarilgan bo'ladi.
- $51 : 3 = 17$. Tekshirish: 1) $17 \cdot 3 = 51$,
 2) $51 = 51$.

155. Zina bo'yicha ko'tariling. Bo'lishning to'g'riliгини ko'paytirish bilan tekshiring:



156. Tenglamaning yechilishi va tekshirilishini tushuntiring.

Yechilishi:

$$x : 3 = 21$$

$$x = 21 \cdot 3$$

$$x = 63$$

Tekshirish:

$$63 : 3 = 21$$

$$21 = 21$$

157. Men hayvonot bog'ida timsoh, ayiq va maymunlarni ko'rdim. Timsohlar 2 ta, maymunlar timsohlardan 4 marta ko'p, ayiqlar esa maymunlardan 5 ta kam edi. Ushbu ifodalar nimani bildirishini tushuntiring:

$$2 \cdot 4$$

$$2 \cdot 4 + 2$$

$$2 \cdot 4 - 5$$

158. Bolalar bog'chasining bir guruhida 23 ta, ikkinchisida 21 ta bola bor. Bu guruhlardagi har bir bolaga 2 tadan berish uchun nechta olma kerak bo'ladi?

159. 1) Tomonlari 8 sm va 6 sm bo'lgan to'g'ri to'rburchak chizing.

2) Perimetri shu to'g'ri to'rburchak perimetriga teng kvadrat chizing.

160.

1) 27 dan 41 gacha bo'lgan sonlarni yozing va ulardan 4 ga qoldiqsiz bo'linadiganlarining tagiga chizing.

2) 50 dan 60 gacha bo'lgan sonlarni yozing. Ulardan 3 ga qoldiqsiz bo'linadiganlarining tagiga chizing.



 161. $27 \cdot 3 - 78$ $98 - 23 \cdot 4 + 39$ $(49 + 28) : 7$
 $62 + 13 \cdot 5$ $28 \cdot 2 - 13 \cdot 4$ $(64 + 24) : 8$
 $19 \cdot 5 - 67$ $64 - 37 + 32 : 8$ $(36 + 24) : 6$

162. Maktab zaliga har bir qatorga 9 tadan qilib 10 qator stul qo'yish mumkin. 84 ta stul keltirildi. Bu stullar yetadimi yoki yana keltirish kerakmi?

163. To'g'ri to'rtburchakning bo'yisi 8 sm, eni bo'yining to'rtidan bir qismini tashkil qiladi. To'g'ri to'rtburchakning enini aniqlang. To'g'ri to'rtburchak tomonlari uzunliklarining yig'indisini toping.

164. 19 gacha bo'lgan sonlar ichida 7 ga qoldiqsiz bo'llinadigan eng katta son qaysi son? 6 ga-chi? 5 ga-chi?, 4 ga-chi? 2 ga-chi?

165. Yechilishini tushuntiring:

$$72 : 4 = (40 + 32) : 4 = 40 : 4 + 32 : 4 = 18$$

$$96 : 2 = (80 + 16) : 2 = 80 : 2 + 16 : 2 = 48$$

$$80 : 5 = (50 + 30) : 5 = \square : 5 + \square : 5 = \square$$

166. Qanday ikkita bir xonali sonni bir-biriga ko'paytirganda 48 soni hosil bo'llishi mumkin? 54 soni-chi? 64 soni-chi? 72 soni-chi?

 167. 4 kg no'xat va 84 kg guruch sotildi. No'xatga qaraganda necha marta ortiq guruch sotilgan?

168. $24 : 2 \cdot 3$ $66 : 6 \cdot 5$ $74 - (38 + 24)$
 $96 : 3 \cdot 2$ $26 : 2 \cdot 6$ $32 + (85 - 47)$
 $64 : 8 \cdot 5$ $88 : 8 \cdot 7$ $23 + (73 - 56)$

- 42 ning ichida 14 dan necha marta borligini topamiz:
- $14 \cdot 2 = 28$ (2 to'g'ri kelmaydi, kam).
- $14 \cdot 3 = 42$. Demak, $42 : 14 = 3$.
- Ikki xonali songa bo'lishda bo'linma tanlash usuli bilan topiladi.

169. Misollarni yeching, bo'linmani 2, 3, 4, 5, 6 sonlari orasidan toping:

$$26 : 13$$

$$75 : 25$$

$$92 : 23$$

$$90 : 15$$

$$42 : 21$$

$$84 : 14$$

$$85 : 17$$

$$68 : 17$$

170. Sotuvchi 16 kg unni 8 ta paketga teng soldi. 80 kg unni bo'lib solish uchun nechta shunday paket kerak bo'ladi?

171. Tenglamalarni yeching: $7 \cdot x = 63$, $36 : x = 4$.

172. 0 dan 100 gacha bo'lgan sonlardan 7 ga; 8 ga; 9 ga qoldiqsiz bo'linadiganlarini tartib bilan yozib chiqing.

173.

Bir jo'yakdan 39 ta bodring, ikkinchisidan 53 ta bodring uzishdi. 72 ta bodringni tuzlashdi. Nekta bodring qoldi?

$$174. \quad 48 : 24$$

$$75 : 25$$

$$30 + 2 \cdot 45 - 115$$

$$36 : 18$$

$$64 : 32$$

$$50 - 84 : 6 + 300$$



- 99 ning ichida 33 tadan nechta borligini topamiz:
- $33 \cdot 2 = 66$ (2 to'g'ri kelmaydi, kam).
- $33 \cdot 3 = 99$. Demak, $99 : 33 = 3$.

175. Misollarni yeching va tekshiring:

$$32 \cdot 3$$

$$66 : 22$$

$$76 : 19$$

$$96 : 6$$

$$47 \cdot 2$$

$$54 : 18$$

$$7 \cdot 14$$

$$64 : 4$$

- 176.** Agar tikuvchi har kuni 17 tadan yostiq jildi tikadigan bo'lsa, 4 kundan keyin yana tikiladigan 7 ta yostiq jildi qoladi. Tikuvchi hammasi bo'lib nechta yostiq jildi tikishi kerak?
- 177.** O'quvchi mакtabga ertalab soat 8 da keldi, mакtabdan esa kunduzi soat 12 da ketdi. O'quvchi mакtabda necha soat bo'lgan?


- 178.** Nabirasi 8 yoshda, bobosi nabirasidan 8 marta katta. Bobosi nabirasidan necha yosh katta?

179.

$$(54 + 45) : 11 \quad (95 - 11) : 14 \quad 100 : 25 \cdot 17$$

$$(37 + 53) : 15 \quad (87 - 27) : 12 \quad 72 : 24 \cdot 28$$

- 180.** Har qaysi ko'pburchakning tomonlari uzunliklarining yig'indisini toping:



Ko'paytirishni tekshirish

181. Agar ko'paytmani ko'paytuvchiga bo'lsak, nimaga ega bo'lamiz?

Ko'paytuvchi	Ko'paytuvchi	Ko'paytma	
7	9	63	$63 : 7 = 9$
2	12	24	$24 : 2 = 12$

Ko'paytirishni bo'lish bilan tekshirish mumkin:

- 1) ko'paytma ko'paytuvchiga bo'linadi;
- 2) topilgan natija ikkinchi ko'paytuvchi bilan taqqlaslanadi. Agar bu sonlar teng bo'lsa, u holda ko'paytirish to'g'ri bajarilgan bo'ladi.
- $14 \cdot 7 = 98$. Tekshirish: 1) $98 : 7 = 14$,
2) $14 = 14$.

182. Zina bo'yicha pastga tushing. Ko'paytirishning to'g'riliгини bo'lish bilan tekshiring:

$16 \cdot 4$

$34 \cdot 2$

$19 \cdot 3$

$23 \cdot 4$

183. Hisoblang va bo'lishni ko'paytirish bilan tekshiring:

$84 : 3$

$84 : 7$

$52 : 4$

$76 : 2$

184. Birinchi kesmaning uzunligi 7 sm, ikkinchi kesma bu kesmadan 3 marta uzun, uchinchi kesma ikkinchi kesmadan 19 sm uzun. Uchinchi kesmaning uzunligini toping va uni detsimetrlarda ifodalang.

185. Tenglamaning yechilishi va tekshirilishini tushuntiring:

Yechilishi:

$$x \cdot 7 = 84$$

$$x = 84 : 7$$

$$x = 12$$

Tekshirish:

$$12 \cdot 7 = 84$$

$$84 = 84$$

186.

Agar k harfi 60, 100, 300 va d harfi 3, 20, 1 qiymatlarni qabul qilsa, $k : d$ ifodaning qiymatini toping.

187. $98 : 2 + 54 : 3$ $64 : 4 + 26$ $96 : 4 \cdot 2$



$$24 : 2 + 48 : 2$$

$$32 : 2 - 16$$

$$36 \cdot 2 : 8$$

188. Tenglamalarning yechilishi va tekshirilishini tushuntiring:

$$94 : x = 47$$

$$x = 94 : 47$$

$$x = 2$$

$$x \cdot 3 = 42$$

$$x = 42 : 3$$

$$x = 14$$

$$x : 4 = 17$$

$$x = 17 \cdot 4$$

$$x = 68$$

$$94 : 2 = 47$$

$$47 = 47$$

$$14 \cdot 3 = 42$$

$$42 = 42$$

$$68 : 4 = 17$$

$$17 = 17$$

189. Tenglamalarni tushuntirish bilan yeching:

$$19 \cdot x = 57$$

$$x : 21 = 4$$

$$63 : x = 7$$

190. Jadvalni to'ldiriting:

m	24		18
n		3	
$m \cdot n$	96	78	90

k	95		90	
d		7		
$k : d$	19	14	6	



191. Bolalar bog'chasiga sovg'a uchun har birida 9 kg dan konfet bo'lgan 4 quti va har birida 8 kg dan

pecheniy bo'lgan 3 quti olib kelindi. Bolalar bog'-chasiga necha kilogramm shirinlik olib kelingan?

192. 6 dan 60 gacha bo'lgan sonlardan 6 ga qoldiqsiz bo'linadiganlarini tartib bilan aytib bering.

193. $66 : 33 + 6 \cdot 12$ $3 \cdot 18 - 64 : 4$ $96 : 16 + 9 \cdot 9$
 $91 : 7 - 77 : 1$ $62 : 2 - 36 : 18$ $96 : 4 + 3 \cdot 24$

194. AB kesma tomon bo'lgan barcha shakllarni aytib bering:



195. Viloyatda 18 ta ko'l va undan 2 marta ortiq sport maydonlari bor. Ifodalar nimani bildiradi: $18 \cdot 2$, $18 \cdot 2 - 18$?

196. Do'konga har birida 8 kg dan 12 yashik nok olib kelindi. Tushlikka qadar 9 yashik nok sotildi. Sotish uchun yana necha kilogramm nok qoldi?

Bir o'quvchi masalaga bunday ifoda tuzdi: $8 \cdot 12 - 8 \cdot 9$, ikkinchi o'quvchi esa bunday ifoda tuzdi: $8 \cdot (12 - 9)$. Ular qanday fikr yuritganliklarini tushuntiring. Qaysi yechish usuli qulay?

197. Berilgan tenglamalar orasidan bo'lish bilan yechi-ladiganlarini ko'chirib yozing va ularni yeching:

$$x : 23 = 2$$

$$75 : x = 25$$

$$x : 18 = 4$$

$$x \cdot 12 = 36$$

$$56 : x = 14$$

$$16 \cdot x = 80$$

198. 32 gacha bo'lgan sonlardan 3 ga qoldiqsiz bo'linadigan eng katta son qaysi son? 4 ga-chi? 5 ga-chi? 6 ga-chi? 7 ga-chi? 8 gachi? 9 ga-chi? 10 ga-chi?

199. Amallarni tushuntirib bajaring:

$$26 \cdot 3$$

$$88 : 22$$

$$3 \cdot 24$$

$$96 : 2$$

200.

$$\leftarrow 80 : 5 * 80 : 10$$

$$46 \cdot 1 * 46 \cdot 0 + 1$$

$$\rightarrow 42 : 3 * 48 : 3$$

$$46 + 1 * (46 + 0) \cdot 1$$

201. $80 - 80 : 4$ $(36 + 27) : 3$ $100 - 3 \cdot 23$ $90 : 10$
 $60 - 60 : 5$ $(16 + 32) : 4$ $100 - 6 \cdot 16$ $0 : 45$



Qoldiqqli bo'lish

- 1) 20 dan 30 gacha bo'lgan sonlardan qaysilari 3 ga; 4 ga; 6 ga qoldiqsiz bo'linadi?
- 2) 30 dan 40 gacha bo'lgan sonlarning qaysilari 4 ga; 5 ga; 6 ga; 7 ga qoldiqsiz bo'linadi?
- 3)



- Har qaysi ko'ylakka 6 tadan tugma qadaldi.
- Tikuvchining 25 ta tugmasi qoldi. Shu tugmalar nechta ko'ylakka yetadi va nechta ortib qoladi?
- Masalani yechish uchun 25 ning ichida 6 tadan necha marta borligini bilish kerak. 6 tadan 4 marta chiqadi va 1 ta tugma ortib qoladi.
- Masalaning yechilishi bunday yoziladi:

$$25 : 6 = 4 \text{ (1 qold.)}$$

- Bu yerda 25 — bo'linuvchi, 6 — bo'luvchi, 4 — bo'linma, 1 — qoldiq. Yozuv bunday o'qiladi: „25 ni 6 ga bo'lsak, 4 chiqadi va 1 qoldiq qoladi“ yoki „Bo'linuvchi — 25, bo'luvchi — 6, bo'linma — 4, qoldiq — 1“.

202. Rasmlarga qarang. Yozuvlarni tushuntiring va ularni turlichcha o'qing:

	$14 : 4 = 3 \text{ (2 qold.)}$
	$14 : 3 = 4 \text{ (2 qold.)}$
	$14 : 2 = 7 \text{ (0 qold.)}$

203. Mos rasmlar chizib, bo'lishni bajaring:

$$9 : 2$$

$$8 : 3$$

$$11 : 4$$

204. To'g'ri to'rtburchak shaklidagi maydonni devor bilan o'rash kerak. Agar maydonning bo'yi 10 m, eni 9 m bo'lsa, devorning uzunligini toping.

205. Katta bidonda 28 / sut bor, ikkita bir xil kichik bidonda esa 8 / sut bor. Katta bidondagi sut kichik bidondagi sutdan necha marta ko'p?

206. Tabiat muzeyiga o'quvchilar 3 ta avtobusda borishdi. Ikkita avtobusda 26 tadan o'quvchi, uchinchi avtobusda esa 24 ta o'quvchi bor edi. Nechta o'quvchi muzeyga borgan?

207.

$$56 : 14 + 19$$

$$60 : 12 \cdot 13$$



$$57 : 19 \cdot 32$$

$$68 : 17 \cdot 23$$

$$90 : 18 \cdot 17$$

$$92 : 23 \cdot 24$$

208. Ko'z bilan chamlab, teng yuzga ega bo'lgan shakllarni aytib bering. Nima uchun shunday deb o'ylaysiz?



1) Rasmdan foydalanib, bo'linma va qoldiqni toping:



$$7 : 2$$



$$12 : 2$$



$$9 : 2$$

2) Bo'lishni, rasmlar chizib, bajaring:

$$8 : 4$$

$$9 : 4$$

$$10 : 4$$

$$11 : 4$$

$$12 : 4$$

3) Sonni 2 ga bo'lganda; sonni 3 ga bo'lganda qanday qoldiq qoladi?



- 4) Nima uchun sonni 3 ga bo'lganda qoldiq 4 ga; 5 ga teng bo'lishi mumkin emasligini, sonni 2 ga bo'lganda qoldiq faqat 0 yoki 1 bo'lishi mumkinligini tushuntiring.

Bo'lganda qoldiq bo'lувчидан доим кичик бо'lishi kerak.

- 209.** 1) O'quvchi 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16 sonlaridan har qaysisining ostiga 2 ga; 3 ga; 4 ga bo'lishidan chiqqan qoldiqlarni yozdi. O'quvchi jadvalni to'g'ri to'ldirganini doirachalar (cho'plar) dan foydalanib tekshiring:

	10	11	12	13	14	15	16
: 2	0	1	0	1	0	1	0
: 3	1	2	0	1	2	0	1
: 4	2	3	0	1	2	3	0

- 2) Sonni 2 ga; 3 ga; 4 ga bo'lganda eng katta qoldiq nechaga teng bo'ladi?

- 210.** Kastumga 3 m gazlama ketadi. Bir to'pda 13 m material bor. Shu gazlamadan nechta kastum chiqadi?

Bir o'quvchi masalani bunday yechdi: $13 : 3 = 4$ (1 qold.), ikkinchi o'quvchi esa bunday yechdi: $13 : 3 = 3$ (4 qold.)

Qaysi o'quvchi masalani to'g'ri yechgan?

- 211.** O'quvchilar 15 tup daraxtni oqlashdi, bu daraxtlar maktab hovlisidagi hamma daraxtlarning yarmiga teng. Maktab hovlisida hammasi bo'lib nechta daraxt bor?

212. Kesmaning uzunligi 24 sm. Bu kesmaning uchdan bir qismining uzunligini toping.

213. Agar c harfi 24, 6, 12 qiymatlarni qabul qilsa, $72 : c$ ifodaning qiymatini toping.

214. $76 - 96 : 8$ $51 : 3 \cdot 4$ $(75 - 33) : 3$
 $84 : 21 + 96$ $100 - 6 \cdot 13$ $(82 - 16) : 33$
 $86 : 2 + 57$ $16 \cdot 4 : 32$ $(96 - 19) : 7$

47 : 7 = □

Tushuntirish: 47 soni 7 ga qoldiqsiz bo'linmaydi. 47 gacha bo'lgan sonlar ichida qanday eng katta son 7 ga bo'linishini eslaymiz. Bu 42 soni.

Bo'linmani topamiz: $42 : 7 = 6$.

Qoldiqni topamiz: $47 - 42 = 5$; $5 < 7$.

$47 : 7 = 6$ (5 qold.)

215. Shunday fikr yuritib, qoldiqli bo'lishni bajaring:

$$13 : 4 \quad 19 : 5 \quad 23 : 6 \quad 32 : 7 \quad 41 : 8$$

216. 0 dan 31 gacha bo'lgan eng katta sonlardan 3 ga; 4 ga; 6 ga; 8 ga; 9 ga qoldiqsiz bo'linadiganlarini tartib bilan yozib chiqing.

217. Sinfda 14 ta qiz va 10 ta o'g'il bola bor. Sinfni har birida 6 tadan o'quvchi bo'lgan guruhlarga bo'lishdi. Sinfni nechta guruhga bo'lishgan?

218. Oq va qizil sharlar hammasi bo'lib 45 ta. Oq sharlar 36 ta. Oq sharlar qizil sharlardan nechta ortiq? Qizil sharlar oq sharlardan necha marta kam?

219.

$$\begin{array}{lll} 55 : (90 : 18) & 7 \cdot 8 - 6 \cdot 8 & 13 \cdot 6 \cdot 0 \\ 42 : (72 : 24) & 42 : 7 + 9 \cdot 4 & 58 \cdot 0 : 7 \end{array}$$

220.

Tohir tayoqchaning uzunligini 35 sm li chizg'ich bilan o'lchadi. Chizg'ich tayoqchaning bo'yiga 2 marta joylashdi, tayoqchaning bundan ortib qolgan qismi 15 sm ga teng bo'ladi. Tayoqchaning uzunligi qancha?

$$32 : 9 = \square$$

Agar 32 gacha bo'lgan sonlar ichida 9 ga bo'linadigan eng katta sonni eslash qiyin bo'lsa, u holda bo'linmani tanlov usulida topish mumkin.

Tushuntirish: 32 ni 9 ga bo'lish kerak.
Bo'linma 2 deb sinab ko'ramiz.

Tekshiramiz: $9 \cdot 2 = 18$. Qoldiqni topamiz va uni bo'luvchi bilan taqqoslaymiz:

$32 - 18 = 14$; $14 > 9$; demak, 2 – kam. Bo'linma 3 deb, sinab ko'ramiz.

Tekshiramiz: $9 \cdot 3 = 27$. Qoldiqni topamiz va uni bo'luvchi bilan taqqoslaymiz:

$32 - 27 = 5$, $5 < 9$; demak, 5 – qoldiq.

$$32 : 9 = 3 \text{ (5 qold.)}$$

221. Qoldiqli bo'lishni ko'paytirish jadvalidan foydalanib toping:

$$21 : 4 \quad 32 : 6 \quad 66 : 9 \quad 50 : 8 \quad 59 : 6$$

222. Bir bidonda 24 kg, ikkinchisida undan 6 kg kam paxta yog'i bor. Hamma yog'ni har biriga 3 kg dan qilib shisha bankalarga quyildi. Nechta banka ketgan?

223. 0 dan 48 gacha bo'lgan eng katta sonlardan 5 ga; 6 ga; 7 ga; 8 ga; 9 ga qoldiqsiz bo'linadiganlarini tartib bilan yozib chiqing.

- 224.** 1) 40, 59, 88, 90 sonlarni 29 ta kamaytiring.
2) 24, 80, 72, 56 sonlarni 8 marta kamaytiring.

225. Uchburchakning bir tomoni 34 sm, ikkinchi tomoni 26 sm, uchinchi tomoni birinchi tomonidan 2 marta qisqa. Uchburchakning perimetrini toping.

226. $58 : 29 + 35 : 7$ $(57 + 31) : 22$ $4 \cdot (87 - 70)$
 $24 \cdot 4 : 3$ $(81 - 62) \cdot 5$ $5 \cdot (73 - 62)$

227. Tenglamalarni yeching:

 $18 \cdot x = 72$ $x \cdot 14 = 56$ $x : 7 = 13$

228.



Agar hammasi bo'lib 19 ta somsa yopilgan bo'lib, har bir kishiga 4 tadan somsa mo'ljallangan bo'lsa, bu somsalar nechta kishiga yetadi? 26 ta somsa yopilgan bo'lsa-chi? 39 ta somsa yopilgan bo'lsa-chi?

229. Aerodromda 20 ta samolyot bor edi. Uchtadan uchganda hammasi bo'lib nechta samolyot havoga ko'tarilishi mumkin? Aerodromda nechta samolyot qoladi?

230. 0 dan 62 gacha bo'lgan sonlardan 9 ga; 8 ga; 7 ga; 6 ga qoldiqsiz bo'linadigan eng katta sonlarni toping va tartib bilan yozib chiqing.

231. Bo'lishni bajaring va hisoblashlarning to'g'riligini ko'paytirish bilan tekshiring:

$$78 : 26$$

$$96 : 6$$

$$76 : 4$$

$$99 : 11$$

232. Otga bir kunda beriladigan tuz miqdori 32 g, sigirga undan 2 marta ortiq, qo'yga esa ot va sigirga birgalikda qancha tuz berilishi kerak bo'lsa, shundan 8 marta kam tuz berish kerak. Qo'yning bir kunlik iste'mol qiladigan tuz miqdorini toping.

233.

Agar a harfi 4, 6, 8 qiymatlarni qabul qilsa, $48 : a$ ifodaning qiymatini toping.

234.

$$3 \cdot 33 - 32 : 8$$

$$36 : 6 \cdot 9$$

$$88 : 1$$

$$2 \cdot 29 + 72 : 24$$

$$27 : 3 \cdot 6$$

$$0 : 98$$



$$74 : 15$$

$$74 : 15 = 4 \text{ (14 qold.)}$$

Tekshirish:

$$1) 14 < 15$$

$$2) 15 \cdot 4 + 14 = 60 + 14 = 74$$

$$47 : 48$$

$$47 : 48 = 0 \text{ (47 qold.)}$$

Tekshirish:

$$1) 47 < 48$$

$$2) 48 \cdot 0 + 47 = 0 + 47 = 47$$

235. Qoldiqli bo'lishni bajaring:

$$60 : 16$$

$$75 : 23$$

$$100 : 40$$

$$33 : 34$$

$$21 : 25$$

$$54 : 18$$

$$73 : 20$$

$$8 : 26$$

236.

c	64	64				64	64
d	2	4	8	32	16		
c : d			8	2	4	64	

237. Qo'zichoqning massasi 7 kg, qo'yning massasi esa undan 14 kg og'ir. Qo'zichoqning massasi qo'yning massasidan necha marta yengil?

238. 1) Jadvalni namunaga qarab to'ldiring:

Bo'linuvchi	18	19	20	21	22	23	24	25
Bo'lувчи	3	3	3	3	3	3	3	3
Bo'linma	6	6						
Qoldiq	0	1						

2) Bo'linuvchini 4 soni bilan (5 soni bilan) almashtiring hamda yangi bo'linma va qoldiqlarni og'zaki topping. Nima uchun bo'lishda qoldiq har doim bo'lувчидан kichik bo'ladi?

239.

Masalani ikki usul bilan yeching.

Bolalar bog'chasi uchun 7 ta qo'g'irchoq va 8 ta ayiqcha o'yinchog'i sotib olindi. Keyin yana 6 ta qo'g'irchoq sotib olindi. Hammasi bo'lib nechta o'yinchoq sotib olingan?

240.

$$52 : 26 + 42 : 3$$

$$(56 + 21) : 11$$

$$7 \cdot (78 - 69)$$

$$16 \cdot 6 : 3 - 30$$

$$(86 - 72) \cdot 5$$

$$6 \cdot (91 - 80)$$

$$68 : 17 \cdot 3 + 80$$

$$100 - 9 : 9 + 0$$

$$71 - 25 : 5$$



241. Ko'paytirish jadvalidan foydalanib, bo'lishni bajaring:

$$25 : 6$$

$$33 : 6$$

$$41 : 6$$

$$43 : 6$$

$$45 : 6$$

$$26 : 6$$

$$35 : 6$$

$$42 : 6$$

$$44 : 6$$

$$46 : 6$$

242. Rasmdagi ma'lumotlardan foydalanib, masala tuzing va uni yeching:



40 so'm



90 so'm

243. Birinchi mashinaga sabzavotli 14 ta yashik, ikkinchisiga 8 ta yashik ortildi. Agar har qaysi mashina 2 martadan qatnagan bo'lisa, nechta yashik yuk olib keltingan?

244. 40 ta rangli qalamni har birida 6 tadan qilib qutilarga solish kerak. Nechta quti kerak bo'ladi? Nechta qalam qoldi?

245.

- 1) 3 ga bo'lganda qoldiqda 2 qoladigan bir nechta son yozing.
- 2) 4 ga bo'lganda qoldiqda 1, 2, 3, 0 qoladigan bir nechta son yozing.
- 3) 5 ga bo'lganda qoldiqda 3 qoldiq qoladigan bir nechta son yozing.

246.	$4 \cdot 17 - 3 \cdot 21$	$88 : (74 - 52)$	$56 : 7 \cdot 3$
	$3 \cdot 33 - 28 : 4$	$91 : (61 - 48)$	$72 : 8 \cdot 1$
	$8 \cdot 11 - 0 \cdot 13$	$72 : (90 - 72)$	$42 : 6 : 7$



Qo'shimcha mashqlar

1. 1) $9 \cdot 1$ $48 : 48$ $84 \cdot 1$ $(28 - 27) \cdot 15$
 $1 \cdot 7$ $1 \cdot 93$ $62 : 62$ $16 : (76 - 75)$

2) $20 : 10 \cdot 4$ $5 \cdot 10 - 26$ $(82 - 74) \cdot 10$
 $50 : 5 \cdot 7$ $10 \cdot 8 - 25$ $(56 + 34) : 10$

3) $90 : 3 \cdot 2$ $(34 - 29) \cdot 20$ $80 : 40 \cdot 8$
 $60 : 20 \cdot 9$ $(48 + 52) : 2$ $(76 - 36) : 4$

2. $80 : 20 * 80 : 40$ $7 \cdot 0 * 7 \cdot 1$
 $30 \cdot 2 * 30 \cdot 3$ $7 \cdot 0 * 7 + 0$

3. $70 - 60 : 2$ $(48 + 12) : 20$ $(44 + 36) : 20$
 $89 - 20 \cdot 3$ $(54 + 46) : 50$ $(27 + 33) : 30$

4. $100 - 47 \cdot 2$ $19 + 28 \cdot 2$ $42 \cdot 2 - 26$
 $19 \cdot 3 - 50$ $22 \cdot 4 - 18$ $31 \cdot 3 - 18$

5. $5 \cdot 19$ $7 \cdot 13$ $8 \cdot 12$ $3 \cdot 24$
 $6 \cdot 16$ $4 \cdot 23$ $7 \cdot 14$ $5 \cdot 17$

6. Tenglamalarni yeching:

$x \cdot 6 = 54$	$x : 2 = 18$	$60 : x = 30$
$8 \cdot x = 48$	$x : 4 = 15$	$75 : x = 5$

7. $91 \cdot 0 * 91 \cdot 1$ $45 + 0 * 0 + 45$
 $56 : 56 * 56 : 1$ $36 : 4 * 36 : 9$

8. Jadvaldan foydalanib, ifodalarni yozing, ularni o'qing va qiymatlarini toping:

Kamayuvchi	100	63 – 8	42	63	7 · 8	63 : 9
Ayrluvchi	30 + 6	40	35 : 7	9 · 4	7 · 5	24 : 6




9. Sinf kutubxonasi uchun 20 o'quvchi 2 tadan, 20 o'quvchi 3 tadan kitob olib kelishdi. Bolalar hammasi bo'lib nechta kitob olib kelishgan?
10. 20 ta yumshoq kursini qoplash uchun 40 m gazlama kerak. 18 m gazlama ishlatildi. Nechta kursi qoplangan?
11. Duradgor usta har kuni baravardan 3 kunda 12 ta rom yasadi, to'rtinchi kuni esa oldingi kundagidan 1 ta ortiq rom yasadi. Usta to'rtinchi kuni nechta rom yasadi?
12. Ikki qutichada 18 ta konfet bor. Shunday uchta qutichada nechta konfet bo'ladi?
13. Maktab kutubxonasiga 100 ta darslik keltirildi. Har birida 23 o'quvchisi bo'lgan to'rt sinf bolalariga bittadan darslik berildi. Kutubxonada yana nechta darslik qolgan?
14. Ifodalarga ko'ra masalalar tuzing va ularni yeching:

$$36 \cdot 2 + 3 \cdot 4 \quad 100 - 42 \cdot 2$$


$$35 + 18 \cdot 3 \quad 50 - 12 \cdot 3$$

15. Chizmada nechta uchburchak bor? Nechta to'rburchak bor? Bu shakllar nima deb ataladi?

Ularning tomonlarini o'lchang. To'g'ri burchaklarni
toping va ularning nomlarini yozing:



16. Har bir tomoni 8 dm ga teng bo'lgan uchburchakning perimetrini toping va hosil bo'lgan sonni metrlar va detsimetrlarda ifodalang.
17. Uchta kesma chizing. Birining uzunligi 16 sm bo'lib, u ikkinchisidan 4 marta uzun va uchinchisidan 9 sm uzun bo'lsin.
18. Tomonlari 4 sm va 3 sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizing va uning perimetrini hisoblang.
19. Har qaysi chizmada nechta uchburchak va nechta to'rtburchak tasvirlangan?




20. Uchta kesma chizing. Birining uzunligi 12 sm bo'lib, u ikkinchisidan 3 marta uzun va uchinchisidan 5 sm uzun bo'lsin.
21. Agar noma'lum songa 1 qo'shilsa, eng kichik to'rtxonali son hosil bo'ladi. Noma'lum sonni toping.
Agar o'ylangan son 1 ta kamaytirilsa, eng katta uchxonali son hosil bo'ladi. Qanday son o'ylangan?

UCH XONALI SONLARNI RAQAMLASH

1) O'nlikda necha birlik bor?



2) Yuzlikda necha o'nlik bor?



3) Yuzliklarni sanang:



- 1 yuzlik — yuz
- 2 yuzlik — ikki yuz
- 3 yuzlik — uch yuz
- 4 yuzlik — to'rt yuz
- 5 yuzlik — besh yuz

- 6 yuzlik — olti yuz
- 7 yuzlik — yetti yuz
- 8 yuzlik — sakkiz yuz
- 9 yuzlik — to'qqiz yuz
- 10 yuzlik — bir mǐng


4) Yuzliklar ustida amallar birliklar ustida amallar kabi bajariladi.

- 247.**
- 6 yuzlik + 2 yuzlik
 - 8 yuzlik - 7 yuzlik
 - 10 yuzlik : 5

- 4 yuzlik · 3
- 8 yuzlik - 3 yuzlik
- 9 yuzlik - 9 yuzlik

- 248.** 1) To'qsonga bittadan qo'shib yuzgacha sanang.
 2) Uch yuzga yuztadan qo'shib minggacha sanang.
 3) Ikki yuzdan o'ntadan ayirib yuzgacha sanang.
 4) To'qqiz yuzdan yuztadan ayirib nolgacha sanang.
- 249.**  9 yuzlik ... 7 yuzlik 1 so'm ... 90 tiyin
 10 yuzlik ... 1 ming 7 m ... 8 dm
 1 yuzlik ... 8 o'nlik 6 m 3 dm ... 4 m 5 dm
- 250.** 1) Sut sog'uvchi ayol 100 / sut sog'di. 36 / sutni u buzoqlarga berdi, qolgan sutni esa 8 ta bidonga baravardan quydi. Sog'uvchi 1 ta bidonga necha litr sut quyg'an?
 2) $(100 - 73) : 9$ ifoda bo'yicha oldingi masalaga o'xshash masala tuzing.
- 251.** $37 : 5 = \square (\square \text{ qoldiq})$ $86 : 16 = \square (\square \text{ qoldiq})$
 $65 : \square = 4$ (9 qoldiq) $65 : \square = 3$ (11 qoldiq)
- 252.** $72 : (17 - 9)$ $17 \cdot 4 + 5 \cdot 2$ $15 \cdot (87 - 82)$
 $(36 + 18) : 18$ $6 \cdot 14 - 6 \cdot 7$ $88 : (100 - 12)$
- 253.** Tomonlari 7 sm va 4 sm bo'lgan to'g'ri to'rtbur-chak chizing.

Har qaysi rasmda nechtadan cho'p tasvirlangan?



- 254.** 1) Quyidagilardan iborat sonlarni ayting:
6 o'nlik va 5 birlik; 6 yuzlik va 5 birlik; 4 yuzlik,
4 o'nlik va 8 birlik; 7 yuzlik va 5 o'nlik; 9 yuzlik
va 3 birlik.
2) Besh yuz sonidan 1 ta ortiq; uch yuz sonidan
1 ta kam sonni ayting.
- 255.** Ikki yuz to'qson yetti; yetti yuz o'n olti sonidan
boshlab tartib bilan 6 ta sonni ayting.
- 256.** 1) 300 dan 700 gacha 100 tadan qo'shib sanang.
2) 400 dan 260 gacha 10 tadan ayirib sanang.
3) 497 dan 504 gacha, 678 dan 705 gacha, 989
dan 1000 gacha 1 tadan qo'shib sanang.
4) 803 dan 798 gacha, 402 dan 390 gacha,
1000 dan 978 gacha 1 tadan ayirib sanang.
- 257.** Rasm bo'yicha masala tuzing. Masalani yeching.



58 so'm



?



88 so'm

- 1) Bitta koptok qancha turadi?
2) Portfel va ikkita koptok qancha turadi?
3) O'sha pulga 2 ta portfel sotib olish mumkinmi?
- 258.** $90 - 18 \cdot 5$ $80 : (16 \cdot 5)$ $42 : (15 - 9) \cdot 0$
 $60 + 3 \cdot 13$ $84 : (42 : 14)$ $81 : (36 - 9) \cdot 1$

259.

Yashikda 25 kg kartoshka bor edi. Bir haftadan keyin yashikda 16 kg kartoshka qoldi. Bir haftada qancha kartoshka ishlatalig'an?

260.

$$\begin{array}{llll} 66 : 3 & 88 : 4 & 75 - 32 : 16 & 18 \cdot 3 + 16 \cdot 2 \\ 66 : 33 & 88 : 44 & 60 - 28 : 14 & 9 \cdot 5 + 12 \cdot 3 \end{array}$$

Yuzlik	O'nlik	Birlik
1	2	4

Abakda bir yuz yigirma to'rt soni belgilangan. Bu sonning yozilishidagi 4 raqami nimani bildiradi? 2 raqami-chi? 1 raqami-chi? O'ngdan chapga hisoblaganda birliklar qaysi o'ringa yoziladi. O'nliklar-chi? Yuzliklar-chi?

261. Abakda quyidagilardan iborat sonni belgilang:

4 yuzlik 2 o'nlik 5 birlik; 6 yuzlik 3 o'nlik; 73 o'nlik.

262. 348, 214, 501, 804, 600 sonlarida nechta yuzlik, o'nlik va birlik bor?

263. Kitob 45 so'm turadi, 4 ta bir xil albom 36 so'm turadi. Kitob bitta albomdan necha so'm qimmat turadi?

264. $268 \text{ sm} = \square \text{ m } \square \text{ sm}$ $34 \text{ mm} = \square \text{ sm } \square \text{ mm}$

$940 \text{ sm} = \square \text{ m } \square \text{ dm}$ $57 \text{ dm} = \square \text{ m } \square \text{ dm}$

265. $64 - 18 \cdot 2$ $18 + 46 : 2$ $36 : 12 - 2$
 $75 + 32 : 8$ $16 + 14 \cdot 6$ $88 : 2 + 4$

266. Uch xaridorga 9 m dan gazlama sotilganidan keyin to'pda 48 m gazlama qoldi. Dastlab to'pda necha metr gazlama bo'lgan?

267. $80 - 11 \cdot 6$ $14 \cdot 7 - 29$ $99 : 33 - 66 : 22$
 $36 + 84 : 42$ $45 - 17 \cdot 2$ $77 : 11 + 55 : 55$

1) Har qaysi satrdagi cho'plar soni jadvalga yozilgan. Shu sonlarni o'qing:

	Yuzlik	O'nlik	Birlik
	2	3	5
	3	4	0
	4	0	6

2) 235, 340, 406 sonlarining yozilishida har qaysi raqam nimani bildiradi?

268. Sonlarni abakda belgilang va yozing:

6 yuzlik 4 o'nlik | 2 birlik | 3 yuzlik | 3 o'nlik 5 birlik;
 7 yuzlik 0 o'nlik | 0 birlik | 2 yuzlik | 0 o'nlik 7 birlik.

269. Do'konga 100 ta velosiped olib kelindi. 6 kunda har kuni 9 tadan velosiped sotildi. Sotish uchun qancha velosiped qoldi?


270. $36 : 18 + 21 \cdot 3$ $80 - 6 \cdot 4$ $38 + 14 - 4 \cdot 7$
 $27 : 3 - 24 : 12$ $38 + 32 : 16$ $75 + 18 - 6 \cdot 6$

271. Jadval bo'yicha masala tuzing va uni yeching:

Bahosi	Miqdori	Qiymati
Bir xil ? ?	5 ta 2 ta	45 so'm ?

272. $(64 + 8) : 24$ $28 : 14 + 6 \cdot 6$ $17 \cdot 4 - 6 \cdot 5$
 $(58 - 40) : 3$ $4 \cdot 7 - 25 : 5$ $8 \cdot 5 + 3 \cdot 8$

1)



Cho'tlarda tasvirlangan sonlarni ayting va yozing.

2) Quyidagilardan iborat sonni ayting va yozing:

8 yuzlik 3 o'nlik 7 birlik; 4 yuzlik 5 o'nlik; 6 yuzlik 9 birlik.

3) Ushbu sonlarni o'qing: 276, 507, 800. Ulardagi har qaysi raqam nimani bildiradi? Har qaysi sonni yozish uchun nechta raqamdan foydalaniqgan?

100 dan 999 gacha bo'lgan sonlar — uch xonali sonlardir.



273. Bir satrga ikki xonali, ikkinchi satrga esa uch xonali sonlarni ko'chirib yozing: 200, 99, 777, 20, 305, 35, 824, 24, 905.

274. Har qaysi qatordagi „ortiqcha“ sonni ayting:

- 1) 17, 38, 96, 8, 47, 83;
- 2) 284, 600, 503, 24, 721;
- 3) 57, 400, 31, 68, 12, 80;
- 4) 841, 940, 0, 272, 409, 700.

275. Birinchi son 35, ikkinchi son birinchi sondan 8 ta kam, uchinchi son ikkinchi sondan 3 marta kam. Ushbu ifodalar nimani bildirishini tushuntiring:

$$35 - 8, \quad 35 + (35 - 8), \quad (35 - 8) : 3$$

276. Rasm bo'yicha masala tuzing va uni yeching:



320 so'm



420 so'm

Piyola necha so'm turadi?

Choynak necha so'm turadi?

277. Birinchi yashikda 28 kg, ikkinchi yashikda 20 kg mix bor. Hamma mixni 4 kg dan qilib xaltalarga solindi. Nechta xalta kerak bo'lgan? Masalani ikki usul bilan yeching.


1- usul

$$(\square + \square) : \square$$

2- usul

$$\square : \square + \square : \square$$

- 278.** Rasmda qanday tanish shakkarni ko'ryapsiz? Uchi B nuqtada bo'lgan hamma uchburchaklarni va hamma to'rtburchaklarni yozing:




279.

Maktab tajriba maydoniga 9 kg no'xat ekildi va kuzda undan 27 kg ortiq no'xat yig'ib olindi. Yig'ib olinganiga qaraganda necha marta kam no'xat ekilgan?

- 280.** $72 : 18 + 19 \cdot 2$ $40 - 36 : 6 : 2$ $(55 + 9) : 16$
 $84 - 84 : 21$ $55 + 81 : 9 \cdot 3$ $68 : (21 + 13)$

- 281.** Sanoqda bu sonlarning har biridan oldin keladigan va keyin keladigan sonlarni ayting: 80, 200, 225, 140, 179.

- 1) Har qaysi rasmda nechta cho'p bor?



2) Har bir qatordagi cho'plar soni jadvalga yozildi. Bu sonlarni o'qing:

Yuzliklar	O'nliklar	Birliklar
2	4	5
4	2	0
4	0	2

282. 30 kg xurmoni 5 ta yashikka baravardan qilib solindi. 54 kg xurmoni solish uchun nechta shunday yashik kerak?

$$\begin{array}{l} 5 \text{ ta yashik} — 30 \text{ kg} \\ ? — 54 \text{ kg} \end{array}$$

Masalaning qisqa yozuvini ko'rib chiqing va uni berilgan reja asosida yeching.

Yechish rejasi


- 1) Bitta yashikka necha kilogramm xurmo solingan?
- 2) 54 kg xurmoni solish uchun nechta shunday yashik kerak? *Javob: 9 ta.*

283.  299 < 300 804 ... 840 700 ... 699
 368 ... 365 680 ... 608 193 ... 391

284. $83 - 17 \cdot 4$ $54 + 9 \cdot 4$ $32 : 16 + 29$
 $16 \cdot 3 + 17$ $80 - 16 : 16$ $73 - 38 : 19$
 $56 - 46 : 23$ $17 + 13 \cdot 5$ $46 : 7 + 27$

285. Oshxonada 100 kg un bor edi. Hafta mobaynida har kuni 9 kg dan un ishlatildi. Oshxonada necha kilogramm un qoldi?

286. $80 : 5 + 2 \cdot 8$ $(100 - 19) : 9$ $90 - 13 \cdot 6 + 18$
 $80 : (3 + 7) \cdot 4$ $(96 - 16) : 4$ $70 + 21 - 42 : 14$



$200 + 30 + 4 = 234$ $300 + 20 = \square$ $300 + 2 = \square$
 $300 + 40 + 5 = \square$ $700 + 60 = \square$ $800 + 5 = \square$

287. Namunaga qarab, sonlarni yig'indi bilan almashtiring:

$246 = 200 + 40 + 6$	$460 = \dots$	$728 = \dots$
$507 = 500 + 7$	$406 = \dots$	$782 = \dots$

288. 3, 0, 5 raqamlaridan foydalanib, bir nechta uch xonali son tuzing va yozing.

289. Avtomat dastgoh 4 minutda 24 ta guldon tayyorlaydi. Bu dastgoh 9 minutda nechta guldon tayyorlaydi?


290. 30 so'mga 5 ta sanoq cho'pi sotib olindi. 18 so'mga nechta shunday sanoq cho'pi sotib olish mumkin?

291. Agar $b = 42$ bo'lsa, $b + 12$, $b : 7$ ifodalarning qiyamatlarini toping.

$6 \cdot 8 - 34$	$38 - 4 \cdot 9$	$90 - 42 : 6$
$7 \cdot 4 + 46$	$72 + 3 \cdot 5$	$70 - 54 : 6$

293.


Rasmni ko'rib chiqing, masala tuzing va uni yeching.



294. $18 \cdot 3 + 46$ $98 - 4 \cdot 7$ $100 - 36 : 6$
 $6 \cdot 8 - 26$ $34 - 45 : 5$ $75 + 32 : 4$



1) Bunda cho'plar nechta? 1000 soni bunday yoziladi:



- 2) Bitta yuzlikda nechta o'nlik bor? 2 yuzlikda-chi? 5 yuzlikda-chi?
- 3) 1 yuzlikda nechta birlik bor? 2 yuzlikda-chi? 5 yuzlikda-chi?

4)

	Yuzlik	O'nlik	Birlik
	2	1	4

- 214 sonida hammasi bo'lib nechta yuzlik bor?
- Hammasi bo'lib nechta o'nlik bor? Hammasi bo'-lib nechta birlik bor?

$$\begin{array}{l} \boxed{1 \text{ yuzlik} = 10 \text{ o'nlik} = 100 \text{ birlik}} \\ \boxed{10 \text{ yuzlik} = 100 \text{ o'nlik} = 1000 \text{ birlik}} \end{array}$$

- 5) Yodingizda tuting. 10 ta birlik – bu 1 ta o'nlik.
- 10 ta o'nlik — 1 ta yuzlik, 10 ta yuzlik esa 1 ta minglik. O'ngdan chapga sanaganda birliklar nechanchi o'ringa yoziladi? O'nliklar-chi? Yuzlik-lar-ch?
- Yuzliklar o'ngdan chapga sanaganda uchinchi o'ringa yoziladi.

295. Shu sonlarni o'qing: 954, 905, 409, 500.

954, 905, 409, 500 sonlarning yozilishida har qaysi raqam nimani bildiradi?



- Birliklar — bu birinchi xona birliklari;
- o'nliklar — bu ikkinchi xona birliklari;
- yuzliklar — bu uchinchi xona birliklari.
- Biror xona birligining ishtirok etmasligi 0 raqami bilan belgilanadi.

296. 1) Istalgan bir xonali va istalgan ikki xonali son yozing.

2) Sonlarni o'qing: 200, 340, 403, 999.

Bunday sonlar nima uchun uch xonali sonlar deb atalishini tushuntiring.

297. Shunday sonlarni yozingki, ularda:

5 ta yuzlik, 6 ta o'nlik, 1 ta birlik;

9 ta yuzlik, 0 ta o'nlik, 4 ta birlik;

3 ta yuzlik, 7 ta o'nlik, 0 ta birlik;

8 ta yuzlik, 0 ta o'nlik, 0 ta birlik bo'lsin.

298. $100 + 30$ $300 + 4$ $500 + 60 - 1$

$130 - 30$ $304 - 4$ $850 - 50 + 1$

$130 - 100$ $304 - 300$ $700 + 40 + 6$

299. Qayerda sut ko'p — to'rtta ikki litrli bankadami yoki uchta besh litrli bankadami? Necha litr ko'p?

300. Tomonlari 3 sm va 6 sm bo'lgan to'g'ri to'rtbur-chak chizing. Uning uchdan bir qismini bo'yang va yuzini hisoblang.

301. Tushirib qoldirilgan sonlarni qo'yib, misollarni ko'chirib yozing:

$$4 \text{ m } 84 \text{ sm} = \square \text{ sm} \quad 5 \text{ dm } 3 \text{ sm} = \square \text{ sm}$$

1) Jadvalni ko'rib chiqing:

$80 = 8$ o'nlik	80 sonida hammasi bo'lib 8 ta o'nlik bor
$300 = 30$ o'nlik	300 sonida hammasi bo'lib 30 ta o'nlik bor
$370 = 37$ o'nlik	370 sonida hammasi bo'lib 37 ta o'nlik bor

2) 500, 590, 860 sonlarining har birida hammasi bo'lib nechta o'nlik bor?



302. 1) Har bir sonda hammasi bo'lib nechta yuzlik, hammasi bo'lib nechta o'nlik, hammasi bo'lib nechta birlik borligini o'qing:

Son	Hammasi		
	yuzliklar	o'nliklar	birliklar
600	6	60	600
820	8	82	820
457	4	45	457

2) 900, 350, 872 sonlarining har birida hammasi bo'lib nechta yuzlik, nechta o'nlik, nechta birlik bor?

303. 6 ta bir xil ko'ylakka 12 m gazlama ketdi. 18 m gazlamadan nechta shunday ko'ylak tikish mumkin?

Yechish:

$$1) 12 : 6 = \square$$

$$2) 18 : 2 = \square$$

Birinchi amalni bajarib
nimani bilish mumkin?
Ikkinchi amalni bajarib-chi?



12 m

304. $439 + 1$	$950 - 1$	$609 + 1$	$400 - 1$
$740 - 1$	$589 + 1$	$890 - 1$	$899 + 1$

305. Hisoblang:

m	12	11	10	9
$m : 7$				

n	54	63	72	81
$n : 9$				

306. $80 - 36 : 4$ $(32 + 48) : 16$ $8 \cdot 8 - 7 \cdot 4$
 $(80 - 36) : 4$ $32 + 48 : 16$ $8 \cdot (8 - 7) \cdot 4$

307.

- 1) Ikkita kvadrat chizing: birining tomonlari 2 sm, ikkinchisining tomonlari 2 marta katta. Ikkinci kvadratning yuzi birinchi kvadratning yuzidan necha marta katta?
- 2) Ikkinci kvadratning perimetri birinchi kvadratning perimetridan necha marta katta?

308.

- Traktor 6 soatda 42 l yonilg'i sarflaydi. 56 l yonilg'i necha soatga yetadi?

309.

- Shunday sonlarni yozingki, ularda:


4 ta yuzlik, 2 ta o'nlik, 7 ta birlik; 9 ta o'nlik, 3 ta birlik; 5 ta yuzlik; 8 ta yuzlik, 1 ta birlik bo'lsin.

- Sonni qanday qilib 10 marta, 100 marta orttirish mumkinligini misollarda ko'rib chiqamiz.
- 7 sonini yozing. Uning o'ng tomoniga 0 raqamini yozing. Endi 7 raqami nechanchi o'rinda turibdi va u nimani anglatadi?
- 7 o'nlik 7 birlikdan necha marta katta?
- 8 va 800; 4, 40 va 400 sonlarini ham xuddi shunday taqqoslang.

- Agar 500 sonining yozuvidagi bitta nolni olib tashlasak, u qanday o'zgaradi? 2 ta nolni olib tashlasak-chi?

- 310.** 1) Sonlarni 10 marta orttiring: 3, 18, 47.
 2) Sonlarni 10 marta kamaytiring: 250, 600, 430.
 3) Sonlarni 100 marta kamaytiring: 700, 900, 100.
- 311.** Valining 98 so'm puli bor edi. U har biri 9 so'm-dan 2 ta qalam va qolgan puliga 8 ta bir xil daftar sotib oldi. Har bir daftar necha so'm turadi?
- 312.** Tenglamalarni yeching:
- $$x : 4 = 64 \quad 91 - x = 72 \quad 95 : x = 19$$
- 313.** 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10 sonlari qatoridan a harfining shunday qiymatini tanlab olingki, $a \cdot 4 > 19$ tengsizlik to'g'ri bo'lsin.
- 314.** Uchburchakning perimetri 12 sm. Uning bir tomonining uzunligi 5 sm ga, ikkinchi tomonining uzunligi 3 sm ga teng. Uchburchakning uchinchi tomoni uzunligini toping.

315.



316. $4 \cdot 9 : 6 + 74$

$49 : 7 \cdot 6 + 36$

$76 : 19$

 $25 : 5 \cdot 9 + 35$

$64 : 8 \cdot 7 - 17$

$87 : 29$

Jadvalni ko'rib chiqing

Son	Xona qo'shiluvchilarining yig'indisi
586	$500 + 80 + 6$
740	$700 + 40$
605	$600 + 5$

317. Har bir sonni xona qo'shiluvchilarining yig'indisi bilan almashtiring:

$$800 + 4 = \square + \square$$

$$520 = \square + \square$$

$$444 = \square + \square + \square$$

$$200 + 1 = \square + \square$$

$$370 = \square + \square$$

$$169 = \square + \square + \square$$

318. Yig'indilarni qarang va xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida berilgan sonlarni yozing:

$$770 + 2$$

$$400 + 20 + 9$$

$$900 + 30$$

$$559 + 1$$

$$400 + 200 + 9$$

$$900 + 3$$

319. 30 m uzunlikdagi arqon ikki bo'lakka bo'lindi. Birinchi bo'lakning uzunligi butun arqonning beshdan bir qismini tashkil etdi. Ikkinci bo'lakning uzunligi qancha?

320. Do'konda bir kunda 200 kg shakar sotildi. Shundan keyin do'konda sotilganidan 100 kg ortiq

shakar qoldi. Dastlab do'konda necha kilogramm shakar bo'lgan?

321. Ifodalarni yozing va qiymatlarini hisoblang:

- 1) Birinchi qo'shiluvchi 29, ikkinchisi 42 bilan 7 ning bo'linmasidan iborat.
- 2) Bo'linuvchi 54, bo'lувчи 40 bilan 31 ning ayrimasidan iborat.

322. $72 - 6 \cdot 9$ $60 - 17 \cdot 3 + 39$ $63 : 9 + 7 \cdot 8$

$54 : 18 + 78$ $70 - 18 \cdot 2 + 49$ $9 \cdot 8 - 56 : 7$

323. Maktab bog'ida 9 tup behi, undan 3 marta ko'p o'rik daraxti bor. Maktab bog'ida birgalikda necha tup behi va o'rik bor?

324. $17 \cdot 4 - 27$ $56 : 8 \cdot 7$ $36 \cdot 1 + 39$

$18 \cdot 5 - 79$ $49 : 7 \cdot 9$ $1 \cdot 61 + 33$

Uch xonali sonlarni quyidagicha taqqoslash mumkin:

1) Yuzliklar soni bo'yicha.

Masalan, $900 > 897$, chunki 9 yuzlik $>$ 8 yuzlik.


2) Agar yuzliklar soni teng bo'lsa, u holda o'nliklar soni bo'yicha.

Masalan, $724 < 731$, chunki 2 o'nlik $<$ 3 o'nlik.

3) Agar yuzliklar soni ham, o'nliklar soni ham teng bo'lsa, u holda birliklar soni bo'yicha.

Masalan, $584 > 582$, chunki 4 $>$ 2.

- 332.** Maktabingiz oldidan o'tgan ko'cha chetiga bitta qoziq qoqing. Undan boshlab ko'cha bo'ylab 1000 m ni ruletka yordamida o'lchang va ikkinchi qoziqni qoqing. 1 km ni qancha vaqtda o'tishingizni soatga qarab bilib oling.
- 333.** 4 ta shirmoy kulcha uchun 80 so'm, 7 ta uy noni uchun 70 so'm to'lashdi. Nima qimmat — kulchami yoki nonmi? Necha marta qimmat?
- 334.** Bular qanday shakllar? Har bir siniq chiziqning uzunligini toping:



- 335.** Masalani jadval tuzib yozing va yeching.
18 / sutni 9 ta bir xil bankaga quyishdi. 12 litr sutni quyish uchun shunday bankalardan nechta kerak bo'ladi?
- 336.** Bir bo'lak matodan har biriga 6 m dan sarflab 12 ta plyaj soyaboni tikish mumkin. Agar bitta ko'ylakka 3 m mato sarflansa, shu mato bo'lagidan nechta ko'ylak tikish mumkin?

- 337.** Qavslarni shunday qo'yingki, natijada yozuvlar to'g'ri bo'lisin:

$$78 - 48 : 3 + 9 = 74$$

$$78 - 48 : 3 + 9 = 19$$

$$78 - 48 : 3 + 9 = 71$$

$$78 - 48 : 3 + 9 = 53$$

- 338.**
- | | | |
|--------------------|--------------------------|--------------------|
| $100 - 15 \cdot 5$ | $15 \cdot 6 - 4 \cdot 7$ | $(45 - 27) : 9$ |
| $10 + 18 \cdot 4$ | $9 \cdot 4 + 8 \cdot 6$ | $8 \cdot (13 - 6)$ |
| $72 + 36 : 18$ | $24 - 2 \cdot 9$ | $24 : 4 + 48$ |



- Masofalar turli uzunlik o'lchov birliklari bilan o'lchanadi. Katta masofalar katta birliklar bilan, kichik masofalar kichik birliklar bilan o'lchanadi.
- Metr** — uzunlik o'lchovining asosiy birligi.
- Detsimetr** — metrning o'ndan bir qismi.
- Santimetrr** — detsimetrning o'ndan bir qismi yoki metrning yuzdan bir qismi.
- Millimetrr** — santimetrning o'ndan bir qismi.
- Jadvalni ko'chirib yozing va uni eslab qoling:

$$1 \text{ km} = 1000 \text{ m}$$

$$1 \text{ m} = 10 \text{ dm}$$

$$1 \text{ m} = 100 \text{ sm}$$

$$1 \text{ dm} = 10 \text{ sm}$$

$$1 \text{ sm} = 10 \text{ mm}$$

- 339.** 1) 1 metr 1 santimetrdan necha marta katta?
 1 dm 1 metrdan necha marta kichik?
 1 km 1 metrdan necha marta katta?
 1 mm 1 santimetrdan necha marta kichik?
- 2) 1 mm 1 santimetrning qanday qismini tashkil etadi?
 1 dm (1 sm, 1 mm) 1 metrning qanday qismini tashkil etadi?
 1 m 1 kilometrning qanday qismini tashkil etadi?
- 340.** Elektr xo'jalik mollari do'konida 9 ta televizor sotildi. Do'konda yana sotilganiga qaraganda 4 marta ortiq televizor qoldi. Do'konda nechta televizor bo'lgan?

341. Tushirib qoldirilgan sonlarni qo'yib, misollarni ko'chirib yozing:

$$730 = \square \text{ o'nlik}$$

$$654 = \square \text{ o'nlik } \square \text{ birlik}$$

$$730 \text{ mm} = \square \text{ sm}$$


$$654 \text{ mm} = \square \text{ sm } \square \text{ mm}$$

342. 45 ta atirguldan har birida 15 tadan atirgul bo'lган bir xil guldasta tuzishdi va 78 chinniguldan har birida 13 tadan chinnigul bo'lgan bir xil guldasta tuzishdi. Qanday guldastalar ko'p? Necha marta ko'p?

343. Bolaning bo'yи 1 m 16 sm. Bu necha santimetr? O'z bo'yingizni o'lchang va yozing.



Echkining massasini toping:



344. $\square \text{ m } 24 \text{ sm} = 924 \text{ sm}$ $680 \text{ sm} = \square \text{ m } \square \text{ sm}$

$$\square \text{ m } 9 \text{ sm} = 309 \text{ sm}$$

$$800 \text{ sm} = \square \text{ dm}$$

345. $930 - 900$ $(60 - 35) : 5$ $6 \cdot 8 + 7 \cdot 5$

$500 + 40$

$100 - 84 : 14$

$6 \cdot 8 - 7 \cdot 5$

$999 - 90$

$70 - 42 + 8$

$6 \cdot (8 - 7) \cdot 5$



- 346.** 1) 270, 350, 600 sonlarining har birida hammasi bo'lib nechta o'nlik bor? 400, 900 sonlarining har birida hammasi bo'lib nechta yuzlik bor?
 2) 38 o'nlik, 8 yuzlik sonlarining har birida hammasi bo'lib nechta birlik bor?
- 347.** Sonlarni xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida ifodalang: 180, 302, 475.
- 348.** 9, 3, 6 raqamlaridan foydalanib, mumkin bo'lgan barcha uch xonali sonlarni yozing, bunda sonning yozuvida ayni bir raqam ikki marta takrorlanmasin. Bu sonlarning har birida nechta yuzliklar, o'nliklar va birliklar bor.
- 349.** Bog'bon 60 kg olxo'ri terdi. U 6 ta yashikni baravar qilib to'ldirganidan keyin yana 12 kg olxo'ri qoldi. Bog'bon har bir yashikka necha kilogrammdan olxo'ri solgan?

Bor edi	Solindi	Qoldi
60 kg	?, baravardan 6 ta yashikka	12 kg

Yechish rejasi

- 1) 6 ta yashikka necha kilogramm olxo'ri solingan?
 2) Bitta yashikka necha kilogramm olxo'ri solingan?

350. Har biri 48 ta birlikni o'z ichiga olgan 6 ta son yozing. Shunday sondan nechta yozish mumkin?

351. $36 : 2 \cdot 4$ $64 : 8 \cdot 11$ $48 : 2 \cdot 3$ $84 : 6 \cdot 4$
 $78 : 13 \cdot 5$ $84 : 2 \cdot 1$ $81 : 9 \cdot 6$ $91 : 13 \cdot 9$



352. Tol daraxtining bo'yи 4 m, terak undan 12 m baland. Terak toldan necha marta baland?



353. $72 : 18 \cdot 3$ $18 : 9 \cdot 8$ $56 : 7 \cdot 12$
 $13 \cdot 4 + 48$ $4 \cdot (13 - 4)$ $15 \cdot (19 - 13)$
 $(21 - 16) \cdot 19$ $(83 - 77) \cdot 8$ $(60 - 56) \cdot 19$

354. Qizchada 100 so'm pul bor. U 10 so'mlik somsadan nechta sotib olishi mumkin? 15 so'mlik somsadan-chi? 20 so'mlik somsadan-chi?

355. Omborda velosiped bor. Ular orasida ayollar velosipedi ta, erkaklar velosipedi undan 3 marta ortiq, qolganlari bolalar velosipedi. Omborda nechta bolalar velosipedi bor? Masalaga qo'shimcha shartlar kriting va masalani yeching.

356. Bir kesmaning uzunligi 3 sm, bu ikkinchi kesma uzunligining to'rtadan bir qismini tashkil etadi. Ikkinchi kesmaning uzunligini toping. Shu kesmalarни chizing.

357. Mustaqil yeching:

I qator

$$4 \cdot 9 : 6 + 74$$

$$25 : 5 \cdot 9 + 35$$

$$190 \text{ sm} = \square \text{ dm}$$

$$800 \text{ mm} = \square \text{ sm}$$

II qator

$$49 : 7 \cdot 6 + 36$$

$$64 : 8 \cdot 7 - 17$$

$$130 \text{ sm} = \square \text{ dm}$$

$$600 \text{ mm} = \square \text{ sm}$$

358.

$$870 - 800 - 1$$

$$599 + 1 + 40$$

$$527 - 20 + 3$$

$$980 - 80 + 1$$

$$299 + 1 + 80$$

$$789 - 70 + 1$$

359.

$$748 - 8$$

$$352 + 4$$

$$685 - 5$$

$$442 + 3$$

$$748 - 40$$

$$352 + 40$$

$$685 - 80$$

$$442 + 30$$

$$748 - 700$$

$$352 + 400$$

$$685 - 600$$

$$442 + 300$$



Qo'shimcha mashqlar

1. Sonlarni o'qing: 381, 409, 490, 998.
2. Sonlarni raqamlar bilan yozing: bir yuz o'n sakkiz, uch yuz besh; yetti yuz o'ttiz.
3. a) uchta yuzlik, oltita o'nlik, sakkista birlik; b) to'q-qista yuzlik; d) to'rtta yuzlik, yettita birlikdan iborat sonni raqamlar bilan yozing.
4. 293, 932, 329 sonlarning har birida hammasi bo'lib nechta yuzlik, nechta o'nlik, nechta birlik bor? 3, 9, 2 raqamlaridan foydalanib boshqa sonlarni yozing.
5. Har birida 43 tadan o'nlik bo'lgan 5 ta son yozing. Bunday sonlardan nechta yozish mumkin?
6. Quyidagi beshta sonni yozing:
 - a) 497 dan boshlab bittalab qo'shish bilan;
 - b) 803 dan boshlab bittalab ayirish bilan.

7. Namunaga qarab, har bir sonni yig'indi bilan almashtiring:

Namuna: $509 = 500 + 9$, $340 = 300 + 40$

$$630 = \dots \quad 408 = \dots \quad 903 = \dots \quad 790 = \dots$$

8.  $506 \dots 560$ $400 \dots 399$
 $734 \dots 743$ $799 \dots 800$

9. $860 - 800 - 1$ $599 + 1 + 70$ $429 - 20 + 1$

$$680 - 80 + 1 \quad 299 + 1 + 30 \quad 879 - 70 + 1$$


10. $(710 - 1) + 50$ $(560 - 1) - 30$ $(610 - 1) - 600$
 $(439 + 1) - 200$ $(990 - 1) - 80$ $(579 + 1) - 500$

11. $536 - 6$ $234 + 5$ $874 - 4$ $336 + 2$
 $536 - 30$ $234 + 50$ $874 - 70$ $336 + 20$

12. a) Kamayuvchi 86, ayriluvchi 18 va 3 sonlarining bo'linmasi. Ayirmani toping.

b) Birinchi qo'shiluvchi 26, ikkinchisi 7 va 4 sonlarining ko'paytmasi. Yig'indini toping.

13. Rasmga qarab masala tuzing va uni yeching:



14. Amal belgilari va qavslarni o'z o'rniliga qo'ying:

\cdot	$+$	$:$
$-$		

$($		$)$
-----	--	-----



$$\begin{aligned}1 &\dots 2 \dots 3 \dots = 1 \\12 &\dots 3 \dots 4 \dots = 1\end{aligned}$$

15. Yozilganlar orasidan tenglamalarni toping va ularni yeching:

$$x + 20 = 40 \quad | \quad 203 < 213 \quad | \quad 42 - x = 32 \quad | \quad 96 + 2 = 98$$



Yozilganlar orasidan tensizliklarni, tengliklarni o'qing.

16. Yopiq siniq chiziqning uzunligini toping:



17. Tomonlari har xil bo'lgan ikkita to'g'ri to'rtburchak chizing, ulardan har birining tomonlari uzunliklarining yig'indisi 20 sm ga teng bo'lzin.

18. Rasmda tasvirlangan nuqta, kesma va burchaklarni ayting:



Og'zaki qo'shish va ayirish

Yozuvi nollar bilan tugaydigan sonlarni qo'shish va ayirishda ularni har doim yuzliklar va o'nliklar ustida amallar bilan almashtirish mumkin.

Masalan:

$$400 + 300 = 700, \text{ chunki } 4 \text{ yuzlik} + 3 \text{ yuzlik} = \\ = 7 \text{ yuzlik}$$

$$900 - 200 = 700, \text{ chunki } 9 \text{ yuzlik} - 2 \text{ yuzlik} = \\ = 7 \text{ yuzlik}$$

$$500 - 60 = 440, \text{ chunki } 50 \text{ o'nlik} - 6 \text{ o'nlik} = \\ = 44 \text{ o'nlik}$$

$$70 + 90 = 160, \text{ chunki } 7 \text{ o'nlik} + 9 \text{ o'nlik} = \\ = 16 \text{ o'nlik}$$

$$130 - 70 = 60, \text{ chunki } 13 \text{ o'nlik} - 7 \text{ o'nlik} = \\ = 6 \text{ o'nlik}$$

360. Tushuntirish bilan yeching:


$$\begin{array}{llll} 800 - 20 & 300 - 70 & 90 - 40 & 130 - 50 \\ 400 + 500 & 200 + 50 & 30 + 80 & 120 - 40 \end{array}$$

361.  $105 * 501$

$$\begin{array}{ll} & 9 \text{ m} * 900 \text{ sm} \\ \text{=>} & 6 \text{ m } 8 \text{ dm} * 7 \text{ m } 2 \text{ dm} \end{array}$$

362. Maktab oshxonasiga 65 kg shakar olib kelindi. 5 kun mobaynida har kuni 7 kg dan shakar ishlatildi. Oshxonada necha kilogramm shakar qoldi?

- 363.** Yuzi bir xil bo'lgan shakllarning nomlarini ayting.
Yuzi eng katta bo'lgan shaklni toping:



- 364.** 2 ta mashina 18 ta ishchining o'rnnini bosadi. 7 ta shunday mashina nechta ishchining o'rnnini bosadi?
365. Bo'lish bilan yechiladigan tenglamalarni ko'chirib yozing va ularni yeching:



$$16 \cdot x = 16 \quad 64 : x = 4 \quad 17 \cdot x = 51 \quad x : 6 = 12$$

$$16 : x = 1 \quad 64 - x = 4 \quad 17 + x = 51 \quad x \cdot 6 = 12$$



Hisoblashlarning turli usullarini tushuntiring:

- 1) $730 + 20 = 700 + (30 + 20) = 750$ yoki
73 o'nlik + 2 o'nlik = 75 o'nlik
- 2) $470 + 30 = 400 + (70 + 30) = 500$ yoki
47 o'nlik + 3 o'nlik = 50 o'nlik
- 3) $860 - 500 = (800 - 500) + 60 = 360$ yoki
86 o'nlik - 50 o'nlik = 36 o'nlik


- 366.** Tushuntirish bilan yeching:

$$370 + 20 \quad 680 - 400 \quad 230 + 70 \quad 170 - 70 - 50$$

$$370 + 200 \quad 680 - 40 \quad 520 + 80 \quad 590 - 90 - 80$$



- 367.** Sonlarni 500 gacha to'ldiring: 420, 480, 440, 410.
 Sonlarni 900 gacha to'ldiring: 860, 830, 870, 820.
- 368.** Ikki shahar orasidagi masofa 150 km. Bu shaharlardan bir-biriga qarab ikki mashina yo'lga chiqdi. Birinchi mashina 60 km, ikkinchisi 70 km yo'l yurganidan keyin ular orasida qancha masofa qoladi?



- 369.** Bir uyda har birida 10 tadan xonadon bo'lgan 5 ta yo'lak, ikkinchi uyda esa har birida 15 tadan xonadon bo'lgan 3 ta yo'lak bor.
- Quyidagi ifodalar nimani bildiradi:

$$\begin{array}{lll} 10 \cdot 5 & 5 - 3 & 10 \cdot 5 + 15 \cdot 3 \\ 15 \cdot 3 & 15 - 10 & 10 \cdot 5 - 15 \cdot 3 \end{array}$$

- 370.** Jadvalga qarab masala tuzing va uni yeching:

Kunlik me'yor	Kunlar soni	Umumiy xarajat
Bir xil ?	6 kun 2 kun	18 kg ?


- 371.** $300 + 200 - 90$ $820 + 40 - 400$ $430 + 70$
 $700 - 500 + 40$ $590 - 200 - 90$ $280 + 20$



Burchaklarning turlari



O'tkir burchak










To'g'ri burchak



O'tmas burchak

- To'g'ri burchakdan kichik burchak o'tkir burchak deyiladi.
- To'g'ri burchakdan katta burchak o'tmas burchak deyiladi.

372. Burchaklarning tartib raqamlarini mos turlar bo'yicha yozing:



To'g'ri burchaklar:

O'tkir burchaklar:

O'tmas burchaklar:

373. To'g'ri, o'tkir va o'tmas burchaklar chizing.

374. Tushuntirish bilan yeching:

$$200 \cdot 3 + 200 \quad 1000 : 2 + 400 \quad 700 : 700$$

$$800 - 600 : 3 \quad 1000 : 5 - 100 \quad 700 - 700$$

$$\text{Namuna: } 900 - 800 : 4 = 700$$

$$800 : 4 = 80 \text{ o'nlik} : 4 = 20 \text{ o'nlik} = 200$$

$$900 - 200 = 700$$

375. 1) 280 va 20 sonlari yig'indisini 100 marta kamaytiring.

2) 930 va 30 sonlari ayirmasini 100 ta kamaytiring.

376.

25 m uzunlikdagi simga 3 ta 5 m li sim ulandi. Simning uzunligi qancha bo'ldi?


377.

$$700 + 70 + 7 \quad 888 - 80 \quad 400 + 90$$

$$300 + 30 + 3 \quad 888 - 8 \quad 400 + 9$$




Uchburchaklarning turlari



Turli tomonli
uchburchak



Teng yonli
uchburchak




Teng tomonli
uchburchak

Hamma tomonlarining uzunliklari turlichalbo'lgan uchburchak turli tomonli uchburchak deyiladi.

- Agar uchburchakning ikki tomoni o'zaro teng bo'lsa, bunday uchburchak teng yonli uchburchak deyiladi.
 - Uchburchakning uchala tomoni o'zaro teng bo'lsa, bunday uchburchak teng tomonli uchburchak deyiladi.
-

378. Uchburchaklarning tartib raqamlarini mos turlar bo'yicha yozing:



Turli tomonli uchburchaklar: 3, ...

Teng yonli uchburchaklar:

Teng tomonli uchburchaklar:

379. Sotuvchi 1 kg pishloq tortishi kerak edi. U kesgan bo'lakning massasi 900 g chiqdi. Yana necha gramm pishloq qo'shish kerak?

380. Olxo'ri solingan 1 ta yashik 12 kg, uzum solingan 3 ta yashik 27 kg keldi. Olxo'ri solingan bitta yashik uzum solingan bitta yashikdan necha kilogramm og'ir?

381. Tushurib qoldirilgan sonlarni qo'yib, misollarni ko'chirib yozing:

$$\square : 8 = 1 \quad (\square \text{ qold.})$$

$$\square : 7 = 2 \quad (6 \text{ qold.})$$

382.

$$72 : 8 + 400$$

$$908 - 56 : 7$$

$$49 : 7 \cdot 9$$

$$5 \cdot 3 + 66$$

$$91 - 43 + 18$$

$$23 + 59 - 81$$

- 383.** Qishloqda 10 ta yangi uy bor edi. Bu yil yana 20 ta uy qurildi. Yangi uylar ilgari qurilgan uylarga qaraganda necha marta ko'p bo'ldi?

Hisoblashlarning turli usullarini tushuntiring:

$$1) 350 + 80 = (350 + 50) + 30 = 430$$

$$\begin{array}{r} 50 \\ 30 \end{array}$$

$$350 + 80 = 35 \text{ o'nlik} + 8 \text{ o'nlik} = 43 \text{ o'nlik}$$

$$2) 710 - 60 = (710 - 10) - 50 = 650$$

$$\begin{array}{r} 10 \\ 50 \end{array}$$

$$710 - 60 = 71 \text{ o'nlik} - 6 \text{ o'nlik} = 65 \text{ o'nlik}$$

- 384.** Tushuntirish bilan yeching:

$$290 + 70$$

$$830 - 90$$

$$740 - 60$$

$$420 - 50$$

$$380 + 80$$

$$910 - 40$$

- 385.** Qiymatini hisoblang va tekshirishni bajaring:

$$36 + 28$$

$$41 - 19$$

$$24 \cdot 3$$

$$91 : 7$$

- 386.** 270 ishchi hasharga chiqishdi. Ulardan 30 kishi otaliqqa olingan mакtabda, 40 kishi bolalar bog'-chasida, qolganlari o'z ish joylarida ishladi. Masa-laga savol qo'ying va masalani yeching.

- 387.** Katta bidonga 15 / sut, bankaga esa bidondagi sutning beshdan bir qismi ketadi. Bitta bankaga

necha litr sut ketadi? Uchta to'la bidondagi sutni quyish uchun nechta banka kerak bo'ladi?

388.


Ikkinchi sinf o'quvchilari 400 kg, uchinchi sinf o'quvchilari esa undan 80 kg ortiq temir-tersak toplashdi. Ikkinchi va uchinchi sinf o'quvchilari birgalikda qancha temir-tersak toplashgan?

389.

$$\begin{array}{ccc} 92 : 23 & 96 : 24 & 66 : 33 + 99 : 9 \\ 68 : 17 & 68 : 34 & 88 : 22 + 15 \cdot 6 \end{array}$$



Rasmni va yozuvlarni ko'rib chiqing. Yechishni tushuntiring:



$$\begin{array}{r} 350 \\ 300 + 50 \end{array} + \begin{array}{r} 420 \\ 400 + 20 \end{array} = \square$$

$$300 + 400 = 700 \quad | \quad 50 + 20 = 70 \quad | \quad 700 + 70 = 770$$

$$350 + 420 = 770$$

Yuzliklar yuzliklarga qo'shiladi. O'nliklar o'nliklarga qo'shiladi.

390. $440 + 150$ $210 + 210$ $599 + 1$
 $650 + 230$ $810 + 190$ $999 + 1$

391. Ishchining kunlik ish normasi 12 ta detal. Yangi dastgohga u uch kunda 72 ta detal tayyorladi. Ishchi yangi dastgohga bir kunda necha marta ko'p detal tayyorladi?

392. O'quvchilarning bir haftalik badantarbiya mashqlari sutkaning sakkizdan biriga teng. Bolalar bir haftada necha soat mashq qiladilar?

393. Ikkita bir xil yashikda 16 kg uzum bor. Shunday 4 ta yashikda necha kilogramm uzum bor? 5 ta yashikda-chi?

394. $220 + 160$ $700 - 600$ $900 - (1000 - 300)$
 $480 + 110$ $460 + 130$ $530 + (280 - 180)$

395. Yangi mакtabda oldin 250 ta qiz bola va 240 ta o'g'il bola bor edi. Yil davomida yana 100 ta bola qabul qilindi. Maktabda nechta o'quvchi bo'ldi?

- Siz biladigan raqamlar: 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9 — bu arab raqamlari. Ularni birinchi marotaba o'zbek xalqining buyuk farzandi, istedodli olim Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy o'zasarlarida qo'llagan. Al-Xorazmiy kitoblarining boshqa tillarga tarjima qilinishi natijasida bu raqamlarni Yevropa va Rossiyada ham qo'llay boshlaganlar.

- Sonlar rim raqamlari orqali ham yoziladi.
- Masalan, I (bir), II (ikki), III (uch), V (besh), X (o'n).
-

396. 1 dan 12 gacha bo'lgan sonlarning rim raqamlari orqali yozilishi:

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII

Jadvalni qarab chiqing va eslab qoling.

397. Rim raqamlarini soat siferblatlarida, sanalarni yozishda uchratish mumkin. Masalan, 1-sentabr bunday yoziladi: 1.IX; 9-may 9.V. kabi yoziladi. Yangi yilni, Vatan himoyachilari kunini, Xalqaro xotin-qizlar kunini, Navro'z bayrami kunini rim raqamlari bilan yozing.

398. Qizcha kitob o'qimoqda. U birinchi kuni 6 bet, ikkinchi kuni undan 2 marta ortiq o'qiganidan keyin, o'qilmagan yana 28 bet qoldi. Kitob hammasi bo'lib necha betli?

399. 1) $ABCD$ siniq chiziq chizing, bunda $AB = 2$ sm 3 mm, $BC = 1$ sm, $CD = 4$ sm bo'lsin;
2) $ABCD$ siniq chiziqning uzunligini hisoblang.

400.

$$70 + 80$$

$$140 - 90$$

$$57 : 19$$

$$230 + 450 - 500$$

$$350 + 140 + 200$$

$$52 : 26$$

401. Tenglamalarni yeching:



$$x \cdot 6 = 54$$

$$x + 56 = 100$$

$$x : 8 = 34$$



$$70 - x = 18$$

$$63 : x = 7$$

$$67 + x = 85$$



Rasmni va yozuvlarni ko'rib chiqing.
Yechishni tushuntiring.



$$\begin{array}{r} 360 \\ - 250 \\ \hline 110 \end{array}$$


$$300 - 200 = 100 \quad | \quad 60 - 50 = 10 \quad | \quad 100 + 10 = 110$$
$$360 - 250 = 110$$

Yuzliklar yuzliklardan ayiriladi. O'nliklar o'nliklardan ayiriladi.

402. $480 - 320$ $190 - 140$ $770 - 560$
 $970 - 860$ $680 - 440$ $880 - 720$

403. Tarvuz ekilib, yig'ib olinguniga qadar 150 kun o'tadi, qovunga tarvuzga qaraganda 10 kun kam, kartoshkaga qovunga qaraganda 20 kun kam vaqt ketadi. Kartoshka ekilib, yig'ib olinguniga qadar necha kun o'tadi?

404. Har bir qism qanday hosil qilindi?



405. Tokar 4 soatda 36 ta bir xil detal tayyorladi. Agar tokar soatiga bittadan ortiq detal tayyorlasa, unga 60 ta detalni tayyorlash uchun necha soat kerak bo'ladi?

406.

Ikkita bola basseynda bir-biriga qarab suzdi. Biri uchrashishguncha 23 m, ikkinchisi undan 5 m qisqa masofaga suzdi. Dastlab ular orasidagi masofa necha metr bo'lgan?

407. $18 : 6 + 36 : 4$ $7 \cdot 8 - 6 \cdot 4$ $100 - 6 \cdot 8$
 $63 : 7 + 40 : 8$ $7 \cdot 6 - 8 \cdot 3$ $38 + 4 \cdot 7$

408.


- 1) Sonlarni rim raqamlari bilan yozing: 2, 10, 6, 12, 9, 8.
- 2) Oylarni rim raqamlari bilan yozing: mart, may, oktabr, aprel, yanvar, iyul.
- 3) Sonlarni tartibi bilan yozing: VII, X, IX, I, V, IV, III, XI, II, VI, XII, VIII.

- Hisoblashlarning turli usullarini tushuntiring va yechishni tugallang:
- 1) $240 + 520 = (240 + 500) + 20 = \dots$
 - 2) $240 + 520 = (200 + 500) + (40 + 20) = \dots$
 - 2) $860 - 310 = (860 - 300) - 10 = \dots$
 - 2) $860 - 310 = (800 - 300) - (60 - 10) = \dots$


409. Shu usullarning biridan foydalanib hisoblang:

$$\begin{array}{lll} 370 + 210 & 780 - 460 & 990 - 880 \\ 450 + 330 & 940 - 510 & 970 - 160 \end{array}$$

- 410.** Hafta davomida qo'g'irchoq teatriga har birida 25 tadan o'quvchi bo'lgan uchta birinchi sinf va har birida 29 tadan o'quvchi bo'lgan ikkita ikkinchi sinf tushdi. Qo'g'irchoq teatriga necha marta ko'p birinchi sinf o'quvchilari tushgan?
- 411.** Har bir shakl nechta katakka joylashganligini turli usullar bilan sanang:



- 412.** Har bir shaklning tomonlari uzunligini o'lcang va perimetрini hisoblang:





- 413.** Ikkita kesma chizing: birining uzunligi 12 sm, ikkinchi kesma birinchi kesmaning to'rtdan bir qismiga teng bo'lsin.



MASSA BIRLIKLARI

Kilogramm, gramm




- 1) Rasmni ko'rib chiqing. Qovoqning massasi 1 kg dan og'imi yoki yengilmi? 2 kg dan-chi?
- 2) Kichikroq narsalarning massasi grammlarda o'lchanadi.

$$1 \text{ kg} = 1000 \text{ g}$$

- 1 kg, 2 kg, 5 kg li toshlar bilan bir qatorda 100 g, 10 g, 1 g li; 200 g, 20 g, 2 g li; 500 g, 50 g, 5 g li tarozi toshlaridan foydalaniлади.

- 414.** 7 g; 80 g; 300 g; 450 g; 600 g; 745 g; 900 g ni hosil qilish uchun qanday tarozi toshlarini olish kerak?
- 415.** 600 g qum, 300 g guruch o'lchab oling; bitta olmani tarozida torting.
- 416.** Sonlarni rim raqamlari bilan yozing: 7, 9, 18, 20, 13, 16, 8.

- 417.** Ikkita bir xil chelakda 14 kg sabzi bor. 42 kg li qopda necha chelak sabzi bor? Rasmni ko'rib chiqing va masalani yeching.



- 418.** Tenglamalarni yeching:

$$x + 240 = 480 \quad 890 - x = 530 \quad x : 7 = 9$$

419.

$$460 + 110 - 540 \quad 820 - (570 - 450)$$

$$370 - 260 + 690$$

$$320 + (120 + 130)$$


420.

- Bir qutichada 28 ta, boshqasida undan 4 marta kam konfet bor. Qutichalarda hammasi bo'lib nechta konfet bor?



Tonna, sentner

- 421.** Rasmni ko'rib chiqing. Qovoqning massasi nima-ga teng? Tarvuzning massasi-chi?



Yashikdagi xurmoning massasini aniqlash uchun

qanday birliklardan foydalanish qulay, bitta xurmoning massasini aniqlash uchun-chi?

Katta narsalarning massasini o'lchash uchun kilogrammga qaraganda yirikroq bo'lgan massa birliklari — **sentner** va **tonnadan** foydalaniladi.

$$1 \text{ sentner} = 100 \text{ kilogramm}, \quad 1 \text{ t} = 1000 \text{ kg}$$

Bu birliklarni sonlar bilan birgalikda bunday yoziladi: 1 sr, 6 sr, 10 t, 45 t.

- 422.** Bitta qopga 50 kg guruch sig'adi. 1 sr guruchni solish uchun nechta qop kerak bo'ladi? (1 sentnerni kilogrammlarda ifodalang.)
- 423.** Savollarga javob bering:
- Qaysi massa birligi yirikroq: 1 t mi yoki 1 kg mi? 1 kg mi yoki 1 sr mi?
 - Qaysi massa birligi maydarloq: 1 kg mi yoki 1 g mi?
- 424.** Uchburchakning perimetri 37 sm. Uning bir tomoni 11 sm, ikkinchi tomoni 10 sm bo'lsa, uchinchi tomonini toping.
- 425.** Do'kon, kinoteatr va muktab ko'chaning bir tomonida joylashgan. Do'kondan kinoteatrgacha 900 m, kinoteatrdan muktabgacha 200 m kam. Do'kondan muktabgacha bo'lgan masofa qancha? Shart bo'yicha turli chizmalar tuzing va masalani yeching.

426. Jadval bo'yicha masala tuzing va uni yeching:

Soatiga terishdi	Ish vaqtি	Hammasi bo'lib terishdi
20 kg paxta	3 soat	? 
10 ks paxta	3 soat	? 

427.

Tikuvchilik korxonasida bir yilda 840 ta kastum tikilishi kerak edi. Birinchi yarim yilda 470 ta, ikkinchi yarim yilda 420 ta kastum tikildi. Yillik reja qancha oshirib bajarilgan?

428. $460 + 110 - 540 = 820 - (570 - 450) = 64 : 16$
 $250 - 130 + 680 = 420 + 80 + 440 = 44 : 11$



VAQT BIRLIKLARI

Soat, minut



- 1) Soatning kichik mili nima deb ataladi?
Katta mili-chi?
- 2) Soat mili bir katta chiziqdan ikkinchi katta chiziqqacha qancha vaqtda o'tadi? Minut mili bitta kichik chiziqdan ikkinchi kichik chiziqqacha qancha vaqtda o'tadi?
- 3) Minut mili 1 soatda siferblat doirasini necha marta aylanadi?

1 soat = 60 min.

4) Minut mili qancha vaqtida doiranining yarmini o'tadi? Doiranining choragini-chi? Bir katta chiziq-dan ikkinchi katta chiziqqacha bo'lgan masofani qancha vaqtida o'tadi?

429. Dars 45 minut, tanaffus esa 10 minut davom etadi. Bir darsning boshlanishidan ikkinchi darsning boshlanishigacha qancha vaqt o'tadi?
430. 1) Soat qaysi vaqtini ko'rsatayotganini ayting:



- 2) Har bir soat 10 minutdan keyin qanday vaqt ni ko'rsatishini ayting.
431. Besh quti shirinkulchaning massasi 30 kg. Agar bir quti konfetning massasi bir quti shirinkulchaning massasidan 2 kg ortiq bo'lsa, 8 quti konfetning massasini toping.

Yechish rejasi


- 1) Bir quti shirinkulchaning massasi qancha?
 - 2) Bir quti konfetning massasi qancha?
 - 3) 8 quti konfetning massasi qancha?
- Har bir savolning yechimini ayting.

432. Navoiy shahridan Uchquduq shahrigacha bo'lgan masofa temir yo'l bo'ylab 290 km, avtomobil yo'lli



bo'ylab undan 40 km kam. Sayohatchi Navoiydan Uchquduqqa poyezdda jo'nadi va avtobusda qaytib keldi. Sayohatchi hammasi bo'lib necha kilometr yo'l yurgan?

- 433.** Har bir shaklning yuzini toping:



1 kv sm



- 434.** Agar $c = 380$ bo'lsa, $690 - c$ ifodaning qiymatini toping.

435. $970 - 160 + 120$ $300 + (460 - 150)$
 $760 + 200 - 850$ $870 - (340 + 320)$



- 436.** Soat modelida soat 1 ni, soat 4 ni, soat 7 ni ko'rsating.

Endi shu vaqt dan 5 min, 15 min, 45 min, 3 min o'tganini ko'rsating.

- 437.** Soat qaysi vaqtni ko'rsatmoqda? Bir vaqtni har xil bayon eting: 1) soat 3 dan 5 minut o'tdi yoki soat 3-u 5 minut; 2) soat 6 dan 15 minut o'tdi yoki soat 6-yu 15 minut, yoki soat 6 dan chorak soat o'tdi; 3) soat 5-u 30 minut yoki besh yarim; 4) 7 dan 45 minut o'tdi, yoki 15 minuti kam sakiz, yoki chorakam sakkiz.



- 438.** Soat ikki yarimni ko'rsatmoqda, 15 minuti kam oltini ko'rsatmoqda, soat sakkiz-u o'ttiz minutni ko'rsatmoqda deyish o'rnilga boshqacha nima deyish mumkin?
- 439.** 700 g ni 1 kg gacha; 350 g ni 500 g gacha; 160 g ni 400 g gacha; 820 g ni 900 g gacha to'ldiring.

- 440.** Qiymatini hisoblang va tekshirishni bajaring:

$$800 + 240$$

$$130 + 60$$

$$85 : 17$$

$$480 - 300$$

$$150 - 90$$

$$4 \cdot 23$$

441.

Seshanba kuni avtomobil zavodi 80 ta, chorshanba kuni undan 10 ta ortiq mashina ishlab chiqardi. Zavod ikki kunda nechta mashina ishlab chiqargan?

442.

$$90 + 80$$

$$160 + 20$$

$$290 + 60$$

$$320 - 10$$

$$490 + 80$$

$$130 - 90$$

$$20 + 80$$

$$480 - 50$$

443.



1) Bo'sh shisha idishning massasi 300 g. Yog' solingan shisha idishning massasi 750 g. Idishga necha gramm yog' solingan?

2) Banan solingan savatning massasi 1 kg 300 g. Agar unda 1 kg banan bo'lsa, savatning massasini toping.

444. Eng kichigidan boshlab o'zingizga ma'lum bo'lgan massa birliklarini ayting.

445. Jadvalni ko'chirib yozing va eslab qoling:

$$1 \text{ kg} = 1000 \text{ g}$$

$$1 \text{ t} = 1000 \text{ kg}$$

$$1 \text{ sr} = 100 \text{ kg}$$

$$1 \text{ t} = 10 \text{ sr}$$

446. 1) Har birida 50 kg dan bo'lgan ikki qop sabzining massasi qancha? Bu necha sentner bo'ladi?

2) Bolalar bog'chasiga 1 sr barra bodring jo'natildi. Bu necha kilogramm bo'ladi?

3) 10 sr pomidor tuzlandi. Bu necha tonna bo'ladi?

4) Ikki ekin maydonidan 50 kg dan lavlagi terib olindi. Hammasi bo'lib necha kilogramm lavlagi terib olingan? Bu necha sentner bo'ladi?

447. 63 l pomidor sharbati shisha bankalarning har biriga 9 l dan quyildi, yana 15 l sharbat har bir shisha bankaga 3 l dan quyildi. Nechta shisha bankaga sharbat quyilgan?

448. 5 ta bir xil paltoga 10 m gazlama ketdi? 2 ta shunday paltoga necha metr gazlama ketadi?

$$449. \quad 56 : 7 + 24 : 3 \qquad 7 \cdot 4 - 3 \cdot 6 \qquad 81 - 7 \cdot 6$$

$$35 : 5 + 42 : 6 \qquad 8 \cdot 6 - 5 \cdot 5 \qquad 89 - 3 \cdot 7$$



Sutka



- 1) Ertalab, kunduzi, kechqurun va kechasi **sutkani** tashkil qiladi.
- 2) Soatning katta mili bir sutkada soat siferblatini 24 marta, soatning kichik mili esa 2 marta aylanib chiqadi.

1 sutka = 24 soat

- 450.** Bugun kechki soat 8 dan ertaga kechki soat 8 gacha necha sutka o'tadi? Indinga soat 8 gacha chi?
- 451.** Yarim sutka necha soatga teng? Sutkaning to'rt-dan biri necha soatga teng?
- 452.** Uchta sonning yig'indisi 200 ga teng. Birinchi qo'shiluvchi eng katta ikki xonali son, ikkinchi qo'shiluvchi esa eng kichik uch xonali son. Uchinchi qo'shiluvchini topping.

453. Nega sutkaning har xil vaqtida soat millari bir xil holatda bo'lishi mumkin?



454. Tenglamalarni yeching:

$$3 \cdot a = 48$$

$$24 : b = 8$$

$$x : 3 = 27$$

$$120 + x = 250$$

$$800 - a = 500$$

$$b - 70 = 90$$

455.

Uchta bir xil bankada 6 l murabbo bor. 5 ta shunday bankada necha litr murabbo bor?

456.

8 sm uzunlikda kesma chizing. Bu kesmaning to'rtdan bir qismini bo'yang. Qancha uzunlikda kesma bo'yaldi?



Yil, oy, hafta

457. Har bir soat kunduzgi qaysi vaqtni ko'rsatmoqda?



458. O'quvchilar 45 minut dars davomida 5 minut og'zaki hisob bajarishdi, 15 minut misollar yechishdi, qolgan vaqtda esa masalalar yechishdi. O'quvchilar necha minut masalalar yechishgan?

459. Qishloqdan shahargacha avtobus 30 minut yuradi. Kunduzi soat 1-u 10 minutda yo'lga chiqadigan avtobus shaharga qachon yetib keladi?


	YANVAR	FEVRAL	MART	APREL	MAY	İYUN
Du	7 14 21 28	4 11 18 25	3 10 17 24 31	7 14 21 28	5 12 19 26	2 9 16 23 30
Se	8 15 22 29	5 12 19 26	4 11 18 25	8 15 22 29	6 13 20 27	3 10 17 24
Ch	2 9 16 23 30	6 13 20 27	5 12 19 26	9 16 23 30	7 14 21 28	4 11 18 25
Pa	3 10 17 24 31	7 14 21 28	6 13 20 27	10 17 24	8 15 22 29	5 12 19 26
Ju	4 11 18 25	8 15 22 29	7 14 21 28	11 18 25	9 16 23 30	6 13 20 27
Sh	5 12 19 26	9 16 23	8 15 22 29	12 19 26	10 17 24 31	7 14 21 28
Ya	6 13 20 27	10 17 24	9 16 23 30	13 20 27	11 18 25	8 15 22 29
	İYUL	AVGUST	SENTABR	OKTABR	NOYABR	DEKABR
Du	7 14 21 28	4 11 18 25	8 15 22 29	13 20 27	10 17 24	1 8 15 22 29
Se	8 15 22 29	5 12 19 26	9 16 23 30	14 21 28	11 18 25	2 9 16 23 30
Ch	2 9 16 23 30	6 13 20 27	10 17 24	15 22 29	12 19 26	3 10 17 24 31
Pa	3 10 17 24 31	7 14 21 28	11 18 25	16 23 30	13 20 27	4 11 18 25
Ju	4 11 18 25	8 15 22 29	12 19 26	17 24 31	14 21 28	5 12 19 26
Sh	5 12 19 26	9 16 23 30	13 20 27	18 25	15 22 29	6 13 20 27
Ya	6 13 20 27	10 17 24 31	14 21 28	19 26	16 23 30	7 14 21 28

Taqvimni qarang va ayting:

- 1) Yil qaysi oy va qaysi kundan boshlanadi?
- 2) Bir yilda necha oy bor? Ularni tartibi bilan ayting. Har qaysi oy necha kundan iborat?
- 3) Sizning tug'ilgan kuningiz qaysi oyda? Shu oy necha kundan iborat?
- Shuncha kundan iborat oylarni aytib chiqing.
- 4) Yetti sutka yoki 7 kun — bu bir hafta. Hafta kunlarini tartibi bilan aytib chiqing.
- Bu yil 21-mart haftanining qaysi kuniga to'g'ri keladi?
- 8-Mart-chi? 1-Yanvar-chi? 1-Sentabr-chi?

- 460.** 1) Aprel oyidan keyin qaysi oy keladi? Noyabr oyidan oldin qaysi oy keladi?
 2) Yil boshidan to'la 2 oy, 5 oy, 11 oy o'tgandan keyin qaysi oy keladi?

- 461.** 1) Uch oy yil faslini tashkil qiladi.
 2) Rasmga qarab: bir yildagi qish oylari sonini, bahor oylari sonini, yoz oylari sonini va kuz oylari sonini ayting.



Shu oylar nomlarini ayting. Bahorning, yozning, kuzning va qishning birinchi kunini ayting.

- 462.** Avtobusda yo'lovchilar uchun 40 ta, yengil mashina nida undan 10 marta kam o'rinni bor. 20 kishini sayohatga jo'natish uchun nechta yengil mashina kerak bo'ladi?



- 463.** Topda 20 m chit bor edi, 5 m chit ishlatildi. Qolganiga qaraganda necha marta kam chit ishlatilgan?



- 464.** $750 - 230$ $140 - 30$ $620 + 300$ $880 : 880$
 $540 - 220$ $330 - 110$ $750 - 500$ $440 : 1$

465. Jadvalni to'ldiring:

a	190	220	870		360	720
b			870	50	0	
$a - b$	70	200		480		720


- 466.** Bog'lamdan 18 ta daftar olingandan so'ng unda olinganiga qaraganda 2 marta kam daftar qoldi. Dastlab bog'lamda nechta daftar bo'lgan?
- 467.** Agar $b = 56$ bo'lsa, $b + b : 8$ ifodaning qiymatini toping.
- 468.** Bir xil yuzga ega bo'lgan shakllarning nomlarini aytинг. Yuzi eng katta bo'lgan shaklni toping:




1



2



3



4

- 469.** Sport saroyida bir qatorda 131- dan 142 - gacha o'rinlar bo'sh edi. Bu qatordagi qaysi o'rinlar bo'sh ekanini yozing.

470. $65 : (213 - 200) \cdot 10 \quad 470 - 70 - 40$

$84 : 12 \cdot (307 - 300) \quad 890 - 10 - 60$

Namuna: $72 : 36 \cdot (389 - 360) = 58$

$389 - 360 = 29; \quad 72 : 36 = 2; \quad 2 \cdot 29 = 58$

471.

Agar spektakl 80 minut, kinofilm esa 1 soat 10 minut davom etgan bo'lsa, spektakl kinofilmga nisbatan necha minut ko'p davom etgan?

472.

Bolada „Kosmos“ mavzusiga oid markali uchta albom bor. Uning bir albomida \square ta marka, boshqa ikkita albomining har birida esa 30 tadan marka bor. Bolada hammasi bo'lib nechta marka bor?



Tushurib qoldirilgan sonni qo'ying va masalani yeching.

473.


Sirkka 80 ta ayol kishi, ulardan 20 ta ortiq erkak kishi, kattalar birgalikda qancha bo'lsa, shuncha bola keldi. Sirkka hammasi bo'lib necha kishi kelgan?

Yechish:

$$1) 80 + 20 = \square$$

$$2) 80 + \square = \square$$

$$3) 80 + \square + \square = \square$$



Masalani yechishni tugallang. Har bir amalni bajarib, nimani bilish mumkinligini tushuntiring.

474.

Tikuvchi qizlar 6 ta ko'yak va 6 ta xalat tikishdi. Har bir ko'yakka 3 m dan, xalatga 2 m dan gazlama ishlataldi. Hammasi bo'lib necha metr gazlama ishlatalgan?



- 475.** Sabzili xaltaning massasi 2 kg, kartoshkali xaltaning massasi undan 1 kg ortiq bo'lsa, 9 ta kartoshkali xaltaning massasini toping.

8. Duradgor usta har kuni baravardan 3 kunda 12 ta rom yasadi, to'rtinchi kuni esa oldingi kundagidan 1 ta ortiq rom yasadi. Usta to'rtinchi kuni nechta rom yasadi?
9. Ikki qutichada 18 ta konfet bor. Shunday uchta qutichada nechta konfet bo'ladi?
10. Maktab kutubxonasiga 100 ta darslik keltirildi, har birida 23 o'quvchisi bo'lgan to'rt sinf bolalariga bit-tadan darslik berildi. Kutubxonada yana nechta darslik qolgan?
11. Ifodalarga ko'ra masalalar tuzing va ularni yeching:

$$\begin{array}{ll} 36 \cdot 2 + 3 \cdot 4 & 100 - 42 \cdot 2 \\ 35 + 18 \cdot 3 & 50 - 12 \cdot 3 \end{array}$$

12. Chizmada nechta uchburchak bor? Nechta to'rtburchak bor? Bu shakllar nima deb ataladi? Ularning tomonlarini o'lchang. To'g'ri burchaklarni toping va ularning nomlarini yozing:



13. Har bir tomoni 8 dm ga teng bo'lgan uchburchakning perimetrini toping va hosil bo'lgan sonni metrlar va detsimetrlarda ifodalang.
14. Uchta kesma chizing. Birining uzunligi 16 sm bo'lib, u ikkinchisidan 4 marta uzun va uchinchisidan 9 sm uzun bo'lsin.

YOZMA KO'PAYTIRISH VA BO'LISH

Bir xonali songa ko'paytirish

$$683. \begin{array}{ccc} (54 + 36) : 3 & (29 - 9) \cdot 4 & (74 - 69) \cdot 20 \\ (98 - 18) : 4 & (62 - 2) : 2 & (81 - 79) \cdot 50 \end{array}$$

1) Yechishni tushuntiring:

$$34 \cdot 2 = (30 + 4) \cdot 2 = 30 \cdot 2 + 4 \cdot 2 = 60 + 8 = 68$$

$$234 \cdot 2 = (200 + 30 + 4) \cdot 2 =$$

$$= 200 \cdot 2 + 30 \cdot 2 + 4 \cdot 2 = 400 + 60 + 8 = 468$$

2)

	Yuzliklar	O'nliklar	Birliklar
\times	2	3	4 2
	4	6	8

Misolni ustun qilib yozish qulay.

Bunday tushuntiring:

Yozaman: ...


Birliklarni ko'paytiraman:

$$4 \text{ birlik} \cdot 2 = 8 \text{ birlik}$$

8 birlikni birliklar tagiga yozaman.

O'nliklarni ko'paytiraman:

$3 \text{ o'nlik} \cdot 2 = 6 \text{ o'nlik}$. 6 o'nlikni o'nliklar tagiga yozaman. Tushuntirishni davom ettiring.



- 684.** Misollarni ustun qilib yozing va ko'paytirishni tushuntirish bilan bajaring:

$$423 \cdot 2$$


$$132 \cdot 3$$

$$212 \cdot 4$$

Oldin birliklar, keyin o'nliklar, oxirida yuzliklar ko'paytiriladi.

- 685.** Mebel ustaxonasida har kuni 12 tadan 60 ta divan yasashdi. Shuncha vaqt ichida ikkinchi ustaxona bir kunda 20 tadan nechta divan yasaydi?

- 686.** Rasmni qarab chiqing. Doiraning radiusi nimaga tengligini o'lchang va yozing. A va B nuqtalar ora-



sidagi masofa qancha? Nuqtalardan qaysilari doira ichida; doiradan tashqarida; aylanada yotibdi. Ularni ayting.

- 687.** Radiusi 2 sm 5 mm ga teng bo'lgan, markazi daftar chiziqlarining kesishgan nuqtasida bo'lgan aylana chizing. Uni 4 ta teng qismga bo'ling. Bir qismini bo'yang.

- 688.** Kesmani o'lchang. Bu kesmadan 2 marta uzun bo'lgan kesma yasang:



- 689.** $487 - 349$ $54 : 9 \cdot 7$ $43 + 40 : 8$
 $630 - 472$ $6 \cdot 7 : 2$ $37 - 24 : 3$
 $507 - 34$ $900 : 10 \cdot 6$ $100 + 90 : 4$

- 690.** Yechishni ustun ko'rinishida yozing va ko'paytirishni tushuntirish bilan bajaring:

$$124 - 7 \quad 349 \cdot 2 \quad 215 \cdot 4 \quad 146 \cdot 6 \quad 119 \cdot 8$$

- 691.** $783 + 117$ | $910 - 596$ | $14 \cdot 6 : 7$ | $4 \cdot 16 : 8 + 24$
 $421 + 399$ | $8 \cdot 8 + 310$ | $40 \cdot 7 : 2$ | $4 \cdot 16 : (8 + 24)$

- 692.** Uchta brigada 1000 m shossega asfalt yotqizishdi. Agar uchinchi brigada 310 m ga, ikkinchi brigada esa ulardan 40 m ko'p yo'lga asfalt yotqizgan bo'lsa, birinchi brigada necha metrga asfalt yotqizgan?

693. Tushirib qoldirilgan amal ishoralarini shunday qo'yingki, natijada ifoda berilgan qiymatga teng bo'lsin:

$$80 * 16 * 5 = 0$$

$$90 * 18 * 2 = 10$$

$$94 * 94 * 81 = 81$$

$$36 * 19 * 3 = 93$$

$$72 * 9 * 8 = 1$$

$$60 * 8 * 7 = 4$$

694.

Qiymatini hisoblang va tekshirishni bajaring:

$$76 : 19$$

$$84 : 7$$

$$69 : 3$$

$$24 \cdot 4$$

$$18 \cdot 5$$

695.

$$4 \cdot 17 - 3 \cdot 21$$

$$88 : (74 - 63)$$

$$56 : 7 \cdot 3$$

$$8 \cdot 11 - 0 \cdot 13$$

$$91 : (61 - 48)$$

$$72 : 8 \cdot 1$$

696. Tasmaning qanday qismi bo'yalgan?

--	--

--	--	--	--

--	--	--	--

--	--	--	--	--

697. Tasma uzunligini o'lchang va uning to'rtdan bir qismini hisoblang.

--	--	--	--

- 1) 4 o'nlikni 9 ga ko'paytiring va topilgan ko'paytmaga 1 o'nlikni qo'shing; 8 o'nlikni 3 ga ko'paytiring va topilgan ko'paytmaga 2 o'nlikni qo'shing.
- 2) Yozuvni qarang va yechimni tushuntiring:

\times	2	6
	3	
	7	8
\times	3	4
	2	
	6	9
	9	4
	6	9
	7	8

Bunday tushuntiring:

Yozaman: ...

Birliklarni ko'paytiraman:

6 birlik \cdot 3 = 18 birlik = 1 o'nlik 8 birlik.
8 birlikni birliklar ostiga yozaman, 1 o'nlikni esa yodlab qolaman va o'nliklarni ko'paytirgandan keyin o'nliklarga qo'shaman.

O'nliklarni ko'paytiraman:

2 o'nlik \cdot 3 = 6 o'nlik.

Birliklarni ko'paytirishda hosil bo'lgan 1 o'nlikni qo'shaman: 6 o'nlik + 1 o'nlik = 7 o'nlik. 7 ni o'nliklar ostiga yozaman.

Javobni o'qiyman: ko'paytma 78 ga teng.

3) Ikkinchchi misolning yechilishini tushuntiring.


698. Ko'paytirishni tushuntirish bilan bajaring:

$$137 \cdot 2 \quad | \quad 29 \cdot 3 \quad | \quad 223 \cdot 4 \quad | \quad 19 \cdot 5 \quad | \quad 344 \cdot 2$$



699. Xat tashuvchi ertalab 350 ta xatni, kunduzi ertalabidan 35 ta kam xatni, kechqurun esa kunduzidan 112 ta kam xatni egalariga tarqatdi. Xat tashuvchi kechqurun nechta xat tarqatgan?

700. Berilgan teng yonli uchburchaklarni ikki guruhga ajrating. Birinchi va ikkinchi guruhga kiruvchi uchburchaklarning tartib raqamlarini yozing.



701. Bir juft paypoq 210 soʻm, roʼmolcha esa undan 3 marta arzon turadi. Roʼmolcha paypoqdan necha soʻm arzon?

702. $273 + 368$ $630 - 275$ $(17 - 8) \cdot 6$

 $431 + 179$ $307 - 243$ $(6 + 7) \cdot 5$


703. Tushuntirish bilan yeching:

$$318 \cdot 3 \quad 257 \cdot 3 \quad 149 \cdot 6 \quad 98 \cdot 4 \quad 85 \cdot 6$$

704. Har biri 20 m boʼlgan 4 oʼram pylonka sotib olishdi. Agar har bir issiqxonaga 18 m dan pylonka ketsa, shu oʼram 3 ta issiqxonaga yetadimi? 22 m dan ketsa-chi? 30 m dan ketsa-chi?

705. Temiryo'l ko'prigi 3 ta oraliqdan iborat. Birinchi oraliqning uzunligi 58 m, ikkinchi oraliq birinchi oraliqdan ikki marta qisqa, uchinchi oraliq esa birinchi oraliqdan ikki marta uzun. Butun ko'priking uzunligini toping.

706. Chizmada nechta kesmani ko'ryapsiz? Hamma kesmalarni o'lchang va ulardan har birining uzunligini yozing.



707. 1, 7, 8 raqamlaridan foydalanib eng katta va eng kichik uch xonali son tuzing va ularni yozing (raqamlar sonning yozuvida faqat bir marta ishtirok etsin). Tuzilgan sonlarning yig'indisi va ayirmasini toping. Yozuvida 8 raqami yuzliklarni ifodalovchi sonning tagiga chizing.

708. Sigir bir haftada 28 kg, echki esa undan 4 marta kam pichan yeydi. Sigir bilan echki bir haftada birgalikda qancha pichan yeydi?

709.

$$60 : 4 + 38$$

$$(37 + 18) : 11$$

$$2 \cdot 27 : 9$$

$$70 - 34 : 2$$

$$(63 + 24) : 29$$

$$3 \cdot 16 : 8$$

710. 120 o'quvchi sayohatga chiqdi. Katta avtobusga 40 o'quvchi o'tirdi, qolgan o'quvchilar 4 ta kichik avtobusga baravardan o'tirishdi. Har bir kichik avtobusga nechtadan o'quvchi o'tirgan?

711. $527 + 293$ $180 \cdot 4 : 6$ $411 - 9 \cdot 1$ $(7 + 0) \cdot 11$
 $601 - 349$ $150 \cdot 3 : 9$ $384 - 0 \cdot 6$ $8 : 8 + 88$

- 712.** Yog' solingan bochkaning massasi 45 kg, bo'sh bochkaning massasi esa 8 kg. Shunday 6 ta bochkada qancha yog' bo'ladi?

713. Uchdan bir qismi 18 mm, 2 sm bo'lgan kesma chizing.

- 714.** Qoldiqning har doim bo'luvchidan kichik bo'lishini yodda tutgan holda, qoldiqli bo'lishni bajaring.

54 : 7 31 : 4 61 : 9 53 : 6 75 : 8

- | | | |
|---|---|--|
| 715. $94 : 47$

$77 : 11$ | $230 + 13 \cdot 4$

$800 - 250 : 5$ | $280 + 646 - 250$

$750 - 320 - 200$ |
|---|---|--|

- 716.** Har bir doira necha qismga bo'lingan? Doiraning qanday qismi bo'yalgan? Uchdan bir qismi raqam bilan qanday yoziladi? To'rtdan bir qismi-chi? Beshdan bir qismi-chi?



- 1) 3 yuzlikni 2 ga ko'paytiring va topilgan ko'paytmani 1 yuzlikka qo'shing.
 - 2) Yozuvlarni qarang va yechilishini tushuntiring:

$$\begin{array}{r} \times 32 \\ \hline 128 \end{array} \qquad \begin{array}{r} \times 182 \\ \hline 396 \end{array}$$

- Bunday tushuntiring:
- **Yozaman:** ...
- **Birliklarni ko'paytiraman:** ...
- **O'nliklarni ko'paytiraman:** $8 \text{ o'nlik} \cdot 3 = 24$
- $\text{o'nlik} = 2 \text{ yuzlik}$ $4 \text{ o'nlik} \cdot 4 \text{ o'nlikni o'nliklar tagiga yozaman, } 2 \text{ yuzlikni eslab qolaman va yuzliklarni ko'paytirgandan keyin yuzliklarga qo'shaman.}$
- **Yuzliklarni ko'paytiraman:** $1 \text{ yuzlik} \cdot 3 = 3 \text{ yuzlik, o'nliklarni ko'paytirishda hosil bo'lgan } 2 \text{ yuzlikni qo'shaman: }$
- $3 \text{ yuzlik} + 2 \text{ yuzlik} = 5 \text{ yuzlik, } 5 \text{ ni yuzliklar tagiga yozaman.}$
- **Javobni o'qiyman:** ko'paytma 546 ga teng.

717. Ko'paytirishni tushuntirib bajaring:

$$172 \cdot 4 \quad 364 \cdot 2 \quad 293 \cdot 3 \quad 241 \cdot 4 \quad 31 \cdot 5$$

718. Inkubatorda jo'ja ochirish uchun har bir qutiga 100 tadan tuxum qo'yildi. Agar hali birinchi qutida 35 ta tuxum, ikkinchisida esa 19 ta tuxum ochib chiqmagan bo'lsa, bu ikki qutida nechta jo'ja ochib chiqqan?

719. Sayohatchilar 33 km yo'l bosishgandan keyin, o'tilganidan yana 25 km ortiq yo'l qoldi. Sayohatchilar hammasi bo'lib necha kilometr yo'l bosishlari kerak?

720. $227 \cdot 3$	$472 + 360$	$800 - 564$
$492 \cdot 2$	$645 + 355$	$472 - 99$

721. Tikuvchilik firmasida 3 kun 142 tadan, 2 kun 163 tadan palto tikildi. Tikuvchilik firmasida shu 5 kunda qancha palto tikilgan?

722. $438 + 195$ $28 - 7 \cdot 1$ $720 : 9$

$708 - 294$ $46 - 0 \cdot 8$ $540 : 6$

723. Amallarni bajaring:

$$\begin{array}{r|l} 60 \cdot 4 & 60 \cdot 4 + 20 \\ 240 : 6 & 260 : 2 - 90 \end{array} \quad \begin{array}{r|l} 60 \cdot 4 + 20 \cdot 3 & 280 : 7 \\ 240 : 6 + 80 + 2 & 630 : 7 \end{array}$$

724. Qoldiqqli bo'lishni bajaring:

$$47 : 7 \quad 54 : 8 \quad 20 : 6 \quad 29 : 3$$

725. 38 m tasmdan 5 ta bir xil bo'lak tasma kesib olishdi, shundan keyin yana 8 m tasma qoldi. Kesib olingan har qaysi bo'lakning uzunligi qancha?

726. Tenglamalarni yozing va ularni yeching:

1) Noma'lum sonni 9 ga bo'lamiz va 18 ga ega bo'lamiz.

2) 3 ni hosil qilish uchun 36 ni qanday songa bo'lish kerak?


3) 76 ni hosil qilish uchun qanday sonni 4 ga ko'paytirish kerak?

727. 1) Uchta katta idishning har birida 30 tadan, ikkita kichik idishning har birida esa 6 tadan nok bor. Bu idishlarda hammasi bo'lib nechta nok bor?

2) Shunday savol qo'yingki, masala quyidagicha yechilsin

$$30 \cdot 3 - 6 \cdot 2$$

- 728.** Bu shakllarda qanday umumiylilik bor? 4-shakl boshqalaridan nimasi bilan farq qiladi?



729. $280 : 7 \cdot 9$ $3 \cdot 26 - 27 : 9$ $(86 - 50) : 4$
 $400 : 8 \cdot 6$ $2 \cdot 38 + 69 : 23$ $(28 + 32) : 6$

- 730.** 40 ta rangli qalamni har birida 6 tadan qilib qutilarga solish kerak. Nechta quti kerak bo'ladi? Nechta qalam qoladi?

- 731.** 1) 3 ga bo'lganda qoldiqda 2 qoladigan bir nechta sonni ayting.
2) 4 ga bo'lganda qoldiqda 1; 2; 3; 0 qoladigan bir nechta sonni ayting.
3) 5 ga bo'lganda qoldiqda 3 qoldiq qoladigan bir nechta sonni ayting.

- 732.** 6 ta ro'molcha va 3 juft paypoq sotib olishdi. Ro'molchalarga qancha to'langan bo'lsa, paypoqlarga ham shuncha to'landi. Agar ro'molchaning bahosi 50 so'm bo'lsa, paypoqning bahosini toping.

733. Bir to'p matodan har biriga 3 m dan sarflab 30 ta bolalar sport kiyimi tikish mumkin. Agar kattalar sport kiyimi uchun 5 m dan mato ketadigan bo'lsa, shu matodan nechta kattalar sport kiyimi tikish mumkin?

734. 3 ga bo'lganda qoldiqda 0; 1; 2 qoladigan sonni yozing.

735. Teng tomonli uchburchakning perimetri 36 sm. Uning har bir tomonining uzunligi nimaga teng?

736. $428 \cdot 2$ $786 + 98$ $31 + 159$ $84 : 12 \cdot 9$
 $291 \cdot 3$ $102 + 456$ $814 - 79$ $85 : 17 \cdot 8$


737. Nima katta va qancha kattaligini aniqlang.
1) 127 va 5 sonlari ko'paytmasimi yoki 132 va 4 sonlari ko'paytmasimi?
2) 601 va 216 sonlari yig'indisimi yoki shu sonlar ayirmasimi?

738. Birinchi son 68, ikkinchi son esa undan 4 marta kichik. Shu sonlarning yig'indisi nimaga teng, ayirmasi nimaga teng?

739. $143 \cdot 6$ $539 + 267$ $80 + 714$ $910 - 160 : 4$
 $484 \cdot 2$ $635 + 165$ $521 - 47$ $350 + 80 \cdot 3$

740. Ifodalarni qarab chiqing va ularning yechimlarini og'zaki hisoblang:

$$189 \cdot (596 - 595) \qquad \qquad \qquad 75 \cdot 11 - 75$$
$$3 \cdot (999 + 1) \cdot 0 \qquad \qquad \qquad 64 \cdot 9 + 64$$

$$640 : 8 \cdot (57 \cdot 4 - 4 \cdot 57)$$

$$72 \cdot 5 + 28 \cdot 5$$

$$250 \cdot (399 \cdot 2 - 2 \cdot 399) \cdot 10$$

$$41 \cdot 7 + 41 \cdot 3$$

741.

2 kg bug'doy unidan 440 g qo'shimcha og'irlik hosil bo'ladi. Shunday 4 kg undan qancha qo'shimcha og'irlik hosil bo'ladi?

742.

Misollarni yeching va tekshiring:

$$72 - 47 \quad 95 : 19 \quad 47 + 38 \quad 32 \cdot 3$$

743.

Rasm daftari 90 so'm turadi. 450 so'mga nechta rasm daftari sotib olish mumkin?

1) $3 \cdot 6 = 6 \cdot 3 \quad 7 \cdot 4 = \square \cdot 7 \quad \square \cdot 8 = 8 \cdot 2$

2) Ko'paytmani ko'paytuvchilarining o'rinalarini almashtirish bilan hisoblang:

3 \cdot 215; 4 \cdot 132; 2 \cdot 327; 6 \cdot 129

744.

Sisternada 840 l sut bor edi. Undan har biriga 30 l dan qilib 7 ta bidonga sut quyildi. Sisternada necha litr sut qoldi?

745.

$$161 \cdot 5 \quad 87 + 96 \quad 573 - 356$$

$$294 \cdot 2 \quad 637 + 263 \quad 467 - 98$$

746.

Bir xil miqdorda pachkali tuz va soda sotib olindi. Tuzga 90 so'm, sodaga 120 so'm to'landi. Bir pachka tuz 30 so'm turadi. Bir pachka soda qancha turadi?

Mahsulotlar	Pachka narxi	Pachka miqdori	Qiymati
1 pachka tuz 1 pachka soda	30 so'm ?	Bir xil ?	90 so'm 120 so'm

747. Har qaysi shakl tomonlari uzunliklarining yig'indisini toping:



748. $300 \cdot 2$ $70 \cdot 8$ $10 \cdot 9$ $20 \cdot 3 + 50$
 $200 \cdot 4$ $90 \cdot 3$ $20 \cdot 6$ $40 \cdot 7 + 60$

749. Albomning har bir betiga 4 tadan 12 ta katta marka va har bir betiga 5 tadan 20 ta kichik marka yopishtirildi. Bu markalar albomning necha betini band qilgan?

750. 60 betli bir kitobni Po'lat 3 kunda, Umar esa 4 kunda o'qib bo'ldi. Bolalardan qaysinisi bir kunda ko'p va qancha ko'p o'qigan?

751.  $362 \dots 326$ $5 \text{ m } 08 \text{ sm} \dots 5 \text{ m } 8 \text{ dm}$
 $596 \dots 569$ $4 \text{ m } 50 \text{ sm} \dots 4 \text{ m } 5 \text{ dm}$

752. 12, 18, 24, 40, 54 sonlaridan 2 ga; 4 ga; 6 ga qoldiqsiz bo'linadiganlarini yozing.

753. $3 \cdot 172$ $4 \cdot 72$ $736 - 187$ $9 \cdot 6$ $0 : 12$
 $437 \cdot 2$ $9 \cdot 61$ $327 + 306$ $42 : 7$ $327 : 1$

754. 1) Har bir sonning uchdan birini toping: 15, 21, 30, 42, 51, 60.
2) Bir soatning oltidan bir qismi necha minut bo'ladi? To'rtidan bir qismi-chi? Uchdan bir qismi-chi? O'ndan bir qismi-chi? Beshdan bir qismi-chi?



755. Ko'paytirish jadvalidan foydalanib qoldiqli bo'lishni bajaring:

$$33 : 6$$

$$41 : 6$$

$$43 : 6$$

$$45 : 6$$

$$35 : 6$$

$$42 : 6$$

$$44 : 6$$

$$46 : 6$$

756. Kitob 320 so'm, daftar esa 40 so'm turadi. Agar Salim kitob va 2 ta daftar sotib olgan bo'lsa, u 500 so'mdan qancha qaytim oladi?

757. $a : 4, 7 \cdot b$ ifodalarning qiymatlarini toping:

a	40	36	32	28	24
b	4	5	6	7	8

758. $180 : 2 : 3$ $180 - 350 : 5$ $900 - 160 \cdot 4$
 $90 : 3 : 6$ $100 - 90 : 6$ $120 + 400 : 40$

759. Tushirib qoldirilgan sonlarni qo'ying:

 $40 : 9 = \square$ (4 qold.) $71 : 9 = 7$ (\square qold.)
 $57 : 8 = 7$ (\square qold.) $54 : 5 = \square$ (4 qold.)

760. Ko'paytirish to'g'ri bajarilganmi? Tekshirib ko'ring:

$$\begin{array}{r} \times 908 \\ \hline 816 \end{array} \quad \begin{array}{r} \times 225 \\ \hline 900 \end{array}$$

761. 36 l uzum sharbatini har biri 3 l li shisha bankalarga, 28 l olxo'ri sharbatini har biri 2 l li shisha bankalarga quyishdi. Quyidagilarni hisoblab nimani bilib olasiz?

$$36 + 28$$

$$3 - 2$$

$$36 : 3$$

$$36 : 3 + 28 : 2$$

$$36 - 28$$

$$3 + 2$$

$$28 : 2$$

$$28 : 2 - 36 : 3$$

- 762.** Karimning 6 ta 25 soʻmlik puli bor. U shu puliga 39 soʻmlik daftardan 2 ta sotib olishi mumkinmi?
- 763.** Bir chilangar bir kunda 45 ta, ikkinchisi 68 ta detalga ishlov beradi. Bu ikki chilangar 4 kunda nechta detalga ishlov beradi?

764.

1) Kesmani 2 marta orttiring:

2) Kesmani 3 marta kamaytiring.

765. 1) $327 \cdot 2$ $78 + 342$ $(570 - 30) : 6$
 $226 \cdot 3$ $893 - 76$ $(650 + 70) : 8$

 2) 35 ni 4 ga, 29 ni 3 ga boʻlganda chiqadigan qoldiqni toping.

Qoʼshimcha mashqlar

1. $30 \cdot 7$ $62 \cdot 7$ $140 \cdot 6$ $72 : 3$ $60 : 12$
 $70 \cdot 8$ $43 \cdot 6$ $190 \cdot 5$ $94 : 2$ $98 : 14$

2. $(350 - 110) : 8 \cdot 3$ $42 : 7 \cdot 8 : 2$
 $(120 + 230) : 5 \cdot 6$ $54 : 6 \cdot 7 : 3$

3. Qoldiqli boʼlishni bajaring:

$63 : 8$	$60 : 7$	$37 : 5$	$29 : 3$	$43 : 7$
$46 : 5$	$51 : 9$	$55 : 8$	$26 : 6$	$38 : 6$

4. $4 \text{ m } 05 \text{ sm} = \square \text{ sm}$ $308 \text{ sm} = \square \text{ m } \square \text{ sm}$
 $3 \text{ soʻm } 86 \text{ tiyin} = \square \text{ tiyin}$ $84 \text{ tiyin} = \square \text{ soʻm } \square \text{ tiyin}$

5. Tenglamalarni yeching:

$305 + x = 410$	$910 - x = 286$	$x : 15 = 5$
$x - 498 = 501$	$x \cdot 13 = 52$	$70 : x = 14$

6. Jadvalga ko'ra masala tuzing va uni yeching:

1 yashikning massasi	Yashiklar soni	Hamma yashikning massasi
8 kg	5 yashik	? ?
10 kg	3 yashik	? ?

7. Ushbu reja bo'yicha masala tuzing:

- 1) Nechta ko'ylak tikishdi?
- 2) Nechta kastum tikishdi?
- 3) Kastumlarga qaraganda nechta ko'ylak ortiq tikilgan?

8. Do'konda 362 ta ruchka, undan 71 ta ortiq o'chirg'ich, o'chirg'ichdan 127 ta ortiq qalam sotildi. Do'konda nechta qalam sotilgan?





9. Har biri 6 kg dan qilib yashiklarga joylangan 90 kg pomidor sotish uchun ikkita do'konga keltirildi. Bir do'konga 10 yashik pomidor berildi. Ikkinchini do'konga necha yashik pomidor berilgan?



10. Tomonlari 8 sm va 6 sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchakni ikkita teng qismga shunday bo'lingki, har qaysi qism to'g'ri to'rtburchak bo'lsin; har qaysi qism uchburchak bo'lsin. To'g'ri to'rtburchak tomonlari

uzunliklarining yig'indisini va uchburchak tomonlari uzunliklarining yig'indisini toping.

11. Doira kvadratning ichida joylashgan qilib chizing.
12. Uchburchak va to'g'ri to'rtburchakni shunday chizingki:
 - a) to'g'ri to'rtburchak uchburchak ichida bo'lsin;
 - b) uchburchak to'g'ri to'rtburchakdan tashqarida bo'lsin;
 - d) uchburchak to'g'ri to'rtburchak ichida bo'lsin.
13. AB kesma tomon bo'lgan barcha shakllarni ayting:



14. C burchakka ega bo'lgan hamma shakllarni ayting:



Bir xonali songa bo'lish

$$766. \quad 24 : 8 \\ 44 : 22$$

$$35 : 5 \\ 60 : 20$$

$$48 : 8 \\ 46 : 2$$

$$63 : 9 \\ 84 : 4$$



- 1) $76 = \dots$ o'nlik ... birlik
 $384 = \dots$ yuzlik ... o'nlik ... birlik
 2) $69 : 3 = 60 : 3 + 9 : 3 = 20 + 3 = 23$
 $684 : 2 = 600 : 2 + 80 : 2 + 4 : 2 =$
 $= 300 + 40 + 2 = 342$

Misolni ustun qilib yozish qulay.
 Oldin yuzliklar, keyin o'nliklar va
 nihoyat, birliklar bo'linadi.

6	8	4	2
-	6	8	2
-	6	8	2
-	6	8	2
-	6	8	2

767. Hisoblashlarni tugating:

$\begin{array}{r} 48819 \\ - 4 \\ \hline 8 \end{array}$	$\begin{array}{r} 3963 \\ - 3 \\ \hline 6 \end{array}$
$\begin{array}{r} 722 \\ - 7 \\ \hline 2 \end{array}$	$\begin{array}{r} \cdot & \cdot & \cdot & \cdot \\ - & - & - & - \\ \cdot & \cdot & \cdot & \cdot \\ - & - & - & - \\ \cdot & \cdot & \cdot & \cdot \\ - & - & - & - \\ 0 & & & 0 \end{array}$

768. 1) Misollarni ustun qilib yozing va bo'lishni tushun-tirib bajaring:

$$824 : 2 \quad 484 : 4 \quad 966 : 3 \quad 999 : 9.$$

2) Bo'lishni ko'paytirish bilan tekshiring.

769. Tokar 96 ta detalni eski dastgohda 6 soatda tayyorlar edi, yangi dastgohda esa 4 soatda tayyorladi. U bir soatda nechta ko'p detal tayyorlay boshladi?

770.



$$84 : 2 \dots 80 : 2$$

$$19 \cdot 6 \dots 19 \cdot 7$$

$$200 : 4 \dots 200 : 5$$

$$60 \cdot 5 \dots 60 \cdot 3$$

771. *AB* kesma butun kesmaning yarmiga teng. Butun kesmaning uzunligi qancha? Daftaringizga bu kesmani chizing:



772. Bazaga 4 t karam keltirildi. Bu keltirilishi kerak bo'lgan karamlarning yettidan bir qismini tashkil etadi. Bazaga hammasi bo'lib qancha karam keltirilishi kerak?

773.	$721 - 384$	$840 : 7$	$294 \cdot 2$	$48 : 8 \cdot 80$
	$268 + 157$	$960 : 3$	$156 \cdot 3$	$27 : 9 \cdot 90$

774. 4 qop kartoshkaning massasi 200 kg. 1000 kg kartoshkani joylash uchun shunday qoplardan nechta kerak bo'ladi?

775. Perimetri bir xil: 1 dm 4 sm bo'lgan shunday ikkita to'g'ri to'rtburchak chizingki, ulardan birining bo'yи 4 sm, ikkinchisining bo'yи 5 sm bo'lsin.

776.

- Bitta g'ozdan 230 g, xo'rozdan 190 g kam pat olindi. Hammasi bo'lib qancha pat olingan?

777.	$650 - 296$	$248 + (148 - 80)$	$640 : 8 : 4$
	$220 - 162$	$730 - 90 - 90$	$640 : 8 \cdot 9$



Bo'lishni, boshqa amallar kabi belgidan foy-dalanib yozma bajarish mumkin.

1) Bo'lish qanday yozilgan va bajarilganini tushuntiring: $9 : 4$ $17 : 5$ $27 : 3$ $38 : 7$

$\frac{9}{8} : \frac{4}{2} = \frac{9}{4}$	$\frac{17}{15} : \frac{5}{3} = \frac{17}{5}$	$\frac{27}{27} : \frac{3}{3} = \frac{27}{3}$	$\frac{38}{35} : \frac{7}{3} = \frac{38}{7}$
$1\frac{1}{4}$	$3\frac{2}{5}$	9	$5\frac{3}{7}$

2) Har qaysi misolda bo'linuvchi, bo'luvchi, bo'linma va qoldiqni ayting.

778. Misollarni ustun qilib yozing va bo'lishni bajariring:
 $19 : 2$ $34 : 5$ $67 : 8$ $89 : 9$

779. Masalalar nimasi bilan o'xshash va nimasi bilan farq qiladi:

1) 24 ta yashil, undan 16 ta ko'p qora tugma sotib olindi. Qora tugmalarni 8 tadan qilib xaltachalarga solishdi. Nechta xaltacha kerak bo'ldi?

2) 24 ta yashil, undan 16 ta ko'p qora tugma sotib olishdi. Hamma tugmalarni 8 tadan qilib xaltachalarga solishdi. Nechta xaltacha kerak bo'lgan?

780.

Tasmaning to'rtdan bir qismining uzunligini o'lchang va butun tasma uzunligini hisoblang. Natijani o'lhash bilan tekshiring (millimetrlarda o'lchang).



781. $608 + 299$ $840 : 6$ $310 \cdot 3$ $49 : 7 \cdot 50$

782. $472 + 385$ $610 - 241$ $182 \cdot 3$
 $734 - 536$ $620 + 196$ $224 \cdot 4$

783. $48 : 2 \dots 46 : 2$ $36 : 3 \dots 36 : 4$
 $60 : 3 \dots 90 : 3$ $55 : 5 \dots 66 : 6$

- 1) Misolning yechilishini va uning tushuntirilishini qarang:

$\begin{array}{r} 764 \\ \times 2 \\ \hline 1528 \end{array}$	$\begin{array}{r} 382 \\ \times 2 \\ \hline 764 \end{array}$	$\begin{array}{r} 5193 \\ \times 3 \\ \hline 1773 \end{array}$
---	--	--

- Tushuntirish: 764 ni 2 ga bo'lish kerak.
- Yuzliklarni bo'lamiz:** 764 sonida 7 ta yuzlik bor.
- Bo'lamiz:** $7 : 2 = 3$ (yuzlik) — bo'linmada bo'ladi.
- Ko'paytiramiz:** $3 \cdot 2 = 6$ (yuzlik) — bo'ldik.
- Ayiramiz:** $7 - 6 = 1$ (yuzlik) — yana bo'lish kerak.
- O'nliklarni bo'lamiz:** 1 yuzlik va 6 o'nlik 16 o'nlikka teng.
- Bo'lamiz:** $16 : 2 = 8$ (o'nlik) — bo'linmada bo'ladi.
- Ko'paytiramiz:** $8 \cdot 2 = 16$ (o'nlik) — bo'ldik.

- **Ayiramiz:** $16 - 16 = 0$. Qoldiq qolmadı.
 - **Birliklarni bo'lamiz:** ular 4 ta.
 - **Bo'lamiz:** $4 : 2 = 2$ (birlik) — bo'linmada bo'ladi.
 - **Ko'paytiramiz:** $2 \cdot 2 = 4$ (birlik) — bo'ldik.
 - **Ayiramiz:** $4 - 4 = 0$. Qoldiq qolmadı.
 - **Bo'linmani o'qiyimiz:** bo'linma 382 ga teng.
 - 2) Tekshirish qanday bajarilganini tushuntiring.
 - 3) Ikkinci misolda bo'lish qanday bajarilganini tushuntiring va tekshirishni baiaring.

784. Misollarni tushuntirish bilan yeching; bunda nuqta-
lar o'rniga tegishli raqamlarni qo'ying:

Qoldiq har doim bo'luvchidan kichik bo'ladi.

785. 1) Bo'lishni ustun qilib yozib, bo'linmani hisoblang:

726 : 2 968 : 4 655 : 5 756 : 3

2) Bo'lishni ko'paytirish bilan tekshiring.

786. Bidonda 24 l, bankada esa bidondagidan 8 marta kam sut bor. Shunday 3 ta bankada nechta litr sut bor?

- 787.** Har bir tengsizlik uchun a ning shunday ikkita qiymatini topingki, bu qiymatlarda tengsizlik to‘g‘ri bo‘lsin:

$$100 - a > 46$$

$$a \cdot 8 < 39$$

$$a : 7 > 6$$

788.

$$209 \cdot 4$$

$$(673 - 499) \cdot 3$$

$$(500 - 0) : 5$$

$$304 \cdot 3$$

$$(45 + 87) \cdot 6$$

$$(65 + 0) \cdot 3$$

- 789.** Agar sonning to‘rtidan bir qismi 40 ga teng bo‘lsa, bu sonni toping.

- 790.** 1) Yechilishini tushuntiring:

$$\begin{array}{r} 645 \\ \hline 6 \quad | \quad 3 \\ \underline{-} \quad 04 \\ \hline \quad \quad 3 \\ \underline{-} \quad 15 \\ \hline \quad \quad 15 \\ \underline{-} \quad 0 \end{array}$$

- 2) Og‘zaki tushuntirishlar bilan yeching:

$$968 : 4$$

$$496 : 2$$

$$755 : 5$$

- 791.** 29 ta kitobni ta‘mirlash kerak edi. 4 ta bola baravardan ta‘mirladi. Yana 9 ta kitob qoldi. Har bir bola nechtadan kitobni ta‘mirlagan?

- 792.** Noma'lumni bo‘lish bilan topiladigan tenglamalarni ko‘chirib yozing va ularni yeching:

$$x \cdot 7 = 140$$

$$4 \cdot x = 200$$

$$740 - x = 530$$

$$x : 7 = 140$$

$$x : 5 = 200$$

$$38 \cdot x = 76$$

793. $577 - 298$

$$623 - 497$$

$$484 \cdot 2$$

$$4 \cdot 19$$

$$734 + 226$$

$$620 - 539$$

$$966 : 3$$

$$18 \cdot 6$$

794.

Tikuvchi 8 ta paltoga 4 tadan tugma va 5 ta paltoga 6 tadan tugma qadadi. Tikuvchi hammasi bo'lib nechta tugma qadagan?

795.

$$18 \cdot 7 + 310$$

$$1000 - 17 \cdot 5$$

$$19 \cdot 6 - 27$$

$$16 \cdot 7 + 400$$

$$1000 - 14 \cdot 7$$

$$8 \cdot 3 - 24$$

796. a va b ning qanday qiymatlarida quyidagi tengsizliklar to'g'ri bo'ladi:

$$a \cdot 8 < 62$$

$$b + 18 < 20$$



1) Bo'linmani hisoblang: $978 : 3$.

Bunday tushuntiring: 978 ni 3 ga bo'lish kerak.

Yuzliklarni bo'lamiz: ...

O'nliklarni bo'lamiz: ular 7 ta.

Bo'lamiz:

$7 : 3 = 2$ (o'nlik) —

bo'linmada bo'ladi.

Ko'paytiramiz:

$2 \cdot 3 = 6$ (o'nlik) — bo'ldik.

Ayiramiz:

$7 - 6 = 1$ (o'nlik) — yana bo'lish kerak.

Birliklarni bo'lamiz:

1 o'nlik 8 birlik 18 birlikka teng.

$18 : 3 = 6$ (birlik) — bo'linmada bo'ladi.

Tushuntirishni davom ettiring.

2) Bo'lishni ko'paytirish bilan tekshiring.

9	7	8	3	
9			3	2
	7			6
	6		7	8
		7	8	1
		8	0	

797. Bo'linmani hisoblang:

$$458 : 2 \quad 864 : 4 \quad 238 : 2 \quad 651 : 3 \quad 657 : 3$$

798. Maktab yer maydonidan 76 kg sabzi, sabzidan 3 marta ortiq karam, karamdan 2 marta kam piyoz yig'ib olindi. Qancha piyoz yig'ib olingan?

799. Amallarni yozma bajarib, tenglamalarni yeching:

$$x \cdot 3 = 264 \quad x \cdot 5 = 225 \quad x \cdot 4 = 776$$

800. Amallarni yozma bajaring:

$$\begin{array}{lll} 951 : 3 & 836 : 2 & 496 : 4 \\ 948 : 4 & 880 : 5 & 994 : 7 \end{array}$$

801. Sog'lom odamning yuragi bir minutda 75 ta uradi. Yurak 6 minutda nechta uradi?



802. 1) Masalani yeching.

Bayram konsertida maktab xori qatnashdi. Bolalar 4 qator bo'lib saflanishdi. Har bir qatordan 8 tadan qiz bola va 6 tadan o'g'il bola joy oldi. Xordagi bolalar hammasi bo'lib nechta?

2) Yuqoridagi masalaning yechilishidan foydalanib, xordagi o'g'il bolalar qiz bolalardan nechta kamligini toping. O'g'il bolalar qiz bolalardan necha marta kam?


803. Noma'lumni ko'paytirish bilan topiladigan tenglamalarni ko'chirib yozing va ularni yeching:

$$x \cdot 3 = 270 \quad x \cdot 7 = 120 \quad 260 : x = 13$$

$$x : 3 = 270 \quad x : 7 = 120 \quad x : 15 = 40$$

804. Chizmadan hamma uchbur-chaklarni toping.

- 1) turli tomonli uchburchaklarning;
- 2) teng yonli uchburchaklarning nomlarini yozing.



805. 1) 90 ni 63 ta kamaytiring va natijani 4 marta orttiring; 38 ta orttiring.
2) 56 va 4 sonlari bo'linmasini 3 marta orttiring; 47 ta orttiring.

806. Ko'paytirishni bajaring va bo'lish bilan tekshiring:

$$34 \cdot 2 \quad 5 \cdot 18 \quad 300 \cdot 3 \quad 90 \cdot 4$$

807. Maktab maydoniga 30 kg kartoshka, kartoshkadan 5 marta kam makkajo'xori, kartoshka va makkajo'xori birgalikda qancha bo'lsa, undan 9 marta kam mosh ekildi. Maydonga qancha mosh ekilgan?

808. Hisoblashlardagi xatoliklarni toping va tushuntiring. To'g'ri yechishni yozing:

$$\begin{array}{r} 834 \\ - 6 \\ \hline 258 \\ - 23 \\ \hline 21 \\ - 24 \\ \hline 0 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 784 \\ - 4 \\ \hline 191 \\ - 38 \\ \hline 36 \\ - 36 \\ \hline 4 \\ - 4 \\ \hline 0 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 865 \\ - 5 \\ \hline 193 \\ - 36 \\ \hline 35 \\ - 15 \\ \hline 15 \\ - 15 \\ \hline 0 \end{array}$$

809. Qiymatini hisoblang va tekshirishni bajaring:

$$528 : 4 \quad 915 : 5 \quad 777 : 3 \quad 952 : 4$$

810. Gul do'koniga 468 ta lola keltirildi. Ertalab 243 ta, kunduzi esa 114 ta lola sotildi. Sotish uchun yana qancha lola qoldi?

811. Bir bolada rassomlar haqida 36 ta va yozuvchilar haqida 27 ta marka bor edi. Bola o'z markalarini har bir betga 9 tadan qilib albomga yopishtirdi. Hamma marka necha betni egallagan?

812. Parrandachilik fermasida 728 ta tovuq, tovuqlarga qaraganda 4 marta kam kurka, kurkalarga qaraganda 3 marta ortiq o'rdak bor? Fermada qancha o'rdak bor?

Yechish:

1) $728 : 4 = 182$ (kurka)

2) $182 \cdot 3 = 546$ (o'rdak)

$$\begin{array}{r} \times 182 \\ \times 3 \\ \hline 546 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 728 \\ - 4 \\ \hline 32 \\ - 32 \\ \hline 8 \\ - 8 \\ \hline 0 \end{array}$$


Javob: 546 ta o'rdak.

Har bir amalni bajarib, nimani bilib oldingiz?

813. Qiymatini hisoblang va tekshirishni bajaring:

$$269 + 357 \quad 612 - 475 \quad 393 + 288 \quad 961 - 534$$

: 814. Berilgan shakllarning yuzlarini turli usullar bilan toping:



815. Bir ustunga bo'lish bilan yechiladigan tenglamalarni, ikkinchi ustunga ko'paytirish bilan yechiladigan tenglamalarni ko'chirib yozing.

Tenglamalarni yeching:

$$\begin{array}{llll} x \cdot 15 = 75 & x : 13 = 65 & 17 \cdot x = 68 & 80 : x = 20 \\ 84 : x = 12 & 21 \cdot x = 42 & 27 \cdot x = 91 & x \cdot 14 = 42 \end{array}$$

816. Mashinaga har biriga 20 l dan benzin solingan 8 ta kanister ortildi. Benzinning bir qismi garajga olib ketilgandan so'ng mashinada 3 ta kanister qoldi. Garajga necha litr benzin olib kelingan? Masalani ikki usul bilan yeching.

817. Qo'shishni ayirish bilan tekshiring:

$$484 + 345 \quad 273 + 398 \quad 521 + 472 \quad 621 + 296$$

818. Avtobus saroyi 14 ta katta va ulardan 3 marta ko'p kichik avtobusni qatnovga chiqardi. Katta avtobuslarga qaraganda qancha ko'p kichik avtobus qatnovga chiqarilgan?

819.

Hisoblang:

c	0	160	270	100	120	140	300
k	350			5		7	
c · k		320			240		
c : k			90				100

820. Kesmaning uchdan bir qismi 4 sm ga teng. Shu kesmani chizing. Kesmaning uzunligini detsimetr va santimetrlarda ifodalang.

821. C ning shunday uchta qiymatini aytingki, $c : 3 > 4$ tengsizlik to'g'ri bo'lisin.

1) Yozuvlarni qarang va tushuntirishni oxiriga yetkazing:

Tushuntirish: 276 ni 4 ga bo'lish kerak.

Yuzliklarni bo'lamiz:

276 sonida 2 ta yuzlik bor.

2 yuzlikni 4 ga yuzliklar chiqadigan qilib bo'lib bo'l-maydi.

O'nliklarni bo'lamiz: 276

sonida 27 ta o'nlik bor.

Bo'lamiz:

$27 : 4 = 6$ (o'nlik) — bo'linmada bo'ladi.

Ko'paytiramiz: $6 \cdot 4 = 24$ (o'nlik) — bo'ldik.

Handwritten long division of 276 by 4 on a grid. The quotient is 69, the remainder is 0.



- **Ayiramiz:** $27 - 24 = 3$ o'nlik) — yana bo'lish kerak.
- **Birliklarni bo'lamiz:** 3 o'nlik va 6 birlik 36 birlikni tashkil qiladi.
- **Bo'lamiz:** $36 : 4 = 9$ (birlik) — bo'linmada bo'ladi.
- Tushuntirishni davom ettiring.
- 2) Ikkinchi misolning yechilishini tushuntiring va tekshirishni bajaring.

- 822.** Bo'linmani hisoblang: $198 : 3$, $736 : 8$.
- 823.** Usta 8 soat, shogirdi 6 soat ishladi. Usta 424 ta, shogirdi 216 ta detal tayyorladi. Shogird 1 soatda ustasidan nechta kam detal tayyorladi?
- 824.** $130 \cdot 0 + 36$ $458 \cdot 1 - 356 \cdot 0$ $0 \cdot 9 + 8$
 $570 - 69 \cdot 0$ $285 \cdot 1 + 472 : 1$ $7 \cdot 1 + 7$
- 825.** Kvadrat tomonlari uzunliklarining yig'indisi 32 sm. Shu kvadrat bir tomonining uzunligi qancha?
- 826.** $684 : 9$ $595 : 5$ $67 \cdot 8$ $57 + 423$
 $282 : 3$ $723 : 3$ $32 \cdot 9$ $736 - 19$
- 827.** O'quvchilar 896 kg behi terishdi. Ular bu behilarning yarmini 8 kg dan qilib yashiklarga solishdi. Masalaga savol qo'ying va uni yeching.

828. Yechishni tushuntiring:

$\begin{array}{r} 1593 \\ - 1513 \\ \hline 9 \end{array}$	$\begin{array}{r} 2877 \\ - 2847 \\ \hline 0 \end{array}$
---	---

829. Tushuntirish bilan yeching:

$$305 : 5$$

$$759 : 3$$

$$749 : 7$$

$$248 : 4$$

$$846 : 6$$

$$928 : 8$$

830. Tikuv sexiga birinchi marta 20 m, ikkinchi marta undan 3 marta ortiq chit keltirishdi. Keltirilgan hamma chitdan ko'yylaklar tikildi. Har bir ko'yylakka 4 m dan chit ketdi. Hammasi bo'lib nechta ko'yylak tikilgan?

831.

c	15	98	0	65	136
d	97		360		
$c + d$	217		314	340	

a	160		480	265
b	90	78	0	
$a - b$		34		89

$$963 : 3$$

$$984 : 4$$

$$801 : 9$$

$$71 \cdot 9$$

$$462 : 7$$

$$648 : 8$$

$$546 : 6$$

$$383 \cdot 2$$

833. Misolning yechilishini va tekshirishni tushuntiring:

$$\begin{array}{r} 546 \\ \hline 4 \quad | \quad 2 \\ \underline{-} \quad 4 \quad \quad 273 \\ \underline{-} \quad 14 \\ \underline{\quad 14 \quad} \\ \quad - 6 \\ \quad \underline{6} \\ \quad 0 \end{array}$$

Tekshirish:

$$\begin{array}{r} 273 \\ \times \quad 2 \\ \hline 546 \end{array}$$

- 834.** Bo'lishni bajaring va natijani tekshiring:

728 : 8	639 : 9	655 : 5	1000 : 2
576 : 6	147 : 7	684 : 9	1000 : 4

835. Bir to'p gazlamadan oldin 35 m, keyin undan 5 marta kam gazlama qirqib olindi. Shundan keyin to'pda 4 m gazlama qoldi. To'pda necha metr gazlama bo'lgan?

836. $47 \text{ dm} = \square \text{ m } \square \text{ dm}$ $34 \text{ sm} = \square \text{ dm } \square \text{ sm}$
 $58 \text{ dm} = \square \text{ dm } \square \text{ sm}$ $56 \text{ dm} = \square \text{ m } \square \text{ sm}$

837. 896 sonining yarmini, 756 sonining uchdan birini, 940 sonining to'rtdan bir qismini toping.

838. Hisoblang va tekshiring:

838. Hisoblang va tekshiring:

a	160		480	265	931		600		784	
b	90	78	0			215		0		320
$a - b$		34		89	97	328	12	999	130	640

839. 462 : 7 648 : 8 546 : 6 383 · 2



- ## 840. Bo'linma va qoldiqni toping:

7:2

13 : 3

56 : 9

60 : 7

- Rejadan foydalanib, misollar-ning yechilishlarini tushuntiring;
 - Yuzliklarni bo'lamani
 - Bo'lamani: ...
 - Ko'paytiraman: ...
 - Ayiraman: ...

$$\begin{array}{r}
 6687 \\
 \times 167 \\
 \hline
 40187
 \end{array}$$

- O'nliklarni bo'laman
- Bo'laman: ...
- Ko'paytiraman: ...

- Ayiraman: ...
- Birliklarni bo'laman
- Bo'laman: ...
- Ko'paytiraman: ...
- Ayiraman: ...
- Javobni o'qiyman:

9	2	0	5
5			7
9	2		8
9	0		9
2	0		0
2	0		0
			0

841. $925 : 5$ $460 : 2$ $702 : 3$ $616 : 4$

842. Temiryo'l orqali uch kunda stansiyadan 480 t yuk jo'natish kerak. Birinchi kuni 200 t yuk jo'natildi, bu ikkinchi kuni jo'natilgandan ikki marta ko'p. Uchinchi kuni necha tonna yuk jo'natilgan?

843. Agar sutka boshidan minut mili 6 ta to'liq va yana chorakta aylanib chiqsa, soat qanday vaqt ni ko'rsatadi?

844. Tenglamalarni yeching:

$$56 : x = 7 \quad x \cdot 9 = 63 \quad x : 8 = 9 \quad 4 \cdot x = 32$$

845. $374 \cdot 2$ $78 + 637$ $743 - 64$ $68 : 4 - 9$


 $8 \cdot 61$ $563 + 44$ $159 - 77$ $90 - 17 \cdot 4$

846. 6 yuzlik va 9 birlik necha o'nlikdan iborat? 3 o'nlik va 6 birlik necha birlikdan iborat?

847. Tikuvchilik firmasida 390 m drap bor edi. Uning beshdan bir qismidan bolalar paltosi, qolganidan

kattalar paltosi tikildi. Har bir kattalar paltosiga 3 m dan gazlama ketdi. Nechta kattalar paltosi tikilgan?

- 848.** Shakllarning yuzlarini taqqoslang. Har bir shakl-dagi teng kvadratlar sonini sanang:



- 849.** Ifodalarni yozing va ularning qiymatlarini toping.

- 1) 250 va 4 sonlari ko'paytmasini 100 marta kamaytiring.
- 2) 490 va 7 sonlari bo'linmasini 10 marta orttiring.

850.

$$885 : 5$$

$$954 : 6$$

$$564 : 4$$

$$952 : 4$$

$$536 : 4$$

$$471 : 3$$

$$296 : 2$$

$$794 : 2$$

- 851.** Jadvalga qarab masala tuzing va uni yeching:

Bir soatda tayyorlandi	Ishga ketgan vaqt	Hammasi bo'lib tayyorlandi
17 ta asbob	6 soat	?
15 ta asbob	6 soat	?



852. $x + 6 = 180$ $x \cdot 3 = 270$ $x : 4 = 160$

853. Har bir bo'linmada qancha raqam bo'ladi: $882 : 7$;
 $648 : 8$; $654 : 6$; $948 : 4$; $294 : 3$?

854. Bo'lishni tushuntirish bilan bajaring va ko'paytirish bilan tekshiring:

$$114 : 6 \quad 945 : 3 \quad 504 : 4 \quad 1000 : 8$$

855. Ikki shahardan bir-biriga qarab ikki poyezd yo'lga chiqdi. Biri uchrashguncha 279 km, ikkinchisi 3 marta kam yo'l yurdi. Shaharlar orasidagi masofa qancha?

856.

Do'konga 160 kg mandarin olib kelindi. Har birida 8 kg dan bo'lgan bir nechta yashik tushirilgandan keyin, mashinada yana 40 kg mandarin qoldi. Necha yashik mandarin tushirilgan?

857. $325 : 5$ $711 : 3$ $(318 + 153) \cdot 2$

 $470 : 5$ $915 : 3$ $(752 - 598) \cdot 3$

858. Tenglamalarni yeching:

$$x + 5 = 200 \quad x \cdot 5 = 200 \quad x : 5 = 200$$

859. Bo'lishni bajaring va natijani ko'paytirish bilan tekshiring:

$$464 : 4 \quad 639 : 3 \quad 256 : 4 \quad 675 : 9 \quad 690 : 6$$

860. Do'konga gazeta olib kelindi. Tushlikkacha 220 ta gazeta sotildi va sotilganiga qaraganda 5 marta kam gazeta qoldi. Nechta gazeta olib kelingan?

861.


 $50 \text{ sm} * 5 \text{ dm}$

$40 : 1 * 40 : 1$


 $3 \text{ dm} * 2 \text{ dm} 9 \text{ sm}$

$7 : 8 * 7 : 7$

862. $a = 4, a = 7, a = 1, a = 0$ bo'lganda $19 \cdot a$ ifodaning qiymatini toping.



Qo'shimcha mashqlar

1. Tenglamalarning to'g'ri yechilganligini tekshiring:

$100 - x = 70$

$x : 9 = 4$

$56 : x = 8$

$x = 30$

$x = 36$

$x = 7$

2. $7 \text{ m } 4 \text{ dm} = \square \text{ dm}$ $4 \text{ so'm } 09 \text{ tiyin} = \square \text{ tiyin}$
 $5 \text{ m } 08 \text{ sm} = \square \text{ sm}$ $8 \text{ so'm } 70 \text{ tiyin} = \square \text{ tiyin}$

3. $800 + 50 - 1$ $735 - 5 - 1$ $700 + 54$
 $620 - 20 + 1$ $200 + 99 + 1$ $643 - 600$

4. Ifodalarni yozing va ularning qiymatlarini hisoblang:
 91 sonidan 16 va 3 sonlarining ko'paytmasini ayirish.
 48 soniga 80 va 16 sonlarining bo'linmasini qo'shish.
 100 va 36 sonlarining ayirmasini 16 ga bo'lish.
 7 va 5 sonlarining yig'indisini 7 ga ko'paytirish.

5. Bo'linma va qoldiqni toping:

$81 : 6$

$38 : 4$

$78 : 9$

$56 : 20$

$43 : 7$

$81 : 5$

$64 : 30$

$70 : 40$

6. $163 \cdot 4 - 431$ $628 - 38 \cdot 4$ $272 : 4$
 $278 \cdot 3 - 526$ $935 - 93 \cdot 5$ $456 : 8$
 $27 \cdot 6 + 338$ $809 - 76 \cdot 8$ $616 : 7$



7. 69 l sutdan 3 kg sariyog' olish mumkin. 92 l sutdan qancha sariyog' olish mumkin?

8. Rasmda hammasi bo'lib nechta uchburchak, nechta to'rtburchak bor?



9. Doiraviy misollarni yeching:



$$460 - 239$$

$$390 - 165$$

$$225 + 235$$

$$363 + 27$$

$$221 + 683$$

$$904 - 541$$

10. Har bir tengsizlik uchun a ning shunday ikkita qiymatini topingki, bu qiymatlarda tengsizlik to'g'ri bo'l sin:

$$40 - a > 26$$

$$a \cdot 8 < 33$$

$$a : 7 > 8$$

Siz o'quv yili oxirida 1—24- topshiriqlarga o'xshash topshiriqlarni, albatta bajara olishingiz kerak:

1. 894 dan 903 gacha bo'lgan sonlarni yozing.

2. 6 yuzlik va 8 o'nlik; 5 yuzlik va 4 o'nlik 1 birlik; 7 yuzlik va 8 birlikdan iborat sonni yozing.

3. Yig'indini bitta son bilan almashtiring:

$$300 + 70 + 4$$

$$900 + 5$$

$$100 + 40$$

4. Javoblarini ayting:

a) $9 \cdot 6$

$3 \cdot 8$

$7 \cdot 8$

$64 \cdot 8$

$32 \cdot 4$

$6 \cdot 7$

$1 \cdot 9$

$24 : 6$

$27 : 9$

$54 : 6$

$$\begin{array}{llll} \text{b)} & 70 \cdot 5 & 20 \cdot 9 & 4 \cdot 90 \\ & 40 \cdot 4 & 10 \cdot 8 & 3 \cdot 60 \end{array} \quad \begin{array}{lll} 250 : 5 & 810 : 9 \\ 420 : 6 & 540 : 6 \end{array}$$

5. Tenglamalarni yeching:

$$6 \cdot x = 720$$

$$630 : x = 7$$

$$4 \cdot x = 160$$

$$420 : x = 6$$

6.  60 sm ... 6 dm 60 · 1 ... 60 : 1
 5 dm ... 4 dm 8 sm 80 · 4 ... 80 · 3

7. Sport maydonida 25 o'quvchi shug'ullandi. Maydon-dan bir necha o'quvchi ketgandan keyin unda 17 o'quvchi qoldi. Maydondan nechta o'quvchi ketgan?
8. Uchinchi sinf o'quvchilari 8 ta tuvakka gul o'tqa-zishdi. Bu ular bajarishi kerak bo'lgan ishning to'rtadan bir qismi. Bolalar qancha tuvakka gul o'tqazishlari kerak?
9. 45 ta qiz bola va ulardan 2 marta ortiq o'g'il bola shaxmat o'ynashni o'rganishmoqda. Qancha o'g'il bola shaxmat o'ynashni o'rganmoqda?
10. 18 ta qalamni har birida 6 tadan qilib qutilarga solindi. Qalamlarni solish uchun nechta quti kerak bo'lgan?
11. Otasi 40 yoshda, buvasi 61 yoshda. Buvasi ota-sidan necha yosh katta?
12. Yosh tabiatshunoslar 72 kg bodring yetishtirishdi. Hamma bodringni ular har biriga baravardan 8 kg

qilib yashiklarga solishdi. Ularga nechta yashik kerak bo'lgan?

13. Qizi 7 yoshda, onasi undan 4 marta katta. Onasi necha yoshda?

14. $86 + 829$ | $932 - 83$ | $129 + 490$ | $560 - 128$
 $682 + 21$ | $169 - 88$ | $207 + 354$ | $765 - 327$

15. Amallarni bajaring:

$80 : 5$	$37 \cdot 1$	$84 \cdot 6$
$640 : 8$	$0 \cdot 25$	$91 : 13$
$70 - 70 : 14$	$520 + 27$	$100 + 20 \cdot 4$
$270 : (45 - 36)$	$340 - 40$	$200 + 30 \cdot 3$

16. Qoldiqli bo'lishni bajaring:

$8 : 4$ $41 : 5$ $63 : 8$ $71 : 9$

17. Bo'lishni bajaring va natijani tekshiring:

$528 : 4$ $783 : 9$ $652 : 4$ $186 : 3$

18. Ko'paytirishni bajaring va natijani tekshiring:

$142 \cdot 4$ $84 \cdot 2$ $26 \cdot 3$ $439 \cdot 2$

19. Samolyot salonida har bir qatorga 6 tadan 16 qatorni yo'lovchilar band qilishdi. Zinadan yana 4 kishi ko'tarilmoqda. Bu samolyotda necha kishi uchadi?

20. 4 ta umumiylar daftari uchun 680 so'm to'landi. 6 ta shunday daftari necha so'm turadi?

- 21.** Gul do'koniga 540 dona atirgul, undan 140 ta kam lola olib kelindi. Do'konga qancha gul olib keltingan?
- 22.** Oshxonaga 170 kg kartoshka olib kelindi. Bir kunda har birida 45 kg dan bo'lgan 2 qop kartoshka ishlataldi. Necha kilogramm kartoshka qoldi?
- 23.** Oshxonada tushlikdan keyin 18 ta sabzavotli, undan 20 ta ortiq go'shtli va go'shtliga qaraganda 12 ta kam baliqli taom qoldi. Oshxonada qancha baliqli taom qoldi?
- 24.** To'rtdan bir qismining uzunligi 2 sm ga teng bo'lgan kesma chizing.

**Quyidagi topshiriqlarni bajarishga
harakat qiling:**

- 25.** Amallarni bajaring:


$$\begin{array}{ll} 46 + 27 : 3 - 31 & 90 - 5 \cdot 9 + 4 \cdot 7 \\ 27 \cdot 3 - 12 \cdot 6 & 91 - 6 \cdot 8 : 4 \\ 100 - 39 : 3 \cdot 2 & 52 + 48 \cdot 2 \cdot 0 \\ 84 : 4 \cdot 3 - 39 & 31 \cdot 3 + 75 : 5 \end{array}$$

- 26.** Amallarni bajaring:

$$\begin{array}{ll} 60 + (72 - 42) : 3 & (42 - 34) \cdot 7 + 14 \\ 81 - (64 - 4) : 2 & 9 \cdot (31 - 28) - 18 \\ 68 : 4 + (62 - 50) & 30 - 2 \cdot (9 + 4) \end{array}$$

- 27.** 4, 3, 2, 6 raqamlaridan biri ikkinchisidan 2 marta katta bo'lgan ikkita ikki xonali son yozing.
- 28.** Gulnora 13 yoshda, Lola 20 yoshda. Gulnora 25 yoshga to'lganida Lola necha yoshda bo'ladi?

29. Anvar hozir necha yoshda bo'lsa, 4 yildan so'ng Nodir shuncha yoshda bo'ladi. Bolalardan qaysi biri katta va necha yosh katta?
30. Malika 2 kunda 12 bet kitob o'qidi. Agar u birinchi kuni 1 bet ortiq va ikkinchi kuni 1 bet kam o'qisa, har kuni baravar bet o'qiydi. Malika har kuni necha betdan o'qigan?
31. Bo'sh o'rirlarga yozuvlar to'g'ri bo'ladigan qilib amal belgilarini qo'ying:
- | | |
|---------------------|-----------------------|
| 12 ... 3 = 6 ... 6 | 480 – 200 > 180 ... 2 |
| 18 ... 18 = 1 ... 1 | (80 – 14) ... 2 = 33 |
32. Qavslarni shunday qo'yingki, hamma misollarda javob 360 ga teng bo'lsin:
- | | |
|----------------------|--------------------|
| 600 – 200 + 40 | 40 + 80 · 6 : 2 |
| 480 – 300 + 80 + 260 | 30 · 9 + 574 – 484 |
33. Bolalar juft-juft bo'lib oshxonaga borishdi. Sobir o'zidan oldin 3 juft va o'zidan keyin ham shuncha juft sanadi. Oshxonaga qancha bola borgan?
34. Rasmda nechta ko'pburchak bor?



MUNDARIJA

YUZLIK	3
2-sinfda o'tilganlarni takrorlash	3
Jadvaldan tashqari ko'paytirish va bo'lish	22
Yig'indini songa ko'paytirish	24
Yig'indini songa bo'lish	34
Bo'lishni tekshirish	39
Ko'paytirishni tekshirish	44
Qoldiqqli bo'lish	47
MINGLIK	60
Uch xonali sonlarni raqamlash.....	60
Uzunlik birliklari	78
1000 ICHIDA QO'SHISH VA AYIRISH	87
Og'zaki qo'shish va ayirish	87
Burchaklarning turlari	90
Uchburchaklarning turlari	91
Massa birliklari	100
Vaqt birliklari	103
Yozma qo'shish va ayirish	116
1000 ICHIDA KO'PAYTIRISH VA BO'LISH	136
O'g'zaki ko'paytirish va bo'lish	136
Vaqt birliklari (davomi)	149
Yozma ko'paytirish va bo'lish	164
Bir xonali songa ko'paytirish	164
Bir xonali songa bo'lish	181

22.1
B 68

Bikbayeva N. U.

Matematika: Umumiy ta'lim maktabalarining 3- sinfi uchun darslik. / N.U.Bikbayeva, E.Yangabayeva.— Qayta ishlangan 7- nashri. — T.: „O'qituvchi“ NMU, 2008 — 208 b.

I Yangabayeva E.

ББК 22.1 я71

NATALIYA UMAROVNA BIKBAYEVA
ENAJON YANGABAYEVA

MATEMATIKA

3- sinf uchun darslik

Qayta ishlangan 7- nashri

„O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2008

Muharrir N. G'oipov
Rasmlar muharriri G. Shoabdurahimova
Texnik muharrir S. Tursunova
Kompyuterda sahifalovchi K. Hamidullayeva
Musahhih Z. Sodiqova

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 6.03.2008. Bichimi 70x90^{1/16}.
Garn. Helvetika. Kegel 15,14 shponli. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli b.t. 15,21. Nashr. t. 10,6. Umumi adadi 443 832 nusxada. Buyurtma № 197.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent—129, Navoiy ko'chasi, 30-uy. // Toshkent, Yunusobod dahasi, Murodov ko'chasi, 1-uy. Shartnoma № 09—14—08.

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

Nº	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslik ijara berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.